

83,9150
\\$ 77 kpaeb
408618

Yo'Idosh
SOLIJONOV

Farg'ona adiblari



Yo'ldosh SOLIJONOV

**FARG'ONA
ADIBLARI**



UO'K: 82.09(092)(575.121)

KBK: 83.3(5O')

S-77

Kitob umumiy adadining 20 foizi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi Farg'ona viloyat hududiy innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi markazi tomonidan moliyalashtirildi.

Mas'ul muharrir:

Z.RAHIMOV, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

A.SABIRDINOV, filologiya fanlari doktori;

F.KIYIKBOYEV, filologiya fanlari nomzodi.

SOLIJONOV, Yo'Idosh

S-77 FARG'ONA ADIBLARI: adabiy portretlar/ Y.Solijonov. – To'ldirilgan qayta nashr. – Farg'ona: «Farg'ona» nashriyoti, 2015. – 128 bet.

Ushbu majmua o'zbek mumtoz adabiyotining tazkira janriga xos bo'lib, unda Farg'ona va uning atrofidagi shahar hamda tumanlarda yashab ijod qilgan, adabiyotimiz rivojiga baholi qudrat hissa qo'shgan va qo'shayotgan ijodkorlar to'g'risida ma'lumot beriladi.

Farg'ona adiblari mamlakatimiz adabiy jarayonida o'z ovozi va so'ziga ega ekanligi bilan ajralib turadilar. Muallif ulardan har birining o'ziga xos ijodiy qiyofasini ochishga harakat qilgan. Kitob umumta'lim maktablari, litseylar va kasb-hunar kollejlarining o'quvchi hamda o'qituvchilari, olyi o'quv yurtlarining talabalari, adabiyotshunoslar, izlanuvchi-tadqiqotchilar, magistrantlar, umuman, adabiyotga qiziquvchi barcha kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

UO'K: 82.09(092)(575.121)

KBK: 83.3(5O')

ISBN: 978-9943-980-45-7

©Y.Solijonov – 2015.

DEBOCHA

*Farg'onani deydilar O'zbekiston durdonasi,
Qabul qiling, aziz do'stlar, durdonaning bir shodasin.*
Muallif.

Farg'ona vodiyning sarvqomat dilbari, uyqudag'i go'zalidir. Odatda, uyqudag'i go'zal qiyofasiga yaqindan tikilibroq qarash imkoni bo'ladi. Uning tim qora, tolim-tolim kokillari, nashtardek kipriklari ko'z qorachig'ini begona nigohdan asrash uchun shay, lablari, yonoqlari hayo va ibo bo'yog'idan qizargan, ko'ksi vodiylari singari sokin va salobatli. Boz ustiga, bu go'zal mustaqillik yillarda asriy uyqusidan uyg'onib, butun tashqi va ichki qiyofasini bor bo'yi bilan namoyon eta oldi. Oltin vodiyning Andijon, Namangan, Farg'ona shaharlarini kecha ko'rgan odam bugun kelsa, tanimay qoladi. Shunday go'zalni qaysi shoir sevmaydi, kuylamaydi deysiz?!

Farg'onalik bo'lmasa-da, uni suyib-suyib «O'zbekiston shamchirog'i, olmosi» deb ta'riflagan akademik shoirimiz G'afur G'ulom, «...bu diyorda oydin kecha ham o'z husnini ko'radi» deya ulug'lagan ehtirosli san'atkor Oybek, «Ona vodiylari, oltin tuproq Farg'ona»ni:

*Yurtimizning Eram bog'i – beg'ubor,
Chiroyingga kunduz quyosh parvona,
Kechalari yulduz xumor, oy xumor...*

deb kuylagan oshiq Mirtemirlar nazariga tushgan bu o'lkadan o'nlab baquvvat ijodkorlar yetishib chiqqan.

Biz ushbu tazkiraga Farg'onaning muqaddas zaminida tug'ilib voyaga yetgan va shu makonda yashab ijod qilgan qalam ahllari orasidan eng saralarini, mahsuldarlarini, umum o'zbek adabiyotiga u yoki bu janrda munosib hissa qo'sha olgan va bu mashaqqatli mehnati evaziga O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga loyiq topilgan ijodkorlarni kiritdik. Ularning ba'zilari bu soniy dunyoni tark etganlar,

ayrimlari 60 yoshdan oshgan, aksariyati 30 bilan 60 yosh oralig‘idagi navqiron avloddir. Ularning barchasi Farg‘onada yashab, ishlab ijod qiladilar. Shu boisdan ham ularning har bir asarida ona yurt tarovati, quyoshining harorati, to‘rt tarafida voqe bo‘lgan tog‘lar (Bobur iborasi) salobati, gullar va maysalar hidi, nozik tabiatli odamlarining didi sezilib turadi.

Farg‘ona adabiy muhitini tadqiq etish yo‘lidagi ilk qadam hisoblangan ushbu kitob dastlab 2005-yilda nashr etilgan va undan uyushma a‘zosi bo‘lgan 30 nafar ijodkorning adabiy portreti o‘rin olgan edi. Afsuski, muallifning beparvoligi oqibatida o‘sha paytda uyushma a‘zosi bo‘lgan uch nafar qo‘qonlik ijodkorlar – Kommuna Olimova, Azamatjon Azizov, Mansurxo‘ja Xo‘jayev, Bag‘dod tumanida yashovchi Mamasoli Sarimsoqovlar kitobdan o‘rin olmagan edi. Boz ustiga oradan o‘tgan 10 yildan ortiq muddat ichida Komiljon Jo‘rayev, Zuhra Aliyeva, Siddiqjon Mo‘minov kabilar uyushma a‘zoligiga qabul qilindi. Asli toshkentlik taniqli jurnalist, adiba San’atxon Mahmudova ham kelin bo‘lib tushgan go‘sashi – Quvaga ko‘chib keldi va shu yerda yashab, barakali ijod qilmoqda. Farg‘ona ijodkorlari safi yanada kengaydi. Shuningdek, o‘tgan o‘n yil ichida har bir ijodkorning kamida 2-3 tadan kitobi bosilib chiqdi, ijodida ko‘plab yangi xususiyatlar namoyon bo‘ldi. Shularni hisobga olib, «Farg‘ona adiblari» kitobining qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashrini tayyorlash zarurati tug‘ildi. Qisqa muddatda yuz bergen o‘zgarishlar adabiyotning tez sur’atlar bilan rivojlanayotganidan dalolat beradi. Ortimizdan guras-guras iste’dodli ijodkor yoshlari yetishib chiqmoqda.

Demak, tazkira ijodiy safarini davom ettiradi va yil sayin boyib boraveradi. O‘ylaymizki, bundan keyin yaratilajak tadqiqotlarda Farg‘ona adabiy muhiti va unda yashab ijod qilayotgan adiblar hayotini yoki asarlarini tadqiq qilish bilan qiziquvchi mutaxassislar ushbu kitobdan o‘zlarini izlagan ma’lumotlarni ololsalar, niyatimiz amalga oshgan bo‘ladi.

Kitob haqida bildirilgan har qanday fikr-mulohazalar uchun oldindan tashakkur izhor qilaman.

TABARRUK MASKAN

Farg'ona adabiyoti umum o'zbek adabiyotining tarkibiy qismi bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega. Bu tabarruk tuproqda tug'ilib voyaga yetgan olim-u shoirlar xalqimiz nomini dunyoga mashhur qilganlar. Misr xalqining hayotini farovon qilishda mislsiz kashfiyat yaratgan Ahmad Farg'oniy asli vodiyning go'zal maskanlaridan biri – Quvada tug'ilib o'sganligi bizda cheksiz faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Insoniyat dunyoga kelgandan buyon go'zallikka, she'riyatga, san'atga yo'ldosh bo'lib yashayotgan ekan, o'lkamizning oltin vodiyisida istiqomat qilayotgan Farg'ona ahli ham bu milliy va tarixiy an'anadan chetda qolgani yo'q. Farg'onaning gullab-yashnashida uning ko'ngil mulki hisoblangan ijodkorlar alohida o'rinn egallaydi.

Madaniyatimiz tarixida Qo'qon adabiy muhiti alohida sahifani tashkil etishi hech kimga sir emas. Ayniqsa, Qo'qon xoni, iste'dodli shoir Amir Umarxon davrida (1810-1822-yillar) adabiyot g'oyat rivojlandi. Xon saroyidan yuzlab shoir, olim, tarixchi, tarjimonlar boshpana topgan va qizg'in ijodiy ish bilan shug'ullangan edilar. Amiriylar vafotidan so'ng ham adabiy jarayon Nodira hamda Uvaysiy rahbarligida qariyb 20 yil, to Buxoro amiri Nasrulloxon Qo'qonni bosib olgunga qadar davom etdi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan so'ng Farg'ona adabiyotida yangi sahifalar ochildi. Rus chorizmining istilosiga tufayli ikki yoqlama zulm va milliy, irqiy, diniy, ijtimoiy kamsitishlar avjga chiqqan bo'lsa-da, avvalo, buyuk Sharq adabiyotining o'lmas an'analari, qolaversa, progressiv rus adabiyoti ta'sirida demokratik-xalqparvar oqim dunyoga keldi. Bu oqim adabiyotga yangicha mazmun va yangicha shakllar olib kirdi. Muqimiylar, Furqat, Zavqiy, Ibrat, Mavlaviy Yo'ldosh, Haziniy, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Nodim Namangoniy singari ijodkorlar ana shu oqimning bayroqdori bo'ldilar. Bu ijodkorlarning sa'y-harakati bilan o'zbek adabiyotining mundarijasigina emas, balki shakli ham tubdan o'zgardi, badiiy adabiyot ruhan va ma'nani xalqqa yanada yaqinlashdi.

Afsuski, oktabr to'ntarishidan keyin bolsheviklar partiyasi adabiyot ustidan hukmronlik o'rnatishga urindi. Bu hukmronlik RKP(b) tomonidan chiqarilgan «Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida» (1925-yil 18-iyun), «Adabiy-badiiy tashkilotlarni qayta qurish to'g'risida» (1932-yil 23-aprel)gi maxsus qarorlari bilan

hujjatlashtirib ham qo'yildi. Sirdan qaraganda, bu qarorlar ijodkorga erkinlik, adabiy jarayon rivojiga turki bergandek tuyuladi. Aslida esa adabiyotni tayyor qolipga soldi, ijodkorlarni bir necha mayda guruhlarga bo'lib yubordi.

Dastlabki qarordan so'ng 1926-yil noyabr oyida poytaxt – Samarqandda O'zbekiston proletar yozuvchilarining «Qizil qalam» tashkiloti tuzildi. Shu yilning dekabrida esa Turkistonda bиринчи bo'lib vodiyning Qo'qon, Farg'ona, Namangan shaharlarida «Qizil qalam» bo'limlari tashkil etildi. Bu bo'limlarning vazifasi asosan «sovet platformasida mahkam turgan yozuvchilarni o'z atrofiga uyushtirish»dan iborat edi. Garchi eski yozuvchilarni inkor etgan, haqiqiy milliy adabiyotimiz namoyandalarini millatchi sifatida tanqid qilgan bo'lsada, «Qizil qalam» tashkilotining ushbu bo'limlari boshqa viloyatlardan oldinroq vodiyning uchta shahrida ochilishi o'sha paytdayoq Farg'ona adabiy muhitining respublika adabiy hayotida o'ziga xos o'rni borligidan dalolat beradi. So'nggi bir asr mobaynida adabiyotimiz tarixida ilk bor «O'zbekiston xalq yozuvchisi», «O'zbekiston xalq shoiri» degan sharaflı unvonlarga musharraf bo'lган Hamza Hakimzoda Niyoziy, Muhammadsharif So'fizodadek (1926) millatparvar ziyolilar, o'zbek hikoyachilik mактабining asoschisi deb nom olgan O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhordek so'z ustalari ana shu so'lim vodiyyadan yetishib chiqdilar. Shuningdek, o'tgan asrda Sherali Toshmatov, Is'hoq Sodiqov, Jalol Mashrabiy, Adham Hamdam, Anvar Muqimov, Yo'ldosh Sulaymonov singari iste'dodli qalam sohiblari o'zlarining tarixiy va zamонавиев mavzudagi ajoyib romanlari, qissa, hikoya va dramalari bilan o'zbek adabiyoti boyligiga munosib hissa qo'shdilar.

30-yillarda bu tashkilotlar siyosiy xatoga yo'l qo'yganlikda ayblanib tugatildi va yagona sovet yozuvchilari uyushmasi tashkil etildi. 1934-yilning mart oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston yozuvchilarining I syezdi bilan 1939-yil aprelda o'tkazilgan II syezdi oralig'idagi 5 yillik muddat, asosan, tashkiliy ishlarni amalga oshirishga sarflandi. II syezdda uyushma boshqaruvining raisi lavozimiga saylangan Hamid Olimjon endi viloyatlarda ham adabiy jarayonni rivojlantirish, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bo'limlar ochishni rejalashtirdi. Bu ish ham bиринчи bo'lib Qo'qonda amalga oshirildi. Buni hayotning o'zi talab qilmoqda edi. O'zbek xalqi suv muammosini hal etish uchun

270 kilometr uzunlikdagi Katta Farg'ona kanalini hashar yo'li bilan qazishga kirishgan, o'zbek adabiyoti va san'atining markazi qurilish maydonlariga ko'chgan edi. Bu yerda odamlarning ruhini ko'tarish, ularning qahramonona mehnatini tarannum etish uchun ijodkorlarning boshini qovushtiradigan bo'lim tuzish zaruriyati tug'ildi.

1939-yilning avgust oyida H.Olimjon tashabbusi bilan O'zbekiston yozuvchilari uyushmasining Farg'ona viloyati bo'limi tashkil etilib, uning kotibi vazifasiga shoir Asqarali Hamroliyev (Charxiy) tayinlandi. Bo'lim uchun Qo'qon shahrida alohida xona ajratilib, bu yerga telefon ham tushirib berilgan. Respublikamizning taniqli ijodkorlari ham, Moskvadan kelgan rus qalamkashlari ham, mahalliy havaskorlar ham ana shu bo'lim tuzgan tadbirlar asosida uchrashuvlar o'tkazgan, asarlar yaratishgan.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi tufayli bo'lim faoliyati to'xtab qoldi va o'n yilgacha tiklanish, qayta qurish ishlari bilan ovora bo'lindi.

50-yillar o'rtalarida Farg'onada yozuvchilar uyushmasi qayta tiklandi. Endi uning rahbarligiga Toshkentdan (asli qo'qonlik) shoir Temur Fattoh yuborildi (1954-1956). Keyin uning o'rnnini Sami Abduqahhor egalladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, urush qatnashchisi, nisbatan yosh va g'ayratli shoir S.Abdुqahhor ikki yil mobaynida samarali ishladi. Talabalar, o'quvchilar orasidan iste'dodli qalamkashlarni topdi va ro'yobga chiqardi. Y.Sulaymonovning guvohlik berishicha, hozirgi paytda o'z she'rlari, qo'shiqlari bilan mashhur bo'lgan shoir Oxunjon Hakimovni dastlab S.Abdुqahhor kashf qilgan va unga oq yo'l tilagan edi. U 1958-yilda «Sharq yulduzi» jurnaliga ishga chaqirib olingach, bo'limning mas'ul kotibligi vazifasini farg'onalik Jalol Mashrabiy bajardi.

1960-yilda bo'limga yana Toshkentdan shoir Sayyor mas'ul kotib etib tayinlandi. Sayyor Toshkentga qaytib ketgach, mas'ul kotiblikka tayinlangan shoir va hajvchi Adham Hamdam ijodiy muhitni yanada rivojlantirdi. Sherli Toshmatov, Is'hoq Sodiqov, Yo'ldosh Sulaymon, Bektemir Mahmudov, Omon Jorqinboyev, San'at Mahmudova, Malika Mirzayeva, Ahmadjon Yoqubov, Mamadali Umarov, Anvar Yunusov singari o'nlab ijodkorlarning she'r, hikoya va tarjima asarlari respublika matbuotida ham tez-tez chop etilardi.

Farg'onada adabiy muhitning yanada rivojlanganligini ko'rgan

respublika rahbariyati uning faoliyatini yaxshilashga alohida e'tibor bera boshladi. Uyushma boshqaruvining raisi Komil Yashin tashabbusi bilan viloyat bo'limining faoliyat doirasi yanada kengaytirildi. Uyushma hay'atining topshirig'i bilan 1977-yilda Farg'onaga kelgan dramaturg Mumtoz Muhamedov, shoir Akmal Po'latlar ishtirokida o'tgan yig'ilishda respublika yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi raisligiga (mas'ul kotiblik shtati bekor qilindi) taniqli shoir va yozuvchi Yo'ldosh Sulaymonov saylandi. Bo'lim huzurida alohida badiiy adabiyotni targ'ibot qilish bo'limi tashkil etilib, A.Hamdam uning mudiri etib tayinlandi.

1979-1987-yillarda uyushmaga shoira Malika Mirzayeva rahbarlik qildi. Ma'lumki, 80-yillarda respublikaning ijtimoiy, madaniy va adabiy hayotida jiddiy o'zgarishlar, o'zlikni anglash jarayoni ro'y berayotgan edi. Avvalgi o'n yillar mobaynida yozuvchilar uyushmasiga a'zolar qabul qilish juda qiyinchilik bilan amalga oshirilardi. Sovet mafkurasining talabiga ko'ra, bo'lajak a'zo ijtimoiy kelib chiqishi jihatdan «pokiza», ya'ni chet elda qarindosh-urug'i bo'lmasligi, dunyoqarashi shakllangan, eng muhimi, kommunist bo'lishi talab qilinardi. 80-yillarga bu talablar biroz yumshadi. 1983-yili respublika yozuvchilar uyushmasining yangi rahbariyati Farg'onaga kelib, boshqaruv hay'atining ko'chma yig'ilishini (S.Azimov raisligida) o'tkazdi va farg'onalik 11 nafar qalamkashni uyushma a'zoligiga qabul qildi. Shundan so'ng Farg'ona adabiy muhitida yanada jonlanish va ko'tarinki kayfiyat vujudga keldi.

1987-yili uyushma raisligini yana qaytadan qabul qilib olgan Y.Sulaymonov o'n yil davomida yosh ijodkorlar o'rtaida katta tashkiliy va ijodiy ishlarni yo'lga qo'ydi. Shu paytgacha hali uyushma tashabbusi bilan bironta bayoz nashr etilmagan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, Y.Sulaymonovning yelib-yugurishi, o'sha paytdagi viloyat hokimi, ijodkor M.Islomovning qo'llab-quvvatlashi va homiyligida 1994-yili «Go'zal bir dunyo» deb nomlangan she'riy to'plam nashr qilindi. Bayozdan viloyatda yashab ijod qilayotgan 70 qalamkashning turli janrdagi asarlari o'rinni olgan edi.

Y.Sulaymonov davrida uyushma huzuridagi targ'ibot bo'limi Ijodkor yoshlari uyushmasiga aylantirildi va uning doirasi yanada kengaytirildi. Yozuvchilar uyushmasi atrofi bog' bo'lgan ko'p xonali binoga joylashtirildi. Bu binoda Ijodkor yoshlari uyushmasining

boshlig'i Abduhalil Rahimovning sa'y-harakati bilan tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, turli hunarmandchilik to'garaklari ochildi. Ularga qatnashgan yoshlар orasidan ko'plab yangi iste'dodlar yetishib chiqdi. Buning ustiga har yili bahor faslida viloyat mакtabalarining o'quvchilari orasida «Biz Navoiy avlodlarimiz» mavzusida seminar-kengash o'tkazish odат tusini oldi. Bunday anjumanlarda ishtirok etib, sovrinli o'rirlarni olgan umid nihollaridan Farg'onada kattakon adabiyot bog'i vujudga keldiki, uning totli mevalari hali-hanuzgacha o'z mazasi hamda tarovatini yo'qotgan emas.

Y.Sulaymonov O'zbekiston Respublikasi yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o'rincosari lavozimiga ishga o'tishi munosabati bilan viloyat bo'limini dastlab taniqli shoir Ismoil Mirzamahmudov (1996-1998), keyin Matluba Ahmedova (1998-2001) boshqardilar. Uyushmaning tizim tarkibi yana o'zgardi. Ijodkor yoshlар uyushmasi tugatildi. Shunga qaramay, ijodiy muhitni yaxshilash maqsadida talay ishlar amalga oshirildi. 1999-yili «Navro'z» jamg'armasi viloyat bo'limi homiyligida 20 dan ziyod shoirlar she'rlaridan tashkil topgan «Navro'zi olam» to'plami chop etildi.

2001-yildan buyon uyushmaga iste'dodli shoira Enaxon Siddiqova rahbarlik qilib kelayotir. Uning davrida uyushma yana qaddini tikkadi, faoliyat doirasini yanada kengaytirdi. Hozir uyushmaning 40 ga yaqin a'zosidan 22 nafari ishtiyoq bilan samarali ijod qilmoqda. Uyushma qoshida tashkil etilgan «Oltin qalam» to'garagida ko'plab yosh ijodkorlar saboq olishyapti. Har yili respublika ijodkor yoshlарining ijodiy seminarida farg'onalik ijodkorlar faxrli o'rirlarni olib kelmoqdalar.

2002-yildan boshlab respublika yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda Farg'ona viloyatida har yili she'riyat kechasini o'tkazish rejalashtirildi. Dastlabki tadbir 2002-yil sentabr oyida bo'lib o'tdi. Bu anjumanning yana bir xayrli tomoni shunda bo'ldiki, oradan 20 yil o'tib, Farg'ona davlat universitetining katta majlislar zalida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi hay'atining A.Oripov boshchiligidagi o'tkazilgan ko'chma yig'ilishida farg'onalik ijodkorlardan uch kishi – iste'dodli shoirlar Dilbar Hamzaxo'jayeva, Bahodir Iso, taniqli adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonovlar uyushma a'zoligiga qabul qilindilar. 2003-yilning aprel oyida o'tkazilgan ikkinchi she'riyat kechasi tantanalari akademik shoir G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligi shodiyonasi bilan qo'shilib ketdi.

Xullas, Farg‘ona adabiyoti o‘zining an’analarini davom ettirib va bo‘yitib, umumo‘zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shib kelayotir. Uning yangi qadamlari yanada dadil va samarali bo‘lishiga ishonamiz.

Xalq ma’naviyatini yuksaltirishning asosiy vositasi hisoblangan adabiyotni rivojlantirishga hukumatimiz, shaxsan muhtaram Prezidentimiz alohida e’tibor qaratdi. Yurtboshimiz Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch», «Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor» kabi asarlarida adabiyotning jamiyat hayotini yanada yaxshilash, omma ongiga milliy mafkura asoslarini chuqur singdirishdagi roli muhim ekanligi ta’kidlandi.

Badiiy adabiyotga, ijod ahliga e’tiborning amalda qanchalik samarali bo‘layotganini Farg‘ona adabiy muhiti misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Viloyat mehnatkashlari qariyb o‘n besh yildan buyon adabiyot ichida yashamoqda, adabiyot bilan nafas olmoqda desam, mubolag‘a qilyapti deb o‘ylamang. 2002-yildan buyon deyarli har yili Farg‘onada respublika adabiyoti kunlari o‘tkazib kelinayotir. Ularda xalqimizning ardoqli shoirlari Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Anvar Obidjon, Iqbol Mirzo, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyev, yirik adabiyotshunoslardan Umarali Normatov, Ibrohim G‘afurov kabilar muntazam ishtirok etib kelmoqdalar. Bu tadbirlar insoniyatning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasini shakllantirishda adabiyot va san’at g‘oyat samarali hamda ta’sirchan vosita ekanligiga ishonch hosil qildi.

O‘tgan ikki-uch yilning o‘zida viloyatimizda adabiy jarayon, ayniqsa, g‘oyat qizg‘in kechdi. Har yil boshi va oxirida viloyat hokimi tomonidan ijodkorlarni qabul qilish, uyushma hisobotini tinglash, har bir ijodkorning adabiy jarayonni yanada rivojlantirish, sermahsul ijod qilish va eng muhimi, badiiy asarning mazmunan xalqchil bo‘lishiga erishish, yoshlar orasidan iste’dodlilarni izlab topish, tanlash va tarbiyalash, mehnatkashlar ommasining ichiga kirish, ularning ruhiyatini ko‘tarish, maqsad va intilishlarini tushunish, ma’naviy dunyoqarashini yanada yaxshilash borasida nimalarga e’tibor berish, qanday ishlarni amalga oshirish zarurligi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari, istak va talablari bilan tanishish odat tusiga kirdi.

Allomalar yurti bo‘lmish Farg‘onada birin-ketin Huvaydo,

Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Haziniy va Charxiylarning tavallud ayyomlarini nishonlash, maqbaralarini obod qilish, ular yashagan shahar va qishloqlardagi uy-muzeylarni qayta tiklash, ta'mirlash, yangi eksponatlar bilan boyitish bilan birga Uvaysiyning «Mazmun ma'dani», Muqimiyning «Bog' aro», Furqatning «Muhabbat yo'lida», Huvaydo va Haziniyning mukammal «Devon»lari, Charxiyning «Qiyolab o'tdi» nomli kitoblari ko'p nusxada nashr etildi. Bu savob ishlar viloyat hokimligi, viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi hamda yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi hamkorligida amalga oshirildi.

Ta'kidlash joizki, viloyatda adabiyotga e'tibor faqat o'tmishda ijod qilgan adiblarni eslash va qadrlash bilangina cheklanib qolayotgani yo'q. Kechagi kunni unutmagan holda ertangi kunimizga – kelajakka nazar tashlash har birimizning muqaddas burchimiz hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan kun tartibiga qo'yilayotgan bu muhim vazifa ham viloyatimizda samarali amalga oshirilmoqda. Dastlabki paytda viloyat bo'yicha atigi uchta to'garak faoliyat olib borgan bo'lsa, keyingi yillarda ular o'ntadan oshib ketdi. Viloyatning eng chekka tumanlarida ham yosh qalamkashlar uchun adabiy to'garaklar tashkil etilib, ularga taniqli va tajribali ijodkorlar biriktirib qo'yildi. To'garaklarni tashkil etishdan asosiy maqsad yoshlar orasidan eng iste'dodli qalamkashlarni tanlash, saralash, tarbiyalash va qo'llab-quvvatlashdir. Hozir yoshlar o'rtasida badiiy ijodga mehr qo'yanlar juda ko'p. Ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash bilan umumo'zbek adabiyotining boyishiga munosib hissa qo'shish mumkin.



HAQIQAT IZLAGAN ADIB

(1889-1929)



Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayot yo‘li va ijodiy merosi ko‘pchilikka tanish. U 1889-yil 6-mart kuni Farg‘ona viloyatiga qarashli Avval qishlog‘ida tug‘ilib, 1929-yil 18-martda Shohimardonda vafot etdi. U bor-yo‘g‘i qirq yil yashadi. Ammo shu qisqa umrining yarmidan ko‘pini shaxsiga, sha’niga, oilasiga, ijodiga qilingan turli bo‘htonu ig‘volarga qarshi haqiqatni tiklash uchun kurashga sarfladi. Akademik S.Mamajonov qayd etganidek, Hamza butun umri davomida «zo‘r berib haqiqat yo‘lini qidirib» o‘tdi. Chindan ham adabiyotga «Haqiqat kimda?» (1908-yilda yaratgan romani) degan savol bilan kirib kelgan ijodkor to o‘lgunicha shu savoliga javob izladi, ammo unga javob topolmay, yarim yo‘lda halok bo‘ldi.

Yoshligi tabibchilik bilan shug‘ullanuvchi otasining xon saroyiga taklif qilinishi munosabati bilan Qo‘qon shahrida o‘tdi. U rus bolalari bilan do‘splashdi, tilini o‘rgandi. Ular orasidan bir rus qizini sevib, unga uylandi. Buning uchun din peshvolarining qahr-g‘azabiga uchradi. Oxiri o‘zini oqlash uchun haj safariga otlanib, Makkai Madinani ziyorat qilib keldi (1912-1916-yy). Ammo shunda ham uni tinch qo‘ymadilar. Jamiyatda, hayotda yuz berayotgan yangiliklarni kuylagani, zamondoshlarini ilm-ma’rifatga chorlab, yangicha usulda maktablar ochgani, gazeta va jurnallar nashr qilib, xalqni o‘z haq-huquqini anglashga da‘vat etgani uchun tag‘in qarshilikka uchradi (1916-1918-yy). Shunga qaramay, qayerda, qanday vaziyatda bo‘lmasin, ilm-ma’rifat nuri bilan xalqining ko‘zini ochishga harakat qildi. Qo‘qon, Namangan, Farg‘ona, Toshkent, Xo‘jayli shaharlarda maktablar, internatlar ochdi.

Uncha-muncha cheklash va tazyiqlarga qaramay astoydil xizmat qilayotgan bu fidoyi fuqarosini sho‘ro hukumati o‘z manfaatlariga xizmat qildirishga urindi. Inqilobgacha chor hukumatining ichki va tashqi siyosatiga isyonkorona munosabatda bo‘lgan va oktabr to‘ntarishini quvonch bilan qarshilagan Hamza Hakimzodani Sho‘ro

hukumati 2-agitpoyezdga rahbar etib tayinladi. Xiva, Qoraqalpog'iston, Farg'onada maktab-maorif ishlarini yo'lga qo'yishni uning zimmasiga yukladi. Uni yana ham rag'batlantirish uchun O'zbekiston Markaziy ijroiya qo'mitasining 1926-yil 27-fevraldagi qarori bilan, mamlakatda birinchi bo'lib, «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvonini berdi. Farg'onalik ijodkorlar orasida Hamza bu unvonga birinchi bo'lib erishdi. Bundan ruhlangan shoir ham amaliy, ham ijodiy tomonidan yanada faollahshdi. Uning ana shu sadoqatidan foydalanish uchun sho'ro hukumati 1927-yilda o'z siyosatini amalga oshirish, jamoa xo'jaliklari tashkil qilish, dinni fosh etish va ulamolarga qarshi fitna tayyorlash maqsadida shoirni Shohimardonga yubordi. Ammo bu yerda u qattiq qarshilikka uchradi. Yangi hukumat haybarakallachilik qilib turgan bo'lsa ham, amalda o'z kishisini qo'llamadi. Shor shu yerda halok bo'ldi.

Hamza o'limidan so'ng ham o'n yil mobaynida turli shubha va gumanlardan qutilmadi. Uning xalq o'rtaсидаги обро'sи, notiqligi, kirishimliligi, dadilligi, ommani orqasidan ergashtira olish qobiliyatidan o'z vaqtida unumli foydalangan sho'ro hukumati shirasini siqib olgach, vafotidan keyin shaxs sifatida ham, ijodkor qiyofasida ham unutdi. Hech kim uni eslamay qo'ydi. Chunki undan-da muhimroq tadbirlar amalga oshirilishini kutib turardi: adabiyot va san'atni tozalash, uni partiyaning dastyoriga aylantirish zarur edi. Buning uchun «eski» yozuvchilarni yo'qotish, yangilarini o'z izmiga solish kerak edi. Bu tadbir juda tez va shafqatsizlik bilan amalga oshirildi.

1939-yildan boshlab O'zbekiston xalq yozuvchisi Hamza Hakimzoda Niyoziy boshida «quyosh charaqladi». Tavalludining 50 yilligini nishonlash munosabati bilan shoirga «inqilob kuychisi» degan nihoyatda zamonaviy yorliq yopishtirildi. Uning shaxsi va ijodiy merosi soxtalashtirilib, qizilga bo'yaldi. Vaholanki, uning inqilobiy mavzudagi she'rlari barmoq bilan sanarli edi. Aslida erkka («Yasha, Turon!», «Berma erkingni qo'lidan», «Hoy, ishchilar», «Biz ishchimiz»), ma'rifatga («Ishchilar, uyg'on!», «Uyg'on!»), o'zlikni anglashga («Yashangiz, ishchi-dehqonlar», «Uyg'on, Vatan») chaqiriq ruvida yozilgan she'rlari kommunistik mafkura malaylari tomonidan qayta ishlandi va manfaatdorlik nuqtai nazaridan talqin qilindi. Natijada yarim asr mobaynida adabiyotimiz uchun Hamza «inqilob kuychisi» bo'lib xizmat qildi.

Aslida, Hamza Hakimzoda ham zamondoshlari Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Qodiriy, Munavvar qorilar kabi XX asr boshlarida jadidchilik harakatining oldingi saflarida faol ishtirok etgan, jaholatga qarshi ma'rifat bayrog'ini baland ko'targan, Turkiston mustaqilligi uchun astoydil kurashgan, o'z millatining erkin yashashini orzu qilgan ziyoli edi. Buning uchun u xalqini ma'rifatli qilish yo'lida ham amaliy, ham ijodiy faoliyat ko'rsatdi. Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniyalar singari, yangicha usulda maktablar ochish bilan birga, o'zining «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi», «Yengil adabiyot» kabi darsliklarini yaratdi va nashr ettirdi.

Hamza o'zbek adabiyotining barcha janrlarida sermahsul ijod qilgan san'atkordir. 10-11 yoshidan she'r yoza boshlagan Hamza 25 yoshida «Devoni Nihoniy» kitobini nashr ettirdi. Devonga uning o'tgan 15 yil ichida yozgan 177 ta she'ri kiritilgan. Ulardan 150 tasi g'azal, qolgani turli janrlarga oid lirik asarlardir. Devondagi 165 ta she'r o'zbek, 10 tasi tojik tilida, 2 ta she'r esa shiru shakrlida o'zbekcha-ruscha so'zlar aralashtirib yozilgan. Shakl va mazmundagi bunday yangilanishlar, shubhasiz, shoirning chindan ham XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligini ko'rsatadi.

Hamza o'zbek she'riyatining yangilanishiga ham salmoqli hissa qo'shdi. Shoirning 7 bo'limdan iborat «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar» nomli majmuasi hamda ko'plab she'rlari barmoq, hatto erkin («Yer islohoti», «Majlisdan keyingi kuzatishda», «Qutlug' bo'lsin») vaznlarda yozilganligi uning novatorligini ko'rsatuvchi muhim dalildir.

Roman atamasini birinchi bo'lib iste'molga olib kirgan ham, shu nomdag'i asarni birinchi bo'lib yozgan ham Hamza Hakimzodadir.

O'zbek dramaturgiyasining dunyoga kelishi, janrlarining yangilanishi va rivojlanishi bevosita Hamza nomi bilan bog'liqdir. Chunki u o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib dramatik turga oid komediya, tragediyalar yaratishdan tashqari, dramatik triologiya («Loshmon fojiasi», 1916-1919-yy), dramatik tetralogiya («Farg'ona fojiasi», 1918-1920-yy), she'riy dramalar («Saylov oldidan», «El quzg'unlari») yaratdi.

Mutafakkir san'atkor o'zi xizmat qilayotgan sho'ro hukumati o'zbek ziylolariga o'ta shafqatsizlik bilan salbiy munosabatda bo'layotganligini inqilobning dastlabki yillaridayoq anglab yetgan edi. Bu uning «Loshmon fojiasi» dramatik trioliyasining 3-asari «Istibdod

qurbonlari»da aniq bilinadi. Dramadagi nachalnik nutqi orqali muallif mustamlakachilar Turkiston xalqini «qaro mehnat bilan ezib bitirmoq», «bizga (qarshi) kutilmagan ikkinchi bir balo bo‘lib chiquvlari»ning oldini olmoq uchun «ziyolik firqalaridan tortib, sekin-sekin yo‘q eta berish kerak» degan fikrni ilgari suradiki, bu sho‘ro hukumati qanday maqsadda ish olib borganligining badiiy ifodasidir. Bu Hamzaning buyuk jasorati va donishmandligi edi.

Yuqorida bayon qilingan mulohazalar otashnafas shoir, sermahsul yozuvchi, mohir dramaturg, o‘tkir publitsist, faol jamoat arbobi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Hamza Hakimzoda Niyoziyning ijodiy merosi xalqimizning mustaqillikka bo‘lgan muhabbatini yanada oshirishga, «kim edigu kim bo‘ldik?» degan savolga javob topishga yordam beradi va uning mangu barhayot qolishini isbotlaydi.



VODIY BAHORINING KUYCHISI

(1895-1977)

Is'hoq Sodiqov 1895-yili Qo'qon shahrida tug'ildi. Uning yoshligi XX asr boshlarida butun Turkistonni qamrab olgan dahshatli inqilobiy va reaksiyon voqealari alanga olgan, bundan ho'lu quruq teng yonayotgan bir davrga to'g'ri keldi. Yosh qalb ularning qaysi birini tanlab olishni bilolmay qiyaldidi. Oila tirikchiligi qiyinlashganligi sababli 8 yoshidayoq ustaga shogird tushib, ishlay boshlagan Is'hojon turmushda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirdi va katta hayotiy tajriba orttirdi. Qo'qon qadim xonlikning poytaxti, birmuncha sanoat korxonalarini borligi, bu yerga ko'plab ruslar kelib o'mashganligi sababli o'smir yigit ularning ta'siriga berilib, inqilobiy harakatga qo'shildi.



Avji yigit yoshida Birinchi jahon urushi, milliy ozodlik qo'zg'oloni, 1917-yilgi fevral va oktabr inqiloblarini boshidan kechirdi. Albatta, bu voqealar ta'sirida dunyoqarashi o'zgarib borayotgan yigit hayotida yangiliklar ro'y bermasligi mumkin emasdi. Oktabr to'ntarishining dastlabki yillaridayoq I.Sodiqov qizil armiya safiga kirib, bolsheviklar qatorida yangi hukumat uchun astoydil kurash olib bordi. 1919-yilda bolsheviklar partiyasi safiga kirgan Is'hoq Sodiqov rahbarlik lavozimi pog'onalaridan tez ko'tarila boshladi. Dastlab qizil armiya qo'shinining oziq-ovqat otryadiga boshchilik qildi. Keyin partiya qayerga yuborsa, o'sha yerda sidqidildan xizmat qildi. Bir necha yil ko'ngilli xalq militsiyasi tarkibida ishlab, o'sha paytda «bosmachi» deb atalgan, aslida milliy-ozodlik uchun kurashuvchi hamyurtlariga qarshi jang ham qildi. So'ngra 1925-1926-yillardan boshlab Farg'ona viloyati «Qo'shchi» soyuzi raisining o'rinosi vazifasida xizmat qildi. Sovet hukumati va kommunistik partiya o'zining sadoqatli fuqarosini yanada qattiqroq bog'lab olish maqsadida uni 1931-yilda Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahridagi kommunistik universitetda o'qib kelish uchun yubordi.

Ikkinchi jahon urushi yillarda aholi o'rtasida faol targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borib, ko'ngilli mehnat otryadlari tuzdi va Uraldag'i qurolyarog' ishlab chiqaruvchi zavodlarga olib borib ishlatdi. O'zi ularga rahbarlik qilib, bir necha yil o'sha yerda yashadi. Is'hoq Sodiqovning

ijodi mana shu mehnat frontida kurtak yora boshladi. Uning ilk asari «Biz Uralda» nomi bilan 1947-yilda bosilib chiqdi. Sodiq Qalandar taxallusi bilan chop ettirgan ushbu qissada o'sha davr talabiga ko'ra Ural zavodlariga borib ishlayotgan o'zbek yoshlaringin fidokorona mehnati hamda muhabbat qalamga olingen edi. Sevgan yigitining ortidan rus shaharlariga kelib, jasorat va sadoqat namunasini ko'rsatgan To'paxon o'zbek folklori namunalarida yaratilgan jasur o'zbek ayollarining vakili sifatida esda qoladi.

Is'hoq Qalandar qissa ustida ishni davom ettirdi va 1957-yilda uni «Zo'r sinov» nomi bilan roman sifatida nashr ettirdi. Biroq, baribir, ilk nusxada yo'l qo'yilgan kamchiliklar romanda ham aniq seziladi.

Shundan so'ng Farg'ona shahrida yashay boshlagan Is'hoq Sodiqov badiiy ijod bilan astoydil shug'ullandi va birin-ketin uchta roman chop ettirdi. Adibning «Farg'ona zulmat qo'ynida», «Istiqbol sari», «Vodiyda bahor» deb nomlangan bu romanlari partiyaviylik badiiy adabiyyotning asosiy fazilati, sotsialistik realizm metodi esa bosh qon tomiri hisoblangan 70-yillarda g'oyaviy jihatdan yetuk asarlar sifatida baholandi. Xususan, yirik adabiyyotshunos olimlar M.Qo'shjonov, S.Mirvaliyevlar bu romanlarning g'oyaviy mazmuniga yuqori baho berdilar. Ayni chog'da ular mazkur triligiyaning «badiiy jihatdan birmuncha bo'sh yozilgan»ligini ham alohida qayd etib o'tdilar.

Har holda, Farg'ona zaminining keksa avlodiga mansub bo'lgan adib Is'hoq Sodiqovning butun hayot yo'li, ijtimoiy faoliyati va ijodiy konsepsiysi sovet tuzumi siyosati hamda kommunistik mafkura g'oyalari bilan to'la sug'orilgan desak, uni maqtamagan ham, kamsitmagan ham bo'lamiz. Chunki bu «fazilat» uni ayblastish va asarlarini inkor qilishga asos bo'la olmaydi. Negaki, yozuvchi o'z asarlarida zulmat qo'ynida yorug'lik izlayotgan va shu yorug'lik sari intilayotgan, xalqning turmushini farovon qilish istagi bilan kurashayotgan yaxshi niyatli kishilar timsolini yaratdi. Ular oltin vodiya mangu bahor kelishini orzu qilgan edilar. Ularning orzusi bugun ro'yobga chiqqan bo'lsa ne ajab?! Binobarin, «Vodiyda bahor» romanining qahramonlaridan biri O'rinnboy Ashurov tilidan aytilgan mana bu so'zlar bugunning ham shiori emasmi: «Ilm bilan tajribani omuxtalab, qayerda bo'lmaylik, el-yurtimizni deb qo'lni qo'lga berib ishlaylik»?!

Ana shunday ezgu niyatli adib, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining a'zosi, respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Is'hoq Qalandar-Sodiqov 1977-yili 82 yoshida olamdan o'tdi. Farg'ona shahriga dafn qilingan.

MUQIMIYNING IZDOSHI, G'AFUR G'ULOM SIRDOSHI (1900-1979)



Charxiy – Asqarali Hamroliyev 1900-yil may oyida Qo'qon shahridagi Sarbahodir mahallasida to'quvchi-kosib oilasida tug'ildi. Har bir insonning kelajakdag'i kamoli ko'p jihatdan oila nufuzi, kasb-kori va saviyasiga bog'liq ekanligi tarixdan ma'lum. Asqaralining otasi Hamroali To'xtaoxun o'g'li (1855-1933) qo'li gul hunarmand-to'quvchi va gulabardor (matoga gul soluvchi) edi. Shu bilan birga, o'ta savodli, mumtoz adabiyot ixlosmandi sifatida o'g'liga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Onasi Muslima bibi Ismoiljon qizi ham (1867-1935) o'qimishli ayol bo'lganligidan zamondoshlari uni Muslimbi otin deb qadrlashgan. Bu haqda Charxiyning o'zi «Tarjimai hol»ida shunday yozadi:

«Shoirlik qobiliyati bo'lgan onam Muslima buvini ko'pchilik Muslimbi otin deb atashar edi. Onam sakkiz yoshimdan she'r yodlash va yozishdan ta'lim bera boshladı. Otam esa bo'sh vaqtlarida husnixatni ham o'rgata boshladı. Onamdan shoirlikni, otamdan husnixatni o'rgandim». Shunday qilib, ota-onasi yordami bilan xiyla savodli bo'lib qolgan yosh Asqarali dastlab G'alchasoy mahallasidagi Muhammadjon Xoliqiy domla ochgan yangi usuldag'i mактабда o'qidi. Uni 16 yoshida tamomlab, Sulton Murodbek madrasasiga o'qishga kirdi.

Asqarali madrasani tamomlagandan keyin ota kasbini davom ettirdi. Shaharda yangi hukumat tomonidan ochilgan «Quvvat» to'qimachilik artelida gulabardorlik qila boshladı. Bu artelda qariyb 15 yil ishladi. Nihoyat, shoir sifatida ancha tanilib qolgan Charxiyni dastlab viloyat yozuvchilar uyushmasining mas'ul kotibi, ayni chog'da Qo'qon shahar teatriga adabiy emakdoshlik lavozimiga ishga oldilar va bu lavozimda 1958-yilgacha ishladi. Shu yildan to umrining oxirigacha Qo'qon shahridagi adabiyot muzeyida ilmiy xodim bo'lib ishladi. U asosan ustozи Muqimiyning uy-muzeyini boshqarib, shoir merosini tiklash, qo'lyozma manbalarni o'rganish bilan shug'ullandi. Charxiy 1979-yilning 14-dekabrida olamdan o'tdi.

Charxiy ijodi juda erta boshlangan. Ammo u o'z she'rlarini matbuotda e'lon qilishga shoshilmadi. Buning sababini uning o'zi

shunday izohlaydi: «Men shoir degan nomni juda ulug' sanar edim. Shuning uchun ham matbuotga uzoq vaqtgacha she'rlarimni bergen emasman». Nihoyat, 1938-yildan boshlab shaharda chiqib turgan «Yangi Farg'ona», viloyatning «Kommuna» gazetalari hamda respublika «Mushtum» jurnallari sahifalarida Charxiyning lirik va hajviy g'azallari tez-tez chop etila boshlandi. 1950-yilda Charxiyning «Shirin va achchiq» deb nomlangan birinchi she'rlar to'plami bosilib chiqdi. Uning nomlanishiyoq shoirning ustozи Muqimiy singari ikki yo'nalishdan – lirik va satirik yo'ldan ketayotganligini isbotlaydi. 1956-yilda Charxiy O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi (227-guvohnoma).

Charxiy ijodi asosan ikki buyuk chashmadan oziqlandi. Ildizi baquvvat mumtoz adabiyotimiz an'analari shoirning go'zal va ta'sirchan, poetik obrazlarga boy hamda vazni yengil ehtirosli lirik g'azallar, muxammaslar, ruboiy, tuyuqlar yaratishiga madad bergen bo'lsa, o'lmas xalq og'zaki ijodining yengil ruhi, qochirimlari, achchiq haqiqatni hazil libosiga o'rabi bera olish mahorati hajviy asarlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi. Natijada, Charxiy she'rlarida mumtoz adabiyot an'analariiga xos o'ychanlik, falsafiy mushohada, tasavvufiy talqin folkloarning donishmandligi, o'ynoqiligi, qochirimlari, kutilmagan so'z o'yinlariga boyligi bilan uyg'unlashib ketdi.

Charxiy o'zbek adabiyotini «She'rlar» (1966), «Alixo'ja-Xo'jaali» (1970), «Devon» (1971), «O'pkangni bos!» (1973), «Beshigingda yotmayman» (1975) singari lirik hamda hajviy to'plamlari bilan boyitdi. Charxiyning kamtarona ijodi xuddi Habibiy, Sobir Abdulla merosi kabi o'zbek adabiyotining ikki buyuk daryosi – mumtoz va yangi o'zbek adabiyotini birlashtiruvchi oltin ko'priq vazifasini ado etdi. «Klassik adabiyotimizga hurmat ko'zi bilan qaraganimdan aruz vaznining o'ynoqi, kishi qalbiga tez yetib boruvchi turlaridan ijodiy foydalandim va uni yanada rivojlantirishga intildim», deb yozadi shoir. Darhaqiqat, bu ijod sahifalarini varaqlab, aruz vaznining turli bahrlarini uchratish mumkin. Shu bilan birga, Charxiy aruz vaznining turlarini rivojlantiribgina qolmay, mumtoz adabiyot janrlari taraqqiyotiga, takomillashuviga ham munosib hissa qo'shdi. Shoir qalami bilan zamonaviy libos kiydirilgan muxammaslar, musaddaslar, masnaviy, ruboiy, mustahzod, tuyuq kabi janrlar alohida bo'yoq va ohang bilan jilvalandi. Bu rang-baranglikning yana bir sababi Charxiyning zamonaviy she'riyat usullaridan unumli foydalanganlidir. Ayniqsa, shoirning aruzda yaratilgan hajviy asarlari xuddi barmoq vaznida yozilgandek yengil qabil qilinadi.

Binobarin, hajv Charxiy merosida yetakchi o'rinni egallaydi. Uning «Mushtum» kutubxonasi rukni ostida birin-ketin bosilib chiqqan «Shirin va achchiq». «O'pkangni bos!», «Alixo'ja-Xo'jaali» kitoblari hajv ustaxonasining mahsulotlari sanaladi. Ularning aksariyatida shoir sirdan qaraganda g'oyat mayda ko'rindigan, biroq xalq badaniga kanaday yopishib kun sayin tomir otayotgan illatlar – e'tiqodsizlik, dangasalik, muttahamlik, ig'vogarlik, ichkililikbozlik, «Men sendan kammi?» qabilida to'y qilib beli singan isrofgarlarni keskin fosh etadi.

Charxiy xattotlik san'atining tengsiz ustasi ham edi. Uning bu hunaridan qo'lyozmalar institutlari, muzeylar samarali foydalangan. Masalan, atoqli olim Hamid Sulaymon uni yangi ochilgan Alisher Navoiy nomidagi respublika qo'lyozmalar institutiga doimiy ishga taklif qilgan. Keksaligi tufayli Toshkentda ishlash imkoniyati cheklanganligidan institut Charxiy bilan doimiy hamkorlik o'matgan edi. Charxiyning bu fazilati G'afur G'ulom, Sobir Abdulla maktublarida ham alohida tilga olinadi. Shu bilan birga, Charxiy tarjimon sifatida ham o'zidan o'lmas meros qoldirdi. U Qo'qon adabiyot muzeyida ishlab yurgan chog'larida arab, fors, urdu olimlari va shoirlarining ko'plab asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib bergan. Akademik shoir G'afur G'ulom esa o'z she'rlarini urdu tiliga o'girishni «aziz do'sti Mulla Asqarali Charxiy»dan maktub orqali iltimos qilgan. Ulug' shoir o'z she'rlarini «arab qudrati birlan xatti nastag'liqda zeb-ziynat birlan tahrir qilmaklikni» Charxiydan o'zgaga ravvo ko'rmagan. Chunki Charxiyning «xat qonunlari g'oyatda xushro'y ekanidan kulluhum do'stlar xabardor» ekanligini G'.G'ulom alohida ta'kidlaydi.

Charxiy merosi shoirning o'z xalqiga bo'lgan buyuk muhabbatini izhori sifatida mangu yashaydi. Zero, shoirning o'zi aytganidek:

*Elim muhabbati junbush urar yuraklarda,
Tilakda ezgu niyatlar, shukuhi sha'n qoladi.
G'aliz tarona, suyuq so'z, bari varaqdan o'chib.
Yurakda o'li kalom, tilda sho'x o'lan qoladi.*

2010-yilda Charxiyning 110 yillik yubileyi viloyatimizda tantanali ravishda nishonlandi. Shu munosabat bilan Farg'onai viloyati hokimligi Ma'naviyat-ma'rifat Kengashi homiyligida shoirning «Qiyolab o'tdi» nomli devoni nashr etildi. Undan shoirning o'z qo'li bilan yozilgan «Debocha»si va mumtoz adabiyotimizning yetti janriga oid asarlari o'rinn olgan. Yubiley munosabati bilan Charxiyning uy-muzeyi ta'mirlandi va qayta tiklandi. Hozir bu xonadon adabiyot muxlislarining ziyyaratgohiga aylangan.

HAQIQAT TIMSOLI

(1914-1971)

Sherali Toshmatov... Bu tabarruk nomni eslaganimda ko'z oldimda egilsa-da, bukilsa-da, sinmagan haqiqat timsoli gavdalanadi. Haqiqatgo'ylik har doim ham qadrlanavermagan. Ayniqsa, haqiqatni bosh shioriga aylantirib olgan sovet tuzumi davrida o'z haqqini himoya qilgan, rost gapni aytgan har qanday fuqaro qamalavergan, jazoga tortilavergan. Shaxsan Serali aka o'z haqgo'yligining azoblarini ko'p marta tortgan odam. Lekin hech qachon ruhiy tushkunlikka tushmagan, tanlagan yo'lidan, aytgan so'zidan qaytmagan inson edi.



Sherali Toshmatov aslida 1914-yil 12-yanvarda O'zbekiston tumanining Yaypan qishlog'ida tug'ilgan. Yangi o'rnatilgan sovet hukumati suyagi qotmagan yoshlarni aldab, o'zining sodiq xizmatkoriga aylantirish uchun pioner, komsomol degan tashkilotlarning eshigini lang ochib qo'ygan, unga a'zo bo'lganlarga katta obro' va shon-shuhurat va'da qilardi. Serali ham komsomol safiga kirish maqsadida yoshiga ikki yil qo'shib olgan ekan. Shu bois hujjatlar bo'yicha Sh.Toshmatov 1912-yilda «dunyoga kelgan».

1927-1928-yillarda Serali tuman komsomol qo'mitasida ishlaydi. Keyin 1928-1930-yillarda Qo'qondagi erlar pedagogika bilim yurtida ta'lif oldi. Uni tamomlab, 1930-1933-yillari «Yangi Farg'on'a» gazetasida adabiy xodim, mas'ul kotib lavozimlarida ishladi. U qalami o'tkir, tezkor jurnalist sifatida tanildi. Shuning uchun uni 1933-yili Toshkentga chaqirib oldilar. Ikki yil respublika yoshlar gazetasi «Yosh leninchi»da, 1935-1937-yillarda esa «Qashqadaryo haqiqati» gazetasida xizmat qildi. Shu yili uni yana Toshkentga ishga chaqirdilar. Biroq u yerda ko'p ishlay olmadi. 1937-yili arzimagan bir chaquv bahonasida qamalib, o'n ikki yil qamoqxona azobini tortib chiqdi. 1949-yilda qamoqxonadan qaytib, Pop tumanining eng chekka qishlog'idagi maktablardan birida o'qituvchilik qila boshlaydi. Serali aka hech kimga qo'shilmas, indamas, jimgina yashar va ishlar edi. Ammo uning

qalbidagi ijodga bo'lgan ishq o'ti goh-goh alanga olib qolar, shunda bir joyda o'tirolmas, qo'liga qalam olardi. 50-yillarning o'rtalaridan boshlab, tuman va viloyat gazetasi sahifalarida «Sh.Toshmatov», «T.Sheraliev» kabi familiyalar bilan kichik, ammo shirali maqolalar, lavhalar bosila boshlandi.

1958-yilda Sh.Toshmatov «Namangan haqiqati», 1960-yildan Farg'ona viloyati «Kommuna» gazetasida ishlab, qishloq xo'jaligi bo'limiga boshchilik qildi. Sherali aka nihoyatda tez va samarali ishlardi. Qishloq muxbirlariga g'oyat mehribon ham shafqatli edi. Ammo qamoqxonadagi uzlusiz qyinoqlar uning sog'ligiga putur yetkazgan, asabini yemirib bo'lgandi. Tinmay papiros chekar, sal narsaga jahli chiqardi. Tez orada qattiq og'rib yotib qoldi. Natijada 60 yoshga ham kirmay, 1971-yil 21-iyunda vafot etdi. Marhum yozuvchining vasiyatiga ko'ra, uning jasadi o'zi tug'ilib o'sgan Yaypan qishlog'iqa dafn qilindi.

Sherali Toshmatov ijodi pedbilim yurtida o'qib yurgan paytlarida boshlangan. U adabiyotga tengdoshlari kabi dastlab shoir sifatida kirib keldi. Sh.Toshmatov ham barcha zamondosh qalamkashlar singari sotsialistik tuzumning «zafarli yurishlari», «gigant qurilishlari»ni zavq bilan tarannum etdi. 1931, 1932-yillarda birin-ketin «Yengish barrikadasida», «Paxta she'rlari» nomli to'plamlari bosilib chiqdi. Kitobchalarning nomlanishi ham yosh shoirming ijodiy estetik e'tiqodi qaysi zamonda shakllanganligini anglatib turibdi.

60-yillardan boshlab Sherli Toshmatov yirik prozada samarali ijod qila boshladi. Ketma-ket yozuvchining «Erk qushi», «Tongdag'i ko'lanka», «O'ksima, Mayna!», «Ishq yangilandi» kabi yirik nasriy asarlari, o'nlab ocherklari va Mayna Hasanovaga bag'ishlangan kinossenariysi dunyoga keldi. Bu asarlar o'zining pishiqligi va yuksak badiiyligi bilan Sherli Toshmatov nomini o'zbek adabiyoti xazinasiga mangulikka olib kirdi. Chunki Sherli Toshmatov yaratgan asarlar avvalo, mavzusining yangiligi va ohori to'kilmaganligi bilan muhimdir. Uning ijobiy qahramonlari o'z oldiga aniq va ulkan maqsad qo'ygan, ana shu maqsadini amalga oshirishga qat'iy e'tiqod bilan astoydil yeng shimarib kirishgan kishilar sifatida esda qoladi. Tarixiy-inqilobiy mavzuda yozilgan «Erk qushi» romanidagi Mayna, «Tongdag'i ko'lanka» qissasi qahramoni Saidxon, «Ishq yangilandi» asaridagi Qodir bobo, Amir obrazlari shu jihatdan ibratlidir.

«Erk qushi» romani qahramoni Mayna Hasanovaning buyuk e'tiqodi haqida o'ylar ekanman, ko'z oldimda Sherli Toshmatovning o'lmas siymosi savlat to'kib turgandek bo'laveradi. Zero, bu kamtarin adib ham haqiqat uchun hayotini tikkan, yolg'onni yozib shoh bo'lib yashagandan ko'ra, haqiqatning quli bo'lib jimgina yashab o'tishni afzal ko'rgan ijodkor edi. Uning bu ibratli fazilati keyingi ikki asarida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Adibning «Tongdagi ko'lanka» asari e'lon qilinishi bilanoq ateistlarga jon kirdi. Boisi – qissa qahramoni Saidxon o'zi e'tiqod qo'ygan xudo yo'lidan qaytadi. Albatta, bu osonlikcha ro'y bermaydi. Ateistlar esa bundan boshqacha xulosa chiqardilar, ya'ni «demak, din yo'lining boshi berk, u faqat fojiaga olib boradi» deya ayyuhannos soldilar. Rahmatli Sherli aka bu «maqtovlar»ni eshitib, o'qib kulibgina qo'ya qolardi. O'sha paytda biz ham yosh ateistlar safida bo'lganimizdan muallifning bu kulgisi ma'nosiga unchalik tushunmagan ekanmiz. Yillar o'tib, adabiyotshunoslikning sir-asrorini o'rganib, mutaxassis sifatida qayta mutolaa qilish jarayonida Saidxon obrazining qalbiga yashiringan ko'p haqiqatlarni anglab yetdim. Sherli aka bu qahramonini dindor bo'lgani uchun yer bilan yakson qilish maqsadida emas, balki oramizda shunday iymonli odamlar borligidan faxrlanib, uning nihoyatda pokdomon, kamsuqum, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni qadrlaydigan komil inson ekanligini ibrat qilib ko'rsatishni niyat qilgan ekan. Aslida, tongdagi ko'lanka Saidxon emas, balki unga qarshi kurashayotgan shaxslar ekanligini matn osti ma'nodan anglab yetish qiyin emas.

«Ishq yangilandı» asari (1972) yozuvchi Sherli Toshmatov ijodida ham, 70-yillar o'zbek adabiyotida ham muhim sahifa ochdi desam, mubolag'a bo'lmas. Bu asari bilan adib adabiyotimizga yangi mavzu va qahramon olib kirdi. Afsuski, Sherli akaning o'zi mazkur asari keltirgan shuhrat va obro'ni ko'rolmay ketdi. Garchi muallif asar janrini kamtarinlik bilan «qissa» deb belgilagan bo'lsa-da, adabiy jamoatchilik tomonidan roman sifatida tan olingen va baholangan. Masalan, yirik adabiyotshunos S.Mirvaliyev o'zining «Prozamiz jamoli va kamoli» nomli maqolasida «Ishq yangilandı» asari uchun olingen «voqe-a-mazmun hajmining keng va chuqurligi, hayotiy-ijtimoiy problematikaning epikligi ROMAN deyishga asos» berishini alohida ta'kidlagan edi. Bu to'g'ri. Binobarin, V.G.Belinskiy qayd qilganidek, romanga ma'lum bir

xalqning turmushida ro'y bergan inqilobiy voqelik, ijtimoiy yangilanish asos qilib olinadi. Endi e'tibor bering: «Ishq yangilandi» asariga tarixan bevatan bo'lgan, dalama-dala, dashtma-dasht, qishloqma-qishloq daydib yurgan mazzanglarning xalq sifatida shakllanishi, birlashuvi, Markaziy Farg'ona yerlarida qo'nim topishi, yangi madaniy hayot kechirishga o'tishlari asosiy muammo qilib olingan. Albatta, bu jarayon o'sha xalq tarixida inqilobiy hodisa bo'lib, romanga arzigelikdir.

Umuman, Sherali Toshmatov qishloq hayotida ro'y berayotgan yangiliklarni tez ilg'ab olguvchi hushyor ijodkor edi. 60-70-yillarda jamoa xo'jaliklariga yuqori tashkilotlardan maxsus vakillar yuborilar, ular rahbarlar ustidan xo'jayinlik qilib, ishni biladimi, yo'qmi, baribir, buyruqbozlik yo'li bilan amalga oshirardilar. Bu juda ko'p noroziliklar keltirib chiqarar, xo'jaliklar rivojiga zarar keltirardi. Ammo lom-mim deb bo'lmasdi. Sherali aka jig'ibiyron bo'lib, bizga «nima keragi bor shuni?» deb zorlanardi. Oxiri «Tongdag'i ko'lanka», «Ishq yangilandi» asarlarida bu yaramas illatlarga qarshi isyon ko'tardi. Masalan, Qodir Azizov («Tongdag'i ko'lanka») rayondan yuborilgan vakillarga dardisar deb qaraydi, prokuror Rabiyevga ko'pam ro'yxushlik ko'rsatmaydi. Yoki Qodirbobo («Ishq yangilandi») tilidan rayijrokom vakili Nabijonovning yuziga to'g'ridan-to'g'ri «juda dardi xarina ekansiz-ku!» deyishga jur'at qiladi. Ha, hayotning o'zi keyinroq bu rasmiyatichilikka barham berdi, adib haq bo'lib chiqdi.

Sherali Toshmatov o'zi qalamga olayotgan mavzu va muammoni nihoyatda sinchiklab o'rganar, tasvirlanayotgan davr va xalq hayoti, urf-odatlari, ruhiyati, so'zlash tarzini hisobga olardi. Tarixiy manbalarni ko'p mutolaa qilardi. «Erk qushi» romanini o'qigan kitobxon ko'hna Buxoroning 1915-1925 yillardagi ziddiyatli turmushiga oid tarixiy omillardan, voqealardan ogoh bo'ladi. Personajlarning buxorocha lajhada so'zlagan shirin lutflaridan zavqlanadi. Ayni chog'da inqilobiy hodisalardan ruhlangan qizil gvardiyachi jangchilar hamda oddiy qishloqi odamlarning shoirnamo iboralaridan hayratlanadi. Ayniqsa, «Ishq yangilandi» romanidagi mazzanglarning hayot tarzi, so'zlashuv nutqi nihoyatda o'ziga xos. Bular Sherali Toshmatovning g'oyat bilimdonligidan, ijodiy ishga o'ta mas'uliyat bilan yondashganligidan dalolat beradi.

FARG'ONA AFANDISI

(1915-1988)

Bu kishini O'zbekistonda tanimagan, u to'qigan latifalarini eshitib, huzur qilib kulmagan odam yo'q edi. Adham Hamdam deganda labda kulgu, yuzda tabassum paydo bo'lardi. Oddiy odamlar u kishini «o'zimizning Nasriddin afandi» deya yaqin olishar, san'at va ijod ahli esa hikoyalarni og'zaki ijod qilishda, uni o'rniga qo'yib ijro etishdagi mahorati bobida mashhur so'z ustasi Arkadiy Raykindan kam ko'rishmasdi. Adham Hamdamni G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Said Ahmad singari ulkan so'z ustalari o'zlariga juda yaqin olishgan. Ularning Farg'ona safari Adham Hamdamsiz o'tmagan. Hatto uning yo'l-yo'lakay aytgan og'zaki latifalaridan o'z asarlarida ustalik bilan foydalanishgan. Shunga daxldor bir voqeа hech esimdan chiqmaydi.

1967-yil. Men o'sha paytda «Kommuna» deb atalgan viloyat gazetasi (hozirgi «Farg'ona haqiqati»)ning qishloq xo'jaligi bo'limi mudiri, iste'dodli yozuvchi Sherali Toshmatov qo'lida adabiy xodim bo'lib ishlardim. Soat 16 lar chamasi. Toshkent radiosining adabiy eshittirishlar muharriyati G'afur G'ulomning «Mulla Nasriddin afandi va Shayton alayh-la'na» hikoyasini muallifning o'z ovozida eshittira boshladи. Hikoyani o'qiganlar eslashar, Shayton gapga chechan Afandini ham mot qilish niyatida «Sen ham shartningni aytib qol», deydi. Shunda Nasriddin afandi Shaytonning rapidaday quloqlariga ikki marta hushtak chalib, har biriga sakkiz donadan tugma qadab berishni so'raydi. Shubhasiz, Shayton bu shartni bajara olmay mot bo'lib, yer ostiga kirib ketadi. Men yozuvchining topqirligiga qoyil qolib, «shu joyini juda topgan-da G'afur aka!» dedim. Sherali aka o'ziga xos tarzda o'ng qo'lini quloqlari oldida yelpib, kulib turib:

– Bu G'afur akaniki emas, Adham akangizning latifasi, – dedi.

Hali hayratimni ifodalashga ulgurmey turib, xonaga tasodifan Adham Hamdamning o'zi kirib keldi. Xuddi buyurtma qilinganday... Men hozirgi suhbatdan olgan hayajonimni u kishiga aytib, masalaga aniqlik kiritib berishini so'radim. O'zaro suhbatdan ayon bo'ldiki, G'afur G'ulom 60-yillarda Farg'onaga kelganda hamiroh bo'lib yurgan Adham aka juda ko'p latifalar aytib, mehmonlarni kuldirib yurgan. Uning biri-

biridan qiziq latifalari orasida mana shunisi G'afur akaga ma'qul bo'lib qoladi-da, o'ziga «sotishi»ni iltimos qiladi. Adham aka bajonidil uni yozuvchiga tuhfa qiladi. Ustoz san'atkor G'afur G'ulom bu latifadan o'z hikoyasida ustalik bilan foydalangan. Shunda men Adham akaning topqirligiga qoyil qolib: «Shunday zo'r narsalarni o'zingiz yozsangiz bo'lmaydimi?» – deb so'radim.

Adham aka esa allaqanday bir xo'rsinish bilan orqasiga bir shapatilab qo'ydi-da:

– E, uka, bizda qunt yo'q-da! – dedi.

Ilm bilan shugullanib, yozuvchilarning ijodiy laboratoriysi sirlarini chuqurroq o'rgana boshlaganimdan keyin angladimki, ijodkorda Olloh tomonidan berilgan iste'doddan tashqari qunt va chidam ham bo'lishi kerak ekan. Mabodo, Adham Hamdamning ana shu topqirligi, badihago'yligi, so'zamolligi yoniga chidam bilan o'tirib yoza olish qobiliyati ham qo'shilganida o'zbek adabiyoti tengsiz bir hajviy san'atkorga ega bo'lardi.

Adham Muslimovich Hamdamov 1915-yili Toshkent shahrida tug'ildi. O'rta maktabni tamomlab, 1933-1938-yillarda Samarqanddagi O'zbekiston davlat universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetida o'qidi. 1938-yildan boshlab «O'zdavnashr»da muharrir, so'ng O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Samarqand bo'limining mas'ul kotibi lavozimida ishladi. Ayni shu yillarda bo'lajak adib o'zbek va tojik adabiyotlarining ulkan vakili Sadriddin Ayniy bilan yanada yaqinlashdi va undan ko'p ijodiy saboqlar oldi.

Ikkinci jahon urushi yillarda Adham Hamdam Sharof Rashidov, Nazir Safarov, Shuhrat, Nazarmat, Sulton Akbariy, Sulton Jo'ra, Yong'in Mirzo, Ibrohim Rahim kabi ijodkorlar qatorida qurol va qalam bilan jang qildi. U «Vatan uchun» deb nomlangan front gazetasining muharriri sifatida ko'plab ocherklar, maqolalar, lavhalar, she'rlar chop ettirdi. Gazetada janggoh xabarlarini, o'zbek jangchilarining alohida jasoratiga bag'ishlangan maqolalar hamda ularning ijodi namunalarini muttasil yoritib bordi.

Adham Hamdamning urushdan keyingi hayoti Farg'ona bilan bog'landi. U bir necha yil viloyat «Kommuna» gazetasining muharriri, muharrir o'rribosari. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limining mas'ul kotibi, adabiyotni targ'ib qilish byurosining

boshlig'i bo'lib ishladi. Adham Hamdam ishlagan paytda viloyatda yozuvchilar uyushmasining a'zolari safi farg'onalik yoshlari hisobiga xiyla ko'paygan edi.

Adham Hamdam ijodi talabalik yillarida boshlangan edi. Shoirning ilk she'riy to'plami 1937-yilda «O'g'il maktublari» nomi bilan chop etilgan. 1939-yili «She'rlar» to'plami nashr qilindi. Urush yillarida jangchi shoir Adham Hamdamning g'alabaga undovchi talay she'rlari, maqola hamda ocherklari o'zi muharrirlik qilgan «Vatan uchun», shuningdek, «Bong», «Front haqiqati» kabi gazetalar sahifalarida, «Ont», «Vatan jonbozlariga», «Armug'on», «Zafar» singari to'plam hamda bayozlarda muntazam bosilib turdi.

Urushdan keyingi yillarda Adham Hamdam ko'proq davralarda, uchrashuvlarda og'zaki hikoyalari, latifalari bilan kuldirishga berilib, 30 yillar mobaynida kitob chiqarmadi. Faqat 1970-yildagina muxlislari va jonkuyar do'stlarining qat'iy talablari bilan bulbulning ko'zidek «Salomatliklari kerak» deb atalgan hajviy hikoyalari nashr qilindi. Kitobcha muxlislar o'rtaida juda tez shuhrat qozondi. Chunki unda yangilikka to'sqinlik qilayotgan har qanday eski, qoloq hodisalar keskin qoralangan, satiraning o'tkir tig'i nihoyatda kuchli edi. Vaholanki, o'sha paytda sovet mafkurasi rivojlangan sotsialistik jamiyatda kamchiliklar bo'lishi mumkin emas degan fikri ilgari surib, hajviyaning rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qilar edi. Shunday sharoitda yo'lini topib kuchli satirik obrazlar yaratgan Adham Hamdam tanqidni sog'ingan kitobxonlar orasida mashhur bo'lib ketdi. Adib hikoyalariada tanqidiy ruh orqali hayot haqiqatini isbotlab, soxtalik va o'zibo'larchilikni qat'ian rad etadi. To'plamdan o'r'in olgan ichakuzdi hikoyalari hayotda uchrab turadigan nopoliklik va kamchiliklarni fosh etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan so'ng Adham Hamdam umrining oxirigacha boshqa kitob chiqarmadi. Aslida, uning hajviy merosi g'oyat behisob edi. Buning ustiga og'ir xastalik uni odamlar orasiga chiqishga ham yo'l qo'ymadidi. Farg'ona afandisining og'zaki hikoyalari va ichakuzdi latifalarini sog'ingan muxlislari, do'stlari, shogirdlari uyiga borib, ziyorat qilib eshitib kelishardi. Yozuvchi Adham Hamdam odamlar labiga kulguni muhrlab, 1988-yilning oktabr oyida vafot etdi. Jo'ydam qishlog'i qabristoniga dasn qilindi.

O'limidan so'ng Adham Hamdamning hayoti latifaga ko'chdi. Kichik bo'lsa-da, uning 80 yillik yubileyi nishonlandi. Yozuvchi Omon Muxtor va Rustam Qosimovlar «Adham Hamdam hayotidan latifalar»ni to'plab, «Sharq yulduzi» jurnali kutubxonasining mo'jazgina bukletini nashr ettirdilar. Ammo «yurgan yo'lida latifalar to'qiydigan og'zaki yozuvchi» (O.Muxtor) va qoyilmaqom qilib o'qiydigan san'atkor Adham Hamdamning hayoti ham, merosi ham na to'la o'rganilgan, na to'plab nashr qilingan. Bu adabiyot muhibi bo'lib o'sayotgan kelajak avlodning vazifasi bo'lib turibdi.

Har holda, vafotidan so'ng ham odamlar eslasa, demak, kishi bu foniylar dunyoda bekorga yashamabdi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1977), Respublika yozuvchilar uyushmasining haqiqiy a'zosi Adham Hamdam o'zini tanigan, bilgan, ko'rмаган-у о'қиган yoki eshitgan ixlosmandlari qalbida bir qatra nur bo'lib yashab kelmoqda. Shuning o'zi ijodkor uchun katta baxt emasmi?!



JANGCHI QALAMKASH

(1921-1993)

Taniqli jurnalist, II jahon urushi qatnashchisi Ismoiljon To'xtasinov 1921-yilda Marg'ilon shahrida tug'ilgan. Bu paytda fuqarolar urushi avjiga chiqqandi. Ko'hna Marg'ilon shahri qizil askarlar bilan milliy ozodlik uchun kurashuvchi mahalliy aholi vakillari o'rtasida talash edi. Hamma o'zini ehtiyyot qilar, ko'chaga chiqish yo'q edi. Ismoiljonning yoshligi ana shu tahlikali yillarga to'g'ri keldi, ocharchilik davrini boshidan kechirdi. Biroq ota-onas farzandining kelajagini o'yłamasda, ertasi uchun kurashmasa bo'lmasdi.

Ismoiljon mahallasida tashkil etilgan sovet maktabida o'qidi. Ammo tirikchilik tobora qiyinlashib borganligidan o'qishdan ko'ra oilaning yashash sharoitini yaxshilash istagi zo'rroq chiqdi. Marg'ilon hunarmandlar shahri emasmi, oilada tug'ilgan go'dak – qizdir-o'g'ildir ko'zini ochib oq atlas, beqasam singari bejirim matolarni, ularni to'qiydigan dastgohlarni ko'rardi. Lekin 30-yillarning oxiriga kelib, sovet hukumati xususiy to'quvchilikni tugatgan, barchani yagona korxonaga jalb etgandi. Ismoiljon ham 7-sinfni tamomlagach, ota-onasining roziliги bilan Marg'ilon ipak-to'quv fabrikasiga ishga kirdi va uch yil shu yerda mehnat qildi.

Yosh Ismoiljonning qalbida atrofida ishlayotgan yigit-qizlar, opalar va amakilar mehnatini tarannum etish istagi paydo bo'lar, bu o'yunga tinchlik bermasdi. Bir kuni fabrikada erishilayotgan muvaffaqiyatlar haqida kichkina xabar yozib, shahar gazetasiga olib bordi. Shu-shu Ismoiljon «Marg'ilon haqiqati» gezetasi bilan oshno tutinib qoldi va 1939-yildan muharririyatda dastlab musahhih, keyin esa adabiy xodim bo'lib ishlay boshladi. Ammo tez orada II jahon urushi boshlanib qoldi. I.To'xtasinov 1941-yil dekabr oyida ko'ngillilar safida harbiy xizmatga jo'nadi.

Jangchi Ismoiljon To'xtasinov g'alaba arafasida yarador bo'lib yurtiga qaytdi. Sog'ligini tiklab olgach, yana ishga sho'ng'idi. Endi urush ko'rgan jangchini komsomol va partiya tashkilotlari o'z xizmatiga chorladi. Ismoiljon 1945-1946-yillarda Marg'ilon shahar yoshlar tashkilotida yo'riqchi, 1946-1948-yillarda Oxunboboyev tumani yoshlar qo'mitasining birinchi kotibi bo'lib ishladi. Ammo u hanuz ko'nglini gazetadan uzolmasdi. Qulay payt topib gazetaga ishga o'tishni orzu qilardi. Nihoyat, 1948-yilda uni viloyat «Kommuna» gazetasiga ishga taklif qilishdi.

Endi I.To'xtasinov zavq bilan, hafsalá bilan turli mavzularda maqola, lavha va ocherklar yoza boshladi. Ishtiyogi, izlanuvchanligi bilan ko'zga tez ko'rindi. Shuning uchun bu faol jurnalistni «Qizil O'zbekiston» (hozirgi «O'zbekiston ovozi») gazetasi muharriريati o'zining Farg'ona viloyati bo'yicha doimiy muxbir qilib ishga oldi. Ismoiljon aka o'z umrining eng ishchan va zavqli damlarini ana shu ijod dargohida o'tkazganligi bilan doim faxrlanib yurdi.

Ismoiljon To'xtasinov 1964-yildan boshlab qariyb 20 yil mobaynida viloyat matbuot boshqarmasining boshlig'i lavozimida ishladi. Bu davrda o'zining tashkilotchilik qobiliyati, tashabbuskorligi, ishchanligi bilan viloyatda nashriyot-matbaachilik ishining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Ko'p yillar matbuot sohasida ishlab qalami charxlanib qolgan hamda ko'plab ajoyib taqdirlari kishilar, qiziqarli hamda muhim voqealar guvohi bo'lgan tajribali jurnalist talay ocherklar, publitsistik maqolalar yozdi. 1966-yilda uning Marg'ilon hunarmandlari haqidagi «Zarshunoslar» nomli birinchi kitobi bosilib chiqdi. 1969-yilda birin ketin «Farg'ona», «Ko'ngillilar», 1976-yilda esa «Marg'ilon ipak shahri» deb atalgan ocherklari va albom kitoblari nashr qilindi.

II jahon urushi qatnashchisi sifatida yozuvchini ko'proq harbiy vatanparvarlik mavzusi qiziqtirardi. Mana shu ijodiy ehtiyojini qondirish niyatida u o'zining quroldosh do'stlari, sobiq jangchilar to'g'risida alohida asarlar yaratishga kirishdi. Bu ijodiy mehnatning samarası sifatida dunyoga kelgan «Vatanni deb...» nomli kitobida (1981) quvalik urush faxriysi, Bekat qishlog'idagi mashhur jamoa xo'jaligiga ko'p yillar raislik qilgan Qo'ldosh Ahmedov, 1984-yilda chop etilgan «Vodiy o'g'lonlari» kitobida esa farg'onalik bahodir jangchi, qo'rmas komandir Mamasoli Mamarasulovning faoliyati to'g'risida hikoya qilinadi. Bu mavzuda ko'proq yozishdan «niyatim yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hissa qo'shish»dir degan edi muallif.

1989-yilda I.To'xtasinov Katta Farg'ona kanali qurilib ishga tushirilganligining 50 yilligiga bag'ishlangan «Bunyodkorlar» nomli ocherklar kitobini nashr ettirdi. Unda O'zbekistonning eng og'ir yillarda buyuk suv inshooti qurilishiga rahbarlik qilgan, mehnatda fidoyilik ko'rsatgan kishilar to'g'risida g'urur bilan hikoya qildi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, respublika yozuvchilar uyushmasining a'zosi (1983) I.To'xtasinov 1993-yil 23-sentabrda vafot etdi. Farg'ona shahriga dafn qilingan.

MEHNATDA ULG'AYGAN IJOD

(1925-1997)

1925-yilning 8-iyunida Oxunboboyev (hozirgi Qo'shtepa) tumanidagi Qumtepa fuqarolar yig'iniga qarashli Qoraariq qishlog'ida oddiy dehqon oilasida tug'ilgan Tursunboy Mahmudovning 10-sinfni tamomlashi Ikkinchijahon urushi avj olgan yillarga to'g'ri keldi. Umaktabdan kelibоq dalaga otlanar, tengdoshlari qatorida keksalar va ayollarga madad berardi. O'ninchisinfni bitirishi bilan uni tabelchi qilib olishdi. Urush xavfi esa tobora kuchayib borar, qishloqda erkaklar safi borgan sari siyraklashardи. Navbat o'smirlarga keldi. Hali 18 yoshga to'lмаган Tursunboy minglab, o'n minglab o'zbek yigitlari qatorida urushga otlandi. Ular o'z Vatanini rus yerida turib himoya qildilar. Tursunboy Mahmudov dastlab Qozog'istonning Ko'kchatov shahrida harbiy tayyorgarlikdan o'tdi. Shundan so'ng 1943-yilning 15-aprelidan 1945-yilning 15-dekabrigacha frontda jang qildi.



Tursunboy frontdan qaytishi bilanoq o'zi o'qigan mактабга o'qituvchi bo'lib ishga kirdi. Oradan ko'p o'tmay, uni «Marg'ilon haqiqati» gazetasiga taklif qilishdi. Ana shu paytdan uning hayotida ijodiy mehnat bilan kechadigan sermazmun davr boshlandi.

Aslida badiiy ijodga ishtiyoq Tursunboy qalbida o'quvchilik yillardayoq tug'ilgan edi. O'shanda o'zi yoqtirib qolgan she'rlarni qayta-qayta o'qir, yod olar, davralarda zavq bilan aytib berardi. «Goh-goh so'zlarni qofiyalashtirib, daftaramga ba'zi qoralamalarni yozib ham qo'yardim» deb yozadi u tarjimai holida. Bolaligida uyg'ongan she'riyatga havas urush yillarda, ayniqsa, ona yurtidan uzoqdagi janggohlarda ko'ngil ehtiyojiga aylandi. T.Mahmudov ham qurol bilan, ham qalam bilan dushmanqa qarshi kurashishni fuqarolik burchi deb bildi.

«Urush vaqtida yozgan ba'zi she'rlarim ona yurtga qaytganimdan keyin «Marg'ilon haqiqati» gazetasida birin-ketin yoritildi. Bundan men yanada zavqlanib ketdim» («O'zim haqimda», qo'lyozma). Bu

zavqlanish unga yangi ijodiy kuch bag'ishladi. T.Mahmudov imzosi bilan yozilgan maqolalar, ocherklar, lavhalar, she'rlar, hajviy hikoyalar, miniatyuralar, tarjimalar faqat shahar gazetasidagina emas, balki viloyat va respublika gazetalari, «Mushtum» jurnali sahifalarida muntazam chop etila boshlandi.

1948-yilda sermahsul jurnalistni viloyat «Kommuna» (hozirgi «Farg'ona haqiqati») gazetasiga ishga chaqirishdi. Bu yerda ham o'zining tinimsiz izlanishlari, tashabbuskorligi, imkoniyatlardan unumli foydalana olish qobiliyati bilan ko'pchilikning e'tiborini tortgan T.Mahmudovni 1951-yilda respublika «Yosh leninchi» (hozirgi «Turkiston») gazetasiga ishga olishdi. Toshkent muhiti intiluvchan qalamkah uchun katta hayot maktabi, ijodiy dorilfunun rolini o'ynadi. Chunki bu yerda Tursunboy aka G'.G'ulom, A.Qahhor, Q.Muhammadiy, Q.Hikmat singari so'z ustalari bilan tanishdi, hamsuhbat bo'ldi, ulardan ijodiy saboq oldi. Bu davr uning ijodiy faoliyatida alohida iz qoldirdi. Tez orada Tursunboy Mahmudov «Tabassum» radiojurnalni, teleminiatyuralar teatri ko'rsatuvlarining doimiy muallifi sifatida tanildi.

1953-yilda T.Mahmudov respublika jurnalistlar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi. Shundan so'ng u yana vodiya qaytdi. Dastlab O'sh, keyin Andijon viloyati gazetalarida ishladi. Bu gazetalarda uning tashabbusi bilan «Qamchi», «Qalampir» deb atalgan tanqidiy sahifalar tashkil etildi. Unda jamiyatdagi mavjud illatlar – ko'zbo'yamachilik, byurokratizm, loqaydlik, poraxo'rlik keskin fosh qilinardi.

1958-yildan bosholab T.Mahmudov dastlab viloyat radiosida, keyin umrining oxirigacha o'zi uchun qadron maskan bo'lib qolgan «Kommuna» gazetasida adabiy xodim, bo'lim mudiri bo'lib ishladi. Ana shu yillardagi ijodi juda sermahsul bo'ldi. 1983-yilda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga a'zo qilib olinishi uning g'ayratini jo'shdirdi. Birin-ketin shoirning bolalarga atalgan «Go'zal qish», «Qaldirg'och» kabi she'riy to'plamlari nashr qilindi.

Ijodkor yosh avlodga lo'nda, sodda, tushunarli tilda murojaat qilib ularni odobli, hunarli bo'lishga undaydi. Uning uqdirishicha:

Hunar o'rgan yoshlikdan,

Foya yo'q beboshlikdan.

Chunki:

Hunarlilar oshar osh,

Hunarsizlar tishlar tosh.

Bu aynan bugunning talabi emasmi?! Sirdan sodda ko'ringan bu misralar zamiriga katta haqiqat yashiringan bo'lib, u bolalarning ko'zini ochadi. She'riyatning buyuk tarbiyaviy ahamiyati ham ana shundadir. Yoki yosh shogird tilidan aytilgan mana bu satrlar ustoz ko'ngliga nur, beliga quvvat bag'ishlashi aniq:

Odob-axloq koni – Siz,

Shogirdlarning joni – Siz.

Yurtim sharaf-shoni – Siz,

Rahmat Sizga, muallim!

T.Maxmudovning o'nlab hajviy she'rlari, hikoyalari, qatrалari ham o'quvchini yuksak odob-axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois uning ijodidan namunalar «Yoshlik bayozi» (1976), «Yoshlik» almanaxi (1976), «Taron» (1988) to'plamlarida e'lon qilingan. Bular Tursunboy Mahmudov degan farg'onalik shoirni respublika adabiy jamoatchiligi tan olganligini isbotlaydi. Jurnalist, hajvchi shoir va yozuvchi Tursunboy Mahmudov 1997-yil 19-aprelda olamdan o'tdi. Qumtepa qishlog'iga dafn qilingan.



TARJIMON ADIB

(1928-1985)



Ahmadjon Yoqubov 1928-yil 13-iyun kuni Farg'ona tumaniga qarashli Beshbola qishlog'ida tug'ildi. Otasi tajribali dehqon Yoqubjon Musayev jamoalashtirish mavsumining faol ishtirokchisi bo'lgan, bir necha yil o'zi tuzgan xo'jalikka raislik ham qilgan. Onasi Mastura opa uy-ro'zg'or ishlarini tebratish bilan birga har yili ipak qurti boqib, mo'l-ko'l pilla hosili yetishtirardi. Ahmadjon ana shunday mehnatkash oilada voyaga yetdi.

1944-yilda Beshbola qishlog'idagi to'liqsiz o'rta maktabni tamomlagan A.Yoqubov dastlab hunar o'rganish maqsadida atlas to'qish ustaxonasiga shogird tushdi va to'quvchi bo'lib ishlay boshladi. Ayni paytda kechki ishchi yoshlari maktabiga qatnab, 10-sinfni ham bitirib oldi. So'ngra oliy ma'lumot olish uchun 1946-yilda Farg'ona davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga hujjat topshirdi. Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatlari o'tgan Ahmadjon to'rt yil ana shu bilim dargohida ta'lim oldi va 1950-yilda Oxunboboyev tumaniga ishga yuborildi. Uni Boltako'l qishlog'idagi o'rta maktabga o'qituvchi qilib olishdi. Oradan bir yil o'tib harbiy xizmatga jo'nab ketdi. 1954-yilda armiyadan qaytib kelgan Ahmadjon Yoqubov o'zi tug'ilib o'sgan qishloqdagi 33-o'rta maktabga ishga qabul qilindi. Oradan ko'p o'tmay, o'quv ishlari bo'yicha direktori o'rinnbosarligiga tayinlandi. Keyin bir necha yil maktab direktori bo'lib ishladi.

60-yillarda Ahmadjon Yoqubov direktorlik qilgan Beshbola qishlog'idagi 33-maktab Farg'ona davlat pedagogika instituti uchun doimiy pedamaliyot o'tkaziladigan tayanch maktablardan biri bo'lib qolgandi. Chunki bu bilim dargohida K.Sarimsoqov, Gogoladze A.Qodirov singari ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan bilimdon va mohir o'qituvchilar ishlashardi. Ularning bilimi va tajribasidan faqat maktabda emas, balki oliy bilim yurtida ham bema'lol foydalanish mumkin edi. Shuning uchun Ahmadjon Yoqubov institutning pedagogika kafedrasiga

ishga taklif etildi. Shunday qilib, u 1960-1963-yillarda institutda pedagogika va ona tili fanlaridan talabalarga dars berdi.

Ammo qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, Ahmadjon akaning qalbida badiiy ijodga moyillik ustunlik qilardi. Yoshligi rus bolalari bilan o'tganligidanmi, yigit har holda bu tilni ancha yaxshi bilardi. To'rt yillik harbiy xizmatda ham u bu tilni yanada puxta o'rgandi. Ahmadjon ko'pincha badiiy asarlarni rus tilida o'qir, ulardagi qiziqarli epizodlar, ta'sirli manzaralar xayolida qayta jonlanar, shuning uchun ularni o'zbek tiliga tarjima qilib, hamyurtlarini jahon adabiyotining nodir durdonalaridan bahramand etishni istardi. Ana shu ichki ehtiyoj uni ilmiy ishdan ham ko'ra ko'proq qalbiga yaqin tarjimonlik sohasiga tortar edi. Istak g'olib chiqdi va Ahmadjon Yoqubov 1963-yildan boshlab to umrining oxirigacha viloyat «Kommuna» gazetasini (hozirgi «Farg'onha haqiqati») muharririyatida tarjimonlik qildi.

O'sha paytlarda sobiq Sovet ittifoqi telegraf agentligining xabarları Moskvadan ham, Toshkentdan ham to'g'ridan-to'g'ri rus tilida berilardi. Respublika va viloyat miqyosidagi rus tilida nashr qilinadigan gazetalarga maza, ularga qo'l ham urmay terishga berib yuborilaverar, ammo o'zbek tilida chiqadigan gazetalar uchun bu ish koni azob edi. Ko'pincha bitta-ikkita tarjimon kamlik qilib qolardi. Esimda, Ahmadjon aka ba'zi kunlari tuni bilan ishlashga majbur bo'lar, biz ertalab ishga borganimizdan keyin uyga dam olgani ketar edi. Lekin hech qachon ish ko'pligidan, charchoqdan shikoyat qilmasdi. Buning ustiga farzandlar ko'paygan, ularni yedirish, kiydirish, tarbiyalash, o'qitish uchun birgina gazetada topgan maosh yetmas, chunki rasmiy xabarlar tarjimasiga hukumat qalam haqi to'lamas edi. Shu boisdan A.Yoqubov bir necha yil shahardagi kechki ishchi yoshlar maktabida o'qituvchi bo'lib ham ishladi.

60-yillardan boshlab Ahmadjon Yoqubov jahon va rus adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishga kirishdi. Dastlab mashhur hind adibi Krishan Chandrning «Bir ma'shuqqa ming oshiq» asarini o'zbekchalishtirib, nashriyotga topshirdi. Asar O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining tarjimonlik bo'limida muhokama qilinib ma'qullandi va bosishga tavsiya etildi. Chunki A.Yoqubovning mutaxassisligi filolog bo'lganligidan o'zbek adabiy tili qonun-qoidalarini yaxshi bilar, lug'at boyligi yetarli edi. Shuning uchun tarjimalari adabiy

jamoatchilik va o'quvchilar tomonidan ham iliq kutib olindi.

Birinchi tarjimasi muvaffaqiyatli chiqqanidan ruhlangan A.Yoqubov yanada astoydilroq ishga kirishdi va qisqa muddatda Hindiston xalq ertaklarining bir nechasini tarjima qilib, «Sehrli uzuk» nomi bilan nashr ettirdi. Shundan so'ng rus adibi Yuriy Dmitriyevning sarguzasht qissa va to'rt hikoyasini o'z ichiga olgan «Oltin poyezd» nomli kitobi uning tarjimasida 1967-yili bosilib chiqdi. Keyin mashhur adib R.L.Stivensonning «Xazinalar oroli» deb atalgan asarini o'girishga kirishdi. 1973-yilda kitobxonlar qo'liga yetib borgan bu asar 60 ming nusxada chop etilgan edi. Ammo katta-yu kichikka birday qiziqarli bo'lgan bu sarguzasht-fantastik qissa o'zbek kitobxonlari o'rtaasida juda tez tarqalib ketdi.

Mana shunday muvaffaqiyatlari tarjimalari uchun Ahmadjon Yoqubov 1983-yilda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi. Bu e'tirof unga g'ayrat va ijodiy ilhom bag'ishladi. Tarjima qilishdan tashqari o'zining yangi qissasi ustida ham ish boshladi. Toshkentdag'i ikkita nashriyot buyurtmasiga ko'ra yangi asarlarni tarjima qilishga kirishdi. Ammo shafqatsiz o'lim bu rejalarining amalga oshishiga xalaqit berdi. Ijodi avji qizg'in pallaga kirgan bir paytda – 1985-yilning 11-martida 57 yoshida vafot etdi. Marhum Beshbola qishlog'i qabristoniga dafn qilingan.

Farg'ona davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetini muvaffaqiyatli tamomlab, ko'p yillar o'qituvchilik qilgan Muhabbat Yoqubova dadasining xotirasini abadiylashtirish, ijodiy merosini asrash va qayta nashr qildirish uchun astoydil harakat qilmoqda. U yaqinda otasiga bag'ishlab «Chirog'ingiz o'chmaydi, otajon» deb nomlangan kitobini nashr ettirdi. Ushbu esse farg'onalik mohir tarjimon Ahmadjon Yoqubov xotirasiga o'matilgan adabiy haykal bo'lib qoldi.

MEHNATNING SHIRIN MEVASI

(1928-1995)

Mamadali Umarov 1928-yilning 27-noyabrida Marg'ilon shahrida hunarmandlar oilasida tug'ildi. 7-sinfni tamomlab, 1942-1944-yillarida shahardagi pedbilim yurtida (u paytda texnikum deb atalardi) o'qidi. Tamomlagandan keyin bir yil mакtabda ishlagach, Marg'ilon o'qituvchilar institutiga kirib o'qiy boshladi. Bu bilim maskanini 1949-yilda tamomlab, o'qituvchilik faoliyatini davom ettirdi. 1950-yilda Mamadali harbiy xizmatga chaqirildi. Xizmatdan qaytgach, 1953-yildan boshlab yana shahardagi 17-maktabda o'qituvchilik qila boshladi. Ayni chog'da Farg'ona davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga sirtdan o'qishga kirdi. 1965-yildan to'umrining oxirigacha 7, 19-maktablarda yosh avlodga ta'lif berish bilan birga shaharning «Marg'ilon haqiqati» gazetasida adabiy xodim, bo'lim mudiri vazifalarini ham bajardi. O'zi dars berayotgan maktablardagi o'quvchilar orasidan o'nlab havasmandlarni gazeta sahifasiga olib chiqdi, ijodning mashaqqatli yo'liga yetakladi. M.Umarov 1995-yilning 3-dekabrida 67 yoshida vafot etdi.

Mamadali Umarovning ijodi pedbilim yurtida o'qib yurgan paytlarida boshlandi. Shoirning birinchi kitobi «Yo'lda» nomi bilan 1961-yili nashr qilindi. Mana shu yillarda adabiyotga kirib kelib, she'riyat havosini yangilagan E.Vohidov, A.Oripov, M.Jalil, R.Parfi, O.Matjon, O.Muxtor, J.Kamol kabilar qatorida farg'onalik Oxunjon Hakimov, Yo'ldosh Sulaymon, Malika Mirzayeva va Mamadali Umarovlarning borligi g'oyat quvonchlidir. M.Umarov ham ilk to'plami bilanoq ko'plab muxlislar orttirdi. 40 ta she'rdan iborat bu to'plamda yosh shoirning Vatan, yurt, ona, yorga bo'lgan qizg'in mehr-muhabbati ehtiros bilan ifodalangan edi. Bunday sevgiga ega insonda mehnatsevarlik fazilati kuchli bo'ladi. Zero, shoirning yozishicha, «mehnat kishiga kuch, rohat



bag'ishlab, keltirar iqbol». Bora-bora mehnat M.Umarov ijodining bosh mavzusiga, mehnatkash inson esa asosiy qahramoniga aylandi.

O'tgan asrning 20-30-yillari voqealaridan olib yozilgan «Bu olamning ertasi» («Katta hayot bo'sag'asida» nomli hammualliflikdagi kitobda, T., 1987) qissasida ham Mamadali Umarov jamiyat o'zgarishi, hayotdagi qiyinchiliklarga qaramay bir-biriga mehr-oqibatini yo'qotmagan, bir burda nonini qo'ni-qo'shnisidan ayamay, halol mehnati bilan ocharchilik tegirmonidan tirik chiqqan usta Mahmud, usta Umrzoq, Ona, o'qituvchi Nurmatov, Roziq ota singari obrazlarni yaratdi. Bu qissada marg'ilonlik atlas to'quvchi hunarmandlarning jamoa asosida birlashib ishlashi, bir-birlarini qo'llab-quvvatlashining afzalliklari ifodalangan. Bir so'z bilan aytganda, hikoyachi-qahramon Bolajon (Yaxshiboy)ning hunarga ko'ngil qo'yishi asarga shoirning quyidagi to'rtligi asos qilib olinganligidan dalolat beradi:

*Yo'qdan aslo dunyoda biror narsa bor bo'lmas,
Qo'rqaqlarga na mehnat, na saodat yor bo'lmas.
Ixlos bilan har ishga dadil uzat go'lingni,
Deydilarki, jahonda hunarli el xor bo'lmas.*

1971-yil oktabr oyida Mamadali Umarov O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga a'zo qilib olindi (guvohnoma raqami – 34715). Bu e'tirof unga yanada ilhom bag'ishladi va 1973-yilda «Alangali yillar» nomli she'rlar to'plamini nashr ettirdi. 1985-yilda bir guruh ijodkorlarning she'r va hikoyalaridan tashkil topgan «Billur jilg'alar» bayozida M.Umarovning 12 ta she'ri e'lon qilindi. Shoir ana shu she'rlarida o'zining doimiy va sevimli mavzusini tarannum etishga intiladi. Ya'ni, ularda shoir «To'quv dastgohida, to'quv mashqida, hunar egallahda tirishqoq» bo'lgan odamlarni ulug'laydi. Hatto M.Umarov o'ziga taxallus uchun tanlagan «Jazmiy» so'zida ham ana shu mehnatsevarlik, tirishqoqlik (jazm qilish, intilish) ma'nosi mujassamdir. Shoirning e'tiqodicha:

*Mehnat qilgan aziz, ardogli elda,
Ishda tug'iladi yangi qahramon.
Olqishdan nur o'ynab, balqib ko'ngilda,
Qudratga to'ladi mehnatkash inson.*

M.Umarovning 1967-yilda yaratgan «Uzilgan zanjir» pyesasi Marg'ilon shahar xalq teatri sahnasida uzoq yillar qo'yildi va muallifga katta obro' keltirdi. Bu musiqali drama keyinroq respublika televideniyesi orqali ham ko'p marta namoyish qilindi. O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi, lirik shoir, nosir va dramaturg M.Umarov uni bilgan, ko'rgan shogirdlari, do'stlari xotirasida uzoq yashaydi. Zero, qissa qahramonlaridan biri aytganidek, «Fikri yorug», ko'zлari olisni ko'radigan, birgalashib qilingan mehnatdan baxtini topadi»gan har qanday odam doim barhayotdir. Mamadali Umarov ham ana shunday insonlar qatoridan o'rin olgan.



USTOZLARI SUYGAN SHOGIRD

(1929-1993)

Anvar Muqimov 1929-yilning 1-iyulida (1984-yilda nashr etilgan «Pisateli sovetskogo Uzbekistana» kitobida uning tug'ilgan yili 1932 deb noto'g'ri berilgan) Bag'dod tumaniga qarashli Olchin qishlog'ida tavallud topdi. Uning yoshligi va o'smirligi ocharchilik, qahatchilik, ichki nizolar kuchaygan, «qama-qama»lar avj olgan va ikkinchi jahon urushining og'ir yillariga to'g'ri keldi.

Anvarjon 10-sinfni bitirgandan keyin 1952-yili Toshkentga jo'nadi. Shu yiliyoq respublika chet tillar institutining nemis tili fakultetiga o'qishga kirdi.

1956-yilda institutni tamomlab kelgan yosh o'qituvchi Anvar Muqimov Bag'dod tumani maktablari o'tasida talash bo'lib ketdi. Chunki bu yillarda maktablarda nafaqat chet tili, balki ona tili va adabiyoti, fizika-matematika, tarix, geografiya kabi ko'plab fanlardan ham oliy ma'lumotli o'qituvchilar yetishmasdi. Shu boisdan u 1963-yilgacha bir paytning o'zida 3, 12, 13, 14-maktablarda ishladi. Oxirgi uch yilda esa 12-maktabga direktorlik qildi.

Bu paytda Anvar Muqimov felyetonchi va satirik yozuvchi sifatida xiyla tanilib qolgan, hikoya va maqolalari viloyat hamda respublika matbuotida peshma-pesh chop etilardi. Uning iste'dodini ilk bor Said Ahmad ilg'adi. «Anvar Muqimovni dastlab yosh yozuvchilar seminarida tanigandim, – deydi O'zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi ustoz Said Ahmad, – uning yaxshigina bir hikoyasini o'qib, katta gazetalardan birida «Oq yo'l» tilaganman». Keyin bu yigitni Abdulla Qahhor bilan tanishtirdi. Yosh adibning «Mushtum» jurnalida bosilgan bir hikoyasini o'qigan Abdulla aka darhol quyidagi qisqa va g'oyat ruhlantiradigan maktub yo'lladi:

«Anvarjon! «Bizning tashabbus»ni o'qib quvonib ketdim. Sizda satirik yozuvchining o'tkir ko'zi, quvligi bor. Bu sohada muvaffaqiyat qozonishingizga aminman. Hurmat bilan: A.Qahhor. 1965-yil 14-noyabr».

Bu xat Anvar Muqimovga qanot bag'ishladi. Ustozlari A.Qahhor va S.Ahmadlarning taklifi bilan «ijodiy o'sish, ustozlardan saboq olish, poytaxtdagi adabiy muhitda pishish, o'zi tengi yosh yozuvchilar bilan

bo‘ladigan muloqotlarda fikr doirasini kengaytirish» (S.Ahmad) uchun Toshkentga keldi. Dastlab «Mushtum» jurnalida, keyin «O‘zbekiston» nashriyotida ishladi. Biroq Toshkentda uzoq ishlashning iloji bo‘lmadi. Negaki, oilasi qishloqda qolgan, bolalar yil sayin ulg‘ayayotgandi. Shuning uchun u qishloqqa qaytish, qaytganda ham Toshkent bilan aloqani uzmaslik yo‘llarini izlay boshladi. Ustozlarining yo‘l-yo‘rig‘i bilan maktab hayotini yaxshi bilgan, hikoya, felyeton va maqolalarida maorif sohasidagi muammolarni dadil ko‘tarayotgan Anvar Muqimov «O‘qituvchilar gazetasi»ning vodiylari bo‘yicha muxbiri lavozimiga tayinlandi. Endi qishloqda yashab, ishslash va ijod qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Bu orada Anvar Muqimovning birinchi hikoyalar to‘plami «G‘alati odamlar» nomi bilan bosilib chiqdi (1969). Unga 11 ta hikoya kiritilgan bo‘lib, ularning barchasi ustozlari A.Qahhor va Said Ahmad nazaridan o‘tgan, pishiqlari, unda tasvirlangan voqealar va xarakterlarni ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushslash darajasida aniq va ko‘rimli edi. Eng muhimmi, ular qahhorona ixcham va lo‘nda, Said Ahmad uslubiga xos kulgili tasvir hamda iboralarga boy edi. Chunki Anvarjon Toshkentga kelib ustozlari bilan yanada yaqinlashgan, har bir hikoyasini ularga ko‘rsatib, yo‘l-yo‘riq va maslahatlar olib, qayta ishlab, nashrga tayyorlagan edi. Ayniqsa, Abdulla Qahhor o‘z mehrini qozongan bu shogirdining har bir asarini sinchiklab tekshirib, tegishli maslahatlar berib turdi. Masalan, o‘sha birinchi to‘plamdan joy olgan «Ishlar joyida», «Aqlim kiryapti» singari hikoyalarini ustoz tavsiyalari asosida qayta ishlanganligini Abdulla akaning 1966-yil 27-apreldagi maktubidan bilib olish mumkin. Ulug‘ yozuvchi xat oxirida shogirdiga agar «Mening takliflarim ilhom tug‘dirmasa, zo‘rma-zo‘raki urinmang, chunki ilhomsiz tuzatish buzishdan nari o‘tmaydi», deya ijodiy erkinlik beradi.

Anvar Muqimovning ijodiy ishlari yil sayin samarali bo‘lib borardi. Birinchi to‘plami nashr etilgandan keyin bir yil o‘tib, 22 ta hikoyasini o‘z ichiga olgan «Pinhona jang qissasi» (1970) e’lon qilindi. Shundan so‘ng birin-ketin «Xotinimdan o‘rgilay» (1972), «Biz bir yondan, siz bir yondan» (1977) deb nomlangan kitoblari bosilib chiqdi. 1982-yilda nashr qilingan «Kichkina bola emasman» kitobi esa A.Muqimovning O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga qabul qilinishiga tuhfa bo‘ldi (guvohnoma raqami – 13265). Endi yozuvchi hajvchilik

borasida S.Ahmad, N.Aminov, S.Siyoyevlar qatoridan mustahkam o'rin oldi. Adabiyotshunoslar uning asarlari to'g'risida ko'p ijobjiy fikrlar bildirishdi.

Keyingi yillarda adibning «Qo'qon shamoli» (1986), «Chuqur tekshirish» (1988) kabi kitoblari nashr qilindi. A.Muqimov ustozlari A.Qahhor va S.Ahmadlar maslahatlariga amal qilib, kam bo'limadi. U asosan, satirik va humoristik hikoyalari, intermediyalar, felyetonlar, parodiyalar yaratdi. Ularning har birida sirtdan qaraganda uncha ko'zga tashlanmaydigan, ammo oqibati og'ir ko'rgiliklarga olib keladigan illatlar tasvirlanadi va ularning paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan shaxslar, hatto jamiyat, muhit qattiq satirik kulgi ostiga olinadi. Albatta, adibning bunday jasorat bilan qalam tebratishi har doim ham qo'llab-quvvatlanavergan emas. Uni jim yurishga majbur qiluvchilar, uncha-muncha imtiyozlardan mahrum etuvchilar, «Vaqtin o'tdi» deb chetga surib qo'yuvchilar ham topildi. Tanqid hech kimga hech qachon yoqqan emas. Rostgo'y, to'g'riso'z, haqgo'y adib bunday munosabatlarni uzoq ko'tara olmasligi aniq edi. Anvar Muqimov 1993-yilning 24-yanvarida vafot etdi.

Bu o'tkinchi dunyoni jisman tark etgan bo'lsa-da, hajviy yozuvchi Anvar Muqimovning o'tkir qalami o'g'li Saidjon qo'lida san'at mo'jizalari yaratishni davom ettirmoqda. Ota izini bosayotgan farzandi 1999-yilda padari buzrukvorining 70 yilligi munosabati bilan «Erinsangiz, kulmang» deb nomlangan saylanma kitobini chop ettirdi. Unga A.Muqimov hayotligida chiqqan 7 ta kitobdan eng yaxshi asarlari saralab olingen. Adib nashr qilishga ulgurmagan 21 hikoyasi, 9 ta parodiyasi «Daftarda qolgan hikoyalari» nomi ostida alohida bo'limda berilgan. Saylanmaga Anvar Muqimov ijodidan 88 ta asari tanlab kiritilgan. Aslida tinib-tinchimas yozuvchi 150 ga yaqin hikoya, intermediya, parodiyalar yaratgan. O'nlab felyetonlari esa bu hisobga kirmaydi.

YAXSHILAR IZIDAN

(1929-1991)



O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi (1972) Oltmish O'sarov 1929-yilning 20-avgustida Beshariq tumanidagi Rapqon qishlog'ida tug'ildi. 1948-1952-yillarda Konibodom shahridagi erlar pedagogika bilim yurtini, keyin (1952-1956) Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetini tamomlagan Oltmishboy qishlog'iga qaytib, to unirining oxirigacha Furqat nomidagi 26-maktabda o'qituvchi bo'lib ishladi. Jamoatchilik asosida o'z tashabbusi bilan tashkil etilgan Rapqon qishlog'i tarixi muzeyini

boshqardi.

Oltmish O'sarov 60-yillardan ijod qilishga kirishdi. U asosan bolalarga bag'ishlab asarlar yozdi, chunki adib ko'z o'ngida yurtining ertasi kamolga yetmoqda edi. Ularning ichki dunyosi ham, maqsad va intilishlari ham o'qituvchi ijodkor Oltmish O'sarovga yaxshi tanish edi. Uning yozganlari «G'uncha», «Gulxan», «Guliston», «Mushtum» jurnallari; «O'zbekiston madaniyati» (hozirgi «O'zbekiston adabiyoti va san'ati»), «Yosh leninchchi» («Turkiston»), «Lenin uchquni» («Tong yulduzi») gazetalarida peshma-pesh chop etila boshlandi.

O.O'sarovning birinchi kitobi «Cho'lda bulbul sayradi» nomi bilan 1970-yili bosilib chiqdi. Atigi 14 betdan iborat bo'lgan bu to'plamga muallifning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga mo'ljallangan 6 ta hikoyasi kiritildi. O'zi qisqa bo'lsa-da, tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lgan bu hikoyalar tez orada qirg'iz tiliga o'girilib, 1972-yilda Bishkekda ham nashr etildi. Bundan ruhlangan yozuvchi yanada astoydil ijod qila boshladi. 1974-yili «Akamga o'xshayman», 1978-yilda «Sizdan minnatdorman, odamlar!» nomli kitoblari bosilib chiqdi. Yozuvchining keyingi kitobi hujjatli qissa bo'lib, hamqishlog'i, tug'ma nogiron, iste'dodli shoir Umarali Qurbonovga bag'ishlangan edi. Darvoqe, hamqishloqlarining aytishlaricha, Oltmishboy aka to'shakka mixlanib yotgan, ammo hayotga umid bilan qarab, ajoyib she'rlar yaratgan

Umaralining respublikaga tanilishiga ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan juda katta yordam bergen ekan. Qissada Umaralining hayotga bo'lgan cheksiz muhabbat, ishtiyobi, ishonchi, intilishi, umidvorligi, irodasi, g'ayrati, do'stlari va ustozlarining mehri, ijodga ixlosi yosh avlodga namuna qilib ko'rsatilgan edi. Kitob so'ngida Umaralining bir turkum she'rlari ham berilgan.

O'n bir yillik tanaffusdan so'ng (bu yillarda O.O'sarovning umr yo'ldoshi, 6 ta farzandining onasi Jamila opa falaj bo'lib qolgan, unga asosan domlaning o'zi qaragan edi) 1989-yilda «Endi yig'lamayman» nomli hikoyalar to'plami nashr qilindi. Yozuvchining bu to'plamiga kirgan 26 ta hikoyasi avvalgi to'plamlaridagi singari g'oyat qisqaligi bilan ajralib turadi. Zero, o'yinqaroq bolaga ko'p gapning keragi yo'q. Unga ortiqcha pand-nasihat emas, ta'sirchan voqeа, ko'ngliga yaqin manzara kerak. Mana, shu to'plamga kirgan «Shirinso'z bola» yoki «Mol bozorida» hikoyalarini olib ko'raylik. Nosirjon dadasini so'rab uylariga kelgan notanish amakini hurmat bilan salom berib kutib oldi. Dadasini darrov chaqirib berdi. Amaki esa ketayotib Nosirjonning yelkasiga qoqdi-da: «Xayr, shirinso'z o'g'lim. Biznikiga boring, xo'pmi? – dedi». Hikoya «Amaki Nosirjonne nega «shirinso'z», dedi ekan-a?» degan savol bilan tugaydi. Bu savolga hikoya qahramoni Nosirjon emas, o'quvchi javob topishi, o'zi ham Nosirjonday odobli, xushmuomala bo'lishga harakat qilishi kerakligi singdiriladi.

Sigirini sotish uchun bozorga olib borganlarda dadasi xaridorlarga kamsut, tepadigan, chimxo'r molini «Nihoyatda xo'ra. Nushxo'rd chiqarmaydi. Quruq cho'pni ham yeydi. Erta, kech bir paqirdan – ikki paqir sut beradi. Yuvosha», deb maqtaydi. Nodirbek esa dadasining bu yolg'on gaplaridan hayron bo'lib turardi. Nihoyat, xaridorlardan biri: «O'g'lim, dadangning aytganlari rostmi?» – deb so'raganda «Nodirbek oldin sigirga, keyin dadasiga qaradi. Etigining uchi bilan yer chizdi». Shu qisqa tasvir kimning qandayligini ko'rsatib turibdi.

Men yozuvchining uyida bir dunyo qo'lyozmalari bilan tanishdim. 20 dan ortiq qalin papkalarda O.O'sarovning nashr etishga tayyorlangan yoki nashriyotda taqrizdan o'tkazilib, qayta ishlashga olingan hikoyalar, qissalar, xanda va hajviyalar bor. Ular orasida o'rta yoshdag'i maktab bolalariga mo'ljallangan «Endi menga ishongandirsiz?» nomli sarguzasht qissa, maktab yoshidagi bolalar uchun yozilgan «Men

bobomning o‘g‘liman» qissasi e’tiborimni tortdi. Afsuski, yozuvchi ularni qayta ishlab, nashr ettirishga ulgurmadi. O.O’sarov 1991-yilning mart oyida vafot etdi.

O.O’sarov ko‘plab she’rlar ham yozgan. So‘nggi yillarda u asosan to‘rtliklar yaratdi. Bu she’r shakli ham ijodkor uslubiga mos holda tanlangan. Zero, to‘rtlik aytilmoqchi bo‘lgan katta fikrning ixcham ifodasi, ya’ni olamga tatigulik bir parcha patirdir. Masalan, shoir to‘rtliklaridan birida yosh avlodga shunday murojaat qiladi:

*Quyoshga ta’zim et, yuzingni burma,
Suv ichgan ariqqa aslo tupurma.
Oyog ‘ing ostida yotur ajdodlar,
Zaminni ko‘zga surt, oyog ‘ing urma!*

Oltmish O‘sarovning ijodiy merosi o‘rganishga arziydi. Bu kelgusida shu qishloqdan yetishib chiqadigan adabiyotshunoslarning zimmasidagi vazifa deb umid qilamiz.



IRODA VA MEHNAT SAMARASI

(1933)

Kommuna Olimova 1933-yilning 29-mayida o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi Hasanjon Olimov oilasida dunyoga keldi. Bu oila davrining taniqli ijodkorlari va ma'rifatparvarlari Mo'ydin Xayrullo, Amin Umariy, Muhsin Hamidiy, Charxiy, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, tazkirananis Po'latxon domla Qayumovlar bilan yaqin tanish va hamsuhbat edi. Bunday ijodiy muhit Kommunaxonning o'z hayot yo'li va maqsadini aniq belgilab olishida muhim rol o'ynadi.



Maktabni bitirgach, 1951-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakultetiga o'qishga kirdi. Uning talabalik yillari xiyla qiyin kechdi. O'zining eslashicha, «50-yillarda talabalarning o'qishi va yashashi uchun durustroq shartsharoit yaratilmagan edi. Yotoqxonamizda krovatlar uch qavatdan qo'yilgan. Ovqat qilish u yoqda tursin, choy qaynatish ham ming mashaqqat. Oshxona yo'qligidan ba'zida och-nahor yashashga ham to'g'ri kelardi». O'qish va hayot qiyinchiliklarini mardona yenggan Kommuna Olimova 1956-yilda universitetni bitirdi.

Ona shahriga qaytgan Kommuna Olimova «Yangi Farg'ona» gazetasida adabiy xodim bo'lib ish boshladi. U shahar yangiliklari, ajoyib insonlar erishayotgan yutuqlar to'g'risida shavq bilan maqolalar yozdi. Uning qalbi to'la tug'yon, yuragida aytadigan gaplari ko'p edi. Ammo ular maqolalarga sig'masdi. Shundan so'ng u ko'nglidagi istaklarni she'riy satrlarga to'ka boshladi. O'z faoliyatini «Zavqqa to'lgan yuragim, Ishlab tolmas bilagim. Vatanda hurmat topmoq Ulug' orzu-tilagim», degan qutlug' niyat bilan boshlagan ijodkor o'zi mansub bo'lgan ayollar dunyosining go'zalligi va mashaqqatlarini ifodalashga ko'proq urindi.

Chindan ham Kommuna Olimova qalamiga mansub qaysi asarni olmaylik, uning bosh qahramoni ayol, mabodo, u qatnashmasa ham personajlar nutqi orqali ayol zotining go'zalligi, aql-zakovati, hayot va

oiladagi o'rni, albatta, qayd etiladi. Masalan, «Onajonim», «Ayol baxti», «Paxtakor qiz qo'shig'i», «Urushni eslab» singari o'nlab she'rlari chindan ham shoiraning:

*Kuyga solib ayol sevinchin,
Odamlarga aytgim keladi.
El, Vatanni madh etmoq uchun
Qaynab, jo 'shib baytim keladi...*

degan niyati amalga oshganini isbotlaydi. Ayniqsa, ajoyib tadbirkor va jamoatchi ayollar Zumradxon To'raxo'jayeva hamda Kenjaxon Yo'ldoshevalarga bag'ishlangan «Tole munavvar», «Yaxshilik – umr naqshi» deb atalgan ocherk-kitoblari adibaning o'z hamyurtlari mehnati va faoliyatiga befarq emasligini ko'rsatadi.

Afsuski, hayot insonni har doim ham siylayvermaydi. Uni ba'zan qattiq sinovlardan o'tkazib ham turadi. Kommuna opaning hayot yo'li ham har doim tekis va omadli bo'lavermagan. 1970-yilda umr yo'ldoshi to'satdan olamdan o'tdi. Hali voyaga yetmagan to'rt farzandga ham ona, ham ota bo'lish uning zimmasiga tushdi. Keyinroq yolg'iz o'g'li Rustamjon ham fojiali halok bo'ldi. Bu ayriliqlar adibaning ijodi va ijtimoiy faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Ammo hayotga, kelajakka ishonch, odamlarga muhabbat uning boshiga tushgan musibatlarni sabr-toqat bilan mardona yengishiga yordam berdi. «Ijod zavqi bilan yashadim. Yoshligimdan o'qish, yozishga bo'lgan ishtiyoyqimmi, sabr-qanoatlilikimmi, baholi-qudrat hayotda o'z o'rniymi topishimga yordam berdi», deydi Kommuna opa. Darhaqiqat, haqiqiy ijodkor irodali, chidamli bo'lishi zarur.

Bu jihatdan adibaning dramalari ibratlidir. Kommuna opa bir necha yil Qo'qon shahridagi o'zbek musiqali drama teatrida adabiy emakdosh vazifasida ishlab, sahna asari yaratish sirlarini qunt bilan o'rgandi. Uning bu sohadagi ijodiy izlanishlari jarayonida san'atshunos olimlar Muhsin Qodirov, Tohir Islomov, drama nazariyasi bo'yicha yetuk adabiyotshunos Hafiz Abdusamatov, iste'dodli rejissyorlar Mannon Hamidov, Madamin Jo'rayev, Azimjon Azizovlardan tegishli maslahatlar oldi. Adiba o'z ko'rgan-kechirganlardan shunday xulosaga keldiki, «Oila qurish – igna uchida qasr qurish bilan teng» nozik hodisadir. Drama hamda hikoyalari uchun mavzu, muammo, qahramon tanlashda ijodkor asosan ana shu xulosalariga tayandi va bunda har doim «Ijodkorning, yozuvchining

bosh manbai hayot, tirik odamlar va ularning dardu hasratlari, quvonch va tashvishlari, ko'rgan-kechirganlari bo'lmosg'i, har bir qalam sohibi, avvalo, hayotdan ta'sirlanmog'i kerak», degan prinsipiqa qat'iy amal qildi.

Kommuna Olimovaning «Jo'shqin qalblar» nomli dastlabki dramasi 1975-yilda Qo'qon teatrida sahna yuzini ko'rdi. Shundan so'ng dramaturg tez orada «Mehr nafosati», «Meros», «Alpomish avlodlari», «Ovsinlar mojarosi» kabi turli janrdagi pyesalarini yaratdi. Ular Qo'qon, Andijon va boshqa viloyatlar teatrlarida sahnalashtirilib, tomoshabinlar hamda adabiy jamoatchilikka ma'qul bo'ldi. Dramaturgning «Meros» asari qo'qonlik mashhur usta Qodirjon ota Haydarov va uning iqtidorli shogirdlari san'atini tasvirlashga bag'ishlangan. Ikki parda olti ko'rinishdan iborat «Alpomish avlodlari» pyesasida esa qo'qonlik san'atkor Sherqo'zi Boyqo'ziyevning oilaviy ansambli haqida hikoya qilinadi. Dramatik turning murakkab shakli hisoblangan detektiv janrda yozilgan «Maxfiy tuzoq» pyesasi nafaqat sahnalarda, balki respublika radio va televideniyesida ham namoyish qilingan.

Sermahsul va mashaqqatli umrining saksoninchi bahoridan oshgan Kommuna Olimova hamon ijod bilan band. 2015-yilda adiba o'z o'quvchilariga xotiralari, maqola va taqrizlaridan tarkib topgan «Bir asr bitiklari» nomli yangi kitobini tuhfa qildi (T., «Istiqlol nuri» nashriyoti. Mas'ul muharrir: N.Qilich). «Yozuvchilik mas'uliyatini chuqur his etgan holda» hanuz qalamini qo'ldan qo'yagan K.Olimovaning yanada ko'p va xo'b asarlar yaratishiga tilakdosh bo'lib qolamiz.



ONA YURT OSHIG'I (1934)



Oxunjon Hakimov 1934-yilning 20-fevralida Farg'ona tumanidagi Log'on qishlog'ida tug'ildi. O'rta maktabni tamomlab, Farg'ona davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi. 1956-yili institutni imtiyozli diplom bilan tamomlagan, ko'plab maqolalari, lavha va she'rlari bilan o'quvchilarga tanilib qolgan yosh ijodkorni viloyat «Kommuna» gazetasiga ishga olib qoldilar. Bo'lajak ijodkor uchun gazeta mahorat maktabi rolini o'tadi. Bu dargoh o'sha paytda Adham Hamdam, Jalol Mashrabiy, Akram Qodiriy, Sherali Toshmatov singari taniqli qalamkashlari bilan respublika miqyosida dovrug' qozongandi. Yosh ijodkorning qalami mana shu qizg'in adabiy muhitda yanada charxlandi.

Oxunjon Hakimov uslubi yengil va tezkor jurnalist sifatida tez tanildi. Shuning uchun u ko'p o'tmay Toshkentga ishga taklif qilindi. 1966-yilda «Sovet O'zbekistoni» (hozirgi «O'zbekiston ovozi») gazetasida faoliyatini boshlagan O.Hakimov shu gazeta hamda «Mehnat va turmush» jurnali muharriyatida uzoq yillar ishladi, ham shoir, ham jurnalist sifatida katta tajriba orttirdi. Toshkent adabiy muhitida uning ijodi yanada kamolga yetdi, yaqin do'st, birodarlar va qarindoshlar topdi. Hozir O.Hakimov tug'ilgan yurtida do'stlari hamda shogirdlari davrasida yashab, ijod qilayotir.

Shoirning birinchi she'rlar to'plami – «Ilhom vodiysi» 1961-yilda bosilib chiqdi. Esimda, shu to'plamga kirgan «Duduq dema» sarlavhali she'ri biz, talabalar o'rtasida juda mashhur bo'lib ketgandi. Chunki unda sevgi qudrati, iztirobi, sevishganlarning qalb hayajonlari go'zal shaklda ifoda etilgandi. Faqat bugina emas, umuman, «Ilhom vodiysi» to'plami o'quvchilarga ham, adabiy jamoatchilikka ham ma'qul bo'ldi. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri A.Oripov ham o'zining «Tag-zamini puxta she'riyat» sarlavhali maqolasida: «Bugungi kunda butun Turonda, hatto uning sarhadlaridan tashqarida ham nomi bot-bot tilga olinib, she'rlari jaranglab turgan bu shoir bilan ilk bor o'sha

kitobcha orqali tanishgan edim», – deb yozadi. Shu ilk majmuadayoq shoir ijodining o‘ziga xos fazilatlari – voqeabandlik, humor va hazilga moyillik, reportajnamolik ko‘zga yaqqol tashlangan edi. Bu xususiyatlar keyinchalik uning ijodida yanada takomillashdi, chuqurlashdi, kamolga yetdi.

Keyingi yillar O.Hakimov ijodida g‘oyat sermahsul davr bo‘ldi. «To‘yona» almanaxida (1964) uning bir necha she’rlari bosildi. So‘ngra birin-ketin shoirning «Farg‘ona ruboysi», «Bahor ekan-da», «Diyor qasidasi», «Qo‘llarim ko‘ksimda», «Dostonlar», «Tafakkur boqiy», «O‘shal kun kelur», «Ko‘zlarining o‘zi qora», «Qizlar xayol sursalar», «Go‘zallar, go‘zallar», «Muhabbatni ko‘zlardan izlang» singari yigirmadan ziyod she’riy kitoblari dunyo yuzini ko‘rdi va ko‘p ming sonli muxlislarning suyukli asarlariga, hofizlarning ehtirosli qo‘schiqlariga aylanib ketdi. Chunki ularda «yoshlik va muhabbat tuyg‘ulari bilan limmo-lim to‘la» his-tuyg‘ular o‘quvchilar qalbini hayajonga soldi.

Shoir o‘zining 60 yillik ijodiy faoliyati mobaynida o‘nlab doston va balladalar ham yaratgan. Uning «Uchrashuv», «Sharq o‘g‘lonlari», «Qizilqum monologi», «Mening paxtam», «Sevgiling keladi» singari liro-epik asarlarida vatanparvarlik, ona yurt uchun kuyunchaklik, uning behisob boyliklarini ko‘z qorachig‘idek asrash va ko‘paytirish uchun mas‘ullik, insonni avaylash motivlari ifodalanadi. O.Hakimov qalamini nasr va dramada ham sinab ko‘rmoqda. Yozuvchining «Bahor hidi» qissasi o‘zi yaxshi bilgan, yoshligida yonma-yon mahallada birga o‘sgan Rahmaddin Abdurahmonovga bag‘ishlangan. U 70-80-yillarda Farg‘ona tumanidagi Navoiy nomli kolxzogga ko‘p yillar raislik qilgan, jamoani viloyatdagi eng ilg‘or xo‘jaliklardan biriga aylantirgan tadbirkor inson edi. «Burgut hamlasi» esa ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan bo‘lib, Rishton tumanidagi Zohidon qishlog‘idan chiqqan qahramon jangchi Karim Sultonov hayotiga bag‘ishlangandi.

Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi viloyat musiqali drama va komediya teatrining 73-mavsumi Oxunjon Hakimovning «Jonimning malhami» nomli 2 parda, 6 ko‘rinishli musiqali komediyasi bilan boshlandi. Asarda muallif yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi, yengil-yelpi hayot kechirishiga intilishning ayanchli oqibatlari to‘g‘risida hikoya qiladi. Drama tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. 2002-yilda adib A.Ibodinov bilan hamkorlikda «Sarhadlarda

sinalganlar» deb nomlangan ocherklar kitobini nashr ettirdi.

2006-yilda Prezidentimiz Farmoni bilan Oxunjon Hakimovga «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi. Bu, shubhasiz, ijodkorning g'ayrati va mas'uliyatini oshirdi. Dastlab avtobiografik xarakterdag'i «Olam g'alat, odam g'alat» deb atalgan asari, so'ngra «Ko'ksingizda yashasam deyman», «Bir diyor bor», «G'alati dunyo» nomli uch kitobdan iborat «Saylanma»si dunyo yuzini ko'rdi. Sakkizta dramasi jamlangan «Bu chollar yomon chollar», hikoya va pyesalardan iborat «Milliarder murdalar» (2014), eng yangi she'rлaridan tashkil topgan «Uyingizga sovchi boradi» kitoblarida ham adib ona Vatani hamda unda yashayotgan insonlarning ulug'ligi, mehnatsevarligi, mehr-muhabbatga boyligini tarannum etadi.



O'YLAGANI, KUYLAGANI YAXSHILIK EDI

(1935-2004)



Yo'ldosh Sulaymonni Farg'onaning katta yoshdagi odamlariga tanishtirib o'tirishning hojati yo'q. Sababi, viloyatimizda uning qadami yetmagan qishloq, samimiyl muhabbatidan bahramand bo'limgan odam topilmaydi. Uning ijodidan yoshlari ham to'la xabardor. Negaki, Yo'ldosh Sulaymon ijodini bolalarga bag'ishlangan she'rlar yozishdan boshlagan va bolalar shoiri bo'lib tanilgan.

Yo'ldosh Sulaymon 1935-yil 12-avgustda Qo'qon shahri yaqinidagi Oydinbuloq qishlog'ida tug'ildi. Uning yoshligi II jahon urushining og'ir yillariga to'g'ri keldi. Urushga ketgan otalari va akalari o'mnini ayollar bilan bolalar egallashgan edi. Maktablar deyarli yo'q, borida ham o'qituvchilar yetishmasdi. Yo'ldoshali esa o'qishni xohlar, tengdoshlari bilan ko'proq «maktab-maktab» o'ynashni yoqtirardi. Bu o'yinlar yosh o'smir qalbida o'qituvchilik kasbiga o't yoqdi. 10-sinfni tamomlagan Yo'ldoshali 1952-1955-yillarda maktabda yoshlari yetakchisi bo'lib ishladi, muallimlik ham qildi.

1955-1960-yillari Yo'ldosh Sulaymonov Farg'ona davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetida ta'lim oldi. Institutni tamomlagach, uni viloyat gazetasiga ishga taklif qilishdi. Chunki Yo'ldoshali talabalik yillarda o'zining bolalarga bag'ishlangan she'rlari, dolzarb mavzulardagi maqolalari hamda lavhalari bilan xiyla tanilib qolgan edi. Shuning uchun viloyat gazetasi muharriyatiqagi qizg'in ijodiy muhit bo'lajak adibning maqsad va maslagini amalga oshirishga katta imkoniyat yaratishiga ishongan Yo'ldoshali hech ikkilanmay gazetaga ishga bordi.

1960-yildan to 1987-yilgacha gazetaning musahhihligidan bo'lim mudirligigacha bo'lgan chorak asrlik hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. Bu orada bir necha yil jamoatchilik asosida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Farg'ona viloyat bo'limining mas'ul kotibi vazifasini ham bajardi. Va nihoyat, 1987-yildan boshlab rosa 10 yil uyushmaga haqiqiy

rahbarlik qildi. 1996-2002-yillarda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o'rinnbosari bo'lib ishladi. Adib O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining deputati sifatida ham talay xayrli ishlarni amalga oshirdi. U qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, har doim o'zining halolligi, samimiyligi, haqiqatparastligi, umum davlat manfaatlariga sodiqligi bilan katta obro' orttirdi.

Yo'ldosh Sulaymon adabiyotga dastlab bolalar shoiri sifatida kirib keldi. Q.Muhammadiy, Q.Hikmat, P.Mo'min kabi ustoz shoirlar izidan bordi, bolalar she'riyatiga yangicha ruh va ohang olib kirdi. Shoirning 1966-yilda bosilgan «Biz – sayohatchilarimiz» nomli birinchi to'plami (T.Adashboyev, A.Mullamuhamedovlar bilan hammualliflikda) adabiy jamoatchilik hamda keng kitobxonlar tomonidan yaxshi kutib olindi. Ayniqsa, uning «Kimning ko'ziga qaray?», «Hozir yoshim oltida», «Ayasini ayasin» singari she'rlari bolalar orasida juda mashhur bo'lib ketdi. Chunki, ular, avvalo, qisqaligi, qolaversa, soddaligi, qiziqarliligi, bolalar ruhiyatini aniq ifodalashi bilan ajralib turardi. Shundan keyingi yillarda shoirning «Hamma havas qiladi», «Rahima-chi, vahimachi», «Mening birinchi muallimim», «Hozir yoshim oltida» kabi she'riy to'plamlari bosilib chiqdi. Ularning har birida bolalarning o'ziga xos dunyosi, tashqi olam hodisalariga bolalarcha munosabati, hayrati, yaxshi va yomon fazilatlari o'z ifodasini topgan edi.

Yo'ldosh Sulaymonning bolalar adabiyoti dargohiga qo'ygan ilk qadamlari adabiy jamoatchilik tomonidan xayrixohlik bilan kutib olindi. Masalan, taniqli adabiyotshunos S.Mamajonov bolalar she'riyatiga «Talabning eng cho'qqi darajasida»n turib yondashar ekan, Yo'ldosh Sulaymon «bolalar poeziyasiga dadil va shavq bilan kirib keldi. Go'zal soddalik, jo'shqinlik va fikriy tiniqlik, yorqin obrazlilik bor uning she'rlarida. Ayniqsa, «Men otamni o'ylasam», «Askarmiz» she'rlarida vorisiylik tuyg'usi, jangovarlik an'analariga sadoqat tuyg'usi yaxshi berilgan. Yo'ldosh Sulaymonning quvnoq she'rlari bolalarning katta orzu-xayollarini, ota-bobolar yo'lidan yurish istagi va mehnatga muhabbatini ifodalaydi», deb baholagan edi.

Ayni chog'da Y.Sulaymonov ocherk janrida ham samarali ijod qildi. Uning ocherklari o'zining chuqur lirizmi, yuksak pafosi, insон tuyg'ularini ehtirosli ifodalashi bilan e'tiborni tortdi. Yozuvchi ocherklarida ko'tarilgan masalalar g'oyat dolzarb bo'lib, tez orada

muallif nomini Nazir Safarov, Yo'ldosh Shamsharov, Ibrohim Rahim, Hakim Nazir, Sunnatulla Anorboyevlar qatoriga qo'shdi. O'n yil mobaynida (1964-1975-yillar) Y.Sulaymonov ocherklari har yili respublika miqyosida e'lon qilingan turli mavzudagi tanlovlarda g'olib chiqib, birinchi yoki ikkinchi o'rnlarni egallar va sovrinlar sohibi bo'lardi. 1977-yilda unga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» faxriy unvoni berildi. Oradan bir yil o'tib esa «Sen mening quyoshimsan» nomli ocherklar to'plami uchun respublika yoshlar mukofotining laureati bo'ldi.

Birin-ketin Y.Sulaymonovning «Da'vatingni eshityapman, hayot!» (1968), «Katta yo'lga chiqquncha» (1969), «Sen mening quyoshimsan» (1972), «Bobolar qalbi» (1978) singari ocherklar to'plamlari bosilib chiqdi. Yozuvchi o'z ocherklarida asosan 20-30-yillardagi inqilobiy hodisalarining dolg'ali to'lqinlarida davr talabi va zamona taqozosisi bilan javlon urgan o'zbek yigitlarining ijtimoiy faoliyatini qalamga oldi.

Adib talay ocherklar yaratib, ijodiy tajriba to'plab olgach, o'z qalamini qissa hamda roman janrlarida sinab ko'ra boshladi. Dastlab nafaqat Farg'ona vodiysiga, balki butun O'zbekistonga Eshon ota nomi bilan tanilgan yirik davlat arbobi Buzrukxo'ja Usmonxo'jayev hayotiga bag'ishlangan «Boqiy umr», zahmatkash va fidoyi ayol, aziz umrining ko'p yillarini sovet konslagerlarida o'tkazgan, ammo irodasi bukilmagan Tojixon Shodiyeva haqidagi «Jalada qolgan gul» kabi hujjatli qissalarini yaratdi. Keyin o'zi ko'rgan, bilgan, eshitgan voqealar asosida «Muhabbat» deb atalgan badiiy qissasini, «Subhidam», «Vafo», «Armon» romanlarini yozdi. Ulardagi voqealarни hikoya qilishda yozuvchiga ilgariroq yozgan ocherklari katta yordam berdi. Chunki ocherkka sig'may qolgan o'y-fikrlari, qahramonlarning sevgi sarguzashtlari Y.Sulaymonga roman janrida erkinroq tasvirlash imkoniyatini yaratdi.

«Subhidam» romanida (1973) inson ongingin yangilanishida g'oyat murakkab davr hisoblangan o'tgan asrning 20-30-yillaridagi inqilobiy hodisalarini o'ziga xos tarzda tasvirlaydi. Romanning asosiy qahramoni Rustam voqealar markaziga tayyor inqilobchi sifatida kirib kelmaydi. U ko'p adashadi, ishongan odamlaridan aziyat chekadi va nihoyat, baxtini, kelajagini sovet hukumati uchun kurashda ko'radi. Rustamning Sarvinisoga bo'lgan sevgisi oxir-oqibat xalqiga, Vataniga nisbatan buyuk

muhabbatga aylanadi. Inqilobiy hodisalarning personajlar tomonidan qabul qilinishi, xususan, bosh qahramon Rustamning ikkilanishlari, ikki o't orasida qiynalishlari, sarson-sargardonliklari mashhur rus yozuvchisi M.Sholoxovning «Tinch oqar Don» epopeyasidagi Grigoriy Melexovni yodga soladi.

Yozuvchining «Vafo» romanida ilgari surilgan g'oyaviy muammo o'sha davr uchun xiyla murakkab edi. Negaki, unda ifodalangan voqealar hamda qahramonlar taqdiri xorij hayoti bilan bog'liq edi. Shu jihatdan roman syujeti tig'iz. Unda o'tgan asrning 20-30-yillarida ro'y bergan siyosiy-ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq holda ikki yosh – Qo'Idoshali va Saodatning sevgi liniyasi ham ehtiros bilan tasvirlanadi. Ammo, to'g'risini aytganda, bu romanlarida Y.Sulaymonov o'zining qalb daftarini to'la-to'kis ocholmaganligini, zamonasozlik iskanjasidan xoli bo'lmaganligini sezish mumkin.

Mustaqillik mevasi hisoblangan «Armon» (1998) romanida esa yozuvchi «inqilob» deb atalgan hodisaning o'zbek millati uchun aslida «illat ekan»ligini, «hamma niyati toza kishilar» unga aldanib «dog'da qolgan»liklarini ro'yi-rost ayta oldi. Asarda muallif o'ziga yaxshi tanish bo'lgan Qo'qon va uning atrofidagi aholi turmushini yoritish orqali butun o'zbek xalqining ikkinchi jahon urushi arafasidagi og'ir hayoti, kayfiyati, ma'naviy-axloqiy intilishlarini aks ettiradi.

90-yillarda Y.Sulaymonov ijodida ham shaklan, ham mazmunan tub burilish jarayoni yuz berdi. Avvalo, shoir o'z she'rlarining eng saralarini to'plab, «Shahrizod bo'l bir kecha» nomi bilan saylanma tarzida nashr ettirdi (1993). Bundan tashqari, «Qo'qonna», «Marg'ilonna», «Farg'onanova», «Gulnoma» singari qasidalar yaratdi va bu janr imkoniyatlarini kengaytirishga munosib hissa qo'shdi. Ularda ko'p asrlik adabiyot, san'at, madaniyat tarixiga ega bo'lgan Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona shaharlarining kechagi, bugungi va ertangi kunini obod hamda charog'on qilgan 200 dan ziyod tarixiy shaxslar, hunarmandlar, ziyorolar nomi mehr bilan tilga olinadi. Muallifning bu asarlarni yaratishdan asosiy maqsadi hozirgi yosh avlodga o'zi istiqomat qilayotgan makoni, unda yashagan, yashayotgan ulug' ajdodlari va zamondoshlari to'g'risida hikoya qilib berish, yoshlardan qalbida milliy g'urur tuyg'usini uyg'otishdir.

Bu ezgu istak Y.Sulaymonovni dramatik asar yaratishga ham undadi. U 1999-yilda hamyurtimiz, ulug' matematik olim, astronom, faylasuf

Ahmad Farg'oniya bag'ishlab «Osmonga sig'magan muhabbat» nomli dramasini yozdi. Bu asari uchun muallif Ahmad Farg'oni yubileyi munosabati bilan o'tkazilgan respublika ko'rik-tanlovida faxrli 2-o'rinni oldi. Dramani sahnalashtirgan Farg'ona viloyati Y.Shakarjonov nomidagi o'zbek musiqali drama va komediya teatri «Navro'z» respublika ko'rik-tanlovida, viloyat rus drama teatri jamoasi esa xalqaro «Humo» ko'rik-tanlovida sovrinli o'rirlarni egalladilar.

Afsuski, hayot beshafqat, u yaxshi-yomonning farqiga bormas ekan. Yomondan ko'ra ko'proq yaxshilarni olib ketadi. Katta-yu kichikka butun borlig'ini, samimiyati va ulkan mehr-muhabbatini baland ovoz bilan «Yaxshi! Yaxshi!» degan so'zlar orqali baxshida etgan ehtirosli lirk shoir, yozuvchi, dramaturg, publitsist va jamoat arbobi Yo'ldosh Sulaymonov 2004-yilning 9-aprelida to'satdan vafot etdi. Ko'pchilikka aziz inson, yaqin birodar bo'lib qolgan Yo'ldosh akani minglab qadrdonlari yelkasida ko'tarib, Vodil yo'lidagi Qorasuv qishlog'i yaqiniga joylashgan qabristonga dafn etdilar.

Lekin bir taskin ko'ngilni ko'taradi:

O'ylaganim yaxshilik,

Kuylaganim yaxshilik.

Ham bilganim yaxshilik,

Intilganim yaxshilik...

deya yaxshilik urug'larini sepib ketgan inson uni bilgan, tanigan, o'qigan minglab odamlarning qalbiga ko'milgan. Uning xotirasi hech qachon o'chmaydi.



YETUK OLIM VA SHOIR

(1935-1997)

Yirik adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori (1994), O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi (1990) Azimjon Rahimov 1935-yil 1-noyabrda Namangan shahrida dunyoga keldi. O'rta maktabni tamomlab, 1952-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ning o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi. Universitetni a'lo baholarga bitirgan Azimjonni o'zi o'qigan maktabga bajonidil ishga qabul qildilar. Tez orada maktab o'quvchilarini atrofiga uyuشتirib, talay ibratli tadbirlar o'tkazdi. Uning faoliyatini kuzatib yurgan Namangan shahar yoshlar qo'mitasi darhol o'z safiga chaqirdi. 1957-1961-yillar mobaynida shahar va viloyat yoshlar tashkilotlarida mas'ul lavozimlarda xizmat qildi.



Ammo A.Rahimovning ikki xayoli ilmiy ish qilish rejasи bilan band edi. Umarali Normatov, Sherali Turdiyev singari kursdoshlari bu paytda o'z maqlolari, tadqiqotlari bilan tanilib qolgan va do'stalarining bunday muvaffaqiyati ilmga tashna Azimjonning qalbiga o't yoqardi. Xullas, istak uni 1962-yilda Farg'onadavlat pedagogika institutiga olib keldi. Bu yerda u bir necha yil o'zbek va rus filologiyasi fakulteti talabalariga chet el adabiyoti fanidan dars berdi. Domla chet el adabiyotini ham nazariy, ham amaliy jihatdan juda yaxshi bilardi. Talabalarni qiziqtira olar, o'qishga, o'rganishga rag'batlantira olardi.

U yanada ko'proq o'qish, o'rganish niyatida 1966-yili Moskvaga borib, Rossiya Fanlar akademiyasi qoshidagi jahon adabiyoti institutiga o'qishga kirdi. Ham jahon adabiyoti namunalarini, ham rus tili va adabiyotini puxta o'rgandi. Institutni tamomlab, Moskva davlat universitetining rus adabiyoti kafedrasи aspiranturasida o'qishni davom ettirdi. Bu nusuzli ilm dargohida A.Rahimov dunyo tan olgan nazariyotchi olimlar L.Timofeev, M.Parxomenko, Z.Kedrina, G.Lomidze, R.Bekmuxamedov singari ustozlardan saboq oldi. Va nihoyat, 1973-yilda Moskva davlat universitetining ixtisoslashgan ilmiy

Kengashida «Hozirgi o'zbek adabiyotida milliylik va umuminsoniylik» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Shu yili yana o'zi ko'ngil qo'ygan hamda uni qadrlagan Farg'ona davlat pedagogika institutiga ishga qaytdi va bir necha yil kafedra mudiri, fakultet dekani lavozimlarida ishladi.

Azim Rahimov qat'iy reja asosida ishlardi. Buning natijasi o'laroq, 70-yillardan boshlab vaqtli matbuotda qator-qator maqolalari, nashriyotlarda esa kitoblari chiqqa boshladи. Olimning «Milliy adabiyotlar ravnaqi» (1981), «Odamda olam tashvishi» (1982), «Zamin va zamon sadolari» (1985), «Hayot haqiqatini izlab» (1989), «Romanning tarxi» (1989), «Qayta qurish va bugungi adabiy tanqidchilik» (1991) kabi monografiya va risolalari o'zbek adabiyotshunosligining muhim muammolariga bag'ishlangan edi. Bundan tashqari, «O'zbek tili va adabiyoti», «Sharq yulduzi», «Guliston», «Yoshlik», «Fan va turmish» singari nufuzli jurnallar, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «O'zbekiston ovozi», «Turkiston» gazetalarida Azim aka tomonidan e'lon qilingan har bir maqola ilmiy-adabiy jamoatchilikda katta qiziqish va bahs uyg'otardi. 14 jiddlik «O'zbekiston ensiklopediyasi»da A.Rahimovning adabiyotshunostlikka oid 30 ga yaqin maqolalari e'lon qilingan. O'zbekiston FAning Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti jamoasi tomonidan rus tilida tayyorlangan 5 tomlik «O'zbek adabiyoti» kitobining 4-5-jiddidan o'rinn olgan, 70-80-yillar roman janri taraqqiyotiga bag'ishlangan yirik maqola ham (72-119-betlar) A.Rahimov tomonidan yozilgan (T., «Fan», 1994).

1994-yili A.Rahimov «O'zbek romani poetikasi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Shundan keyin kafedraning ilmiy salohiyatini yanada oshirish choralarini ko'ra boshladи. Kafedrada birinchi bo'lib Azim aka davrida aspirantura ochildi. Iqtidorli yoshlarga rahbarlik qilib, proza poetikasi bo'yicha jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borishni rejalashtirdi. 1996-yilda adabiyot nazariyasi muammolariga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil qildi. «Adabiyot nazariyasi» fani bo'yicha o'quv dasturi va darslik tayyorlashga kirishdi. Bu xayrlı ishga butun kafedra a'zolarini ham jalb etdi. Ammo yurak xuruji tufayli 1997-yil 9-sentabr kuni to'satdan vafot etdi.

Azimjon Rahimov yaxshigina shoir ham edi. U asosan, sonet va

g'azallar yozardi. Farg'onalik ijodkorlarning «Go'zal bir dunyo» nomli bayozida uning bir necha sonetlari, viloyat gazetasida esa talay g'azallari bosilgan. Domla «Azim» taxallusi bilan she'rilar bitardi. Bu so'zning ma'nosini qo'shiqqa aylanib ketgan bir g'azalining quyidagi bandida shunday izohlagan edi:

*Azim – buyuk demak so 'z, lekin buyuk emasman,
Ishqim buyukligi rost, firoq jafosidanmu?*

Ilmga, so'z san'atiga, oilasi va do'stlariga ishqni buyuk bo'lган ustozimizning barhayot ruhi asarlarida, she'rlerida jaranglab, bizga hamroh bo'layotganligi rost bo'lsin!



CHIROG'I O'CHMAYDIGAN XONA

(1937)



Komiljon Jo'rayev 1937-yil 18-sentabrda Ho'qandi latifga tutashib ketgan Dang'ara tumanidagi Ganjiravon qishlog'ida bog'bon oilasida dunyoga keldi. Uning ijodi 13-14 yoshlaridan boshlandi. U ayniqsa, mumtoz she'riyat namunalarini alohida mehr bilan mutolaa qilar, ulardag'i ohang, ravonlik va tartib ko'proq mahliyo qilardi. O'qituvchilardan bu ohanrabolikning sirlarini so'rар, biroq har doim ham qoniqarli javob ola bilmas, o'qib-o'rganay desa, ilmiy adabiyotlar topilmasdi. O'zining bu ichki ehtiyojini qondirish niyatida Qo'qon shahrida yashovchi ko'plab havaskorlarning boshini qovushtirib, ijod sirlarini o'rgatayotgan Charxiy domla huzuriga yo'l oldi. Mashhur shoiring to'garagida Komiljon Jo'ra o'zini qiziqtirgan ko'plab savollarga javob topa oldi.

Komil Jo'ra 1960-yilda Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi. 1965-yilda institutni muvaffaqiyatli tamomlagan K.Jo'rayev qishlog'iga qaytib, mакtabda o'qituvchilik qila boshladi. Ammo kundakun ora shaharga qatnab, ustozi Charxiyni ziyorat qilar, yozganlarini ko'rsatib, uning maslahatini olib turishni kanda qilmasdi. Shogirdining cheksiz sadoqati va intilishini ko'rgan Charxiy domla uni O'zbekiston xalq shoirlari G'afur G'ulom, Sobir Abdulla, Mirtemir, adabiyotshunos olim Sodirxon Erkinovlar bilan tanishtirdi. Bu tanishuv yosh shoirga ham ilhom, ham g'ayratu ishtiyoy bag'ishladi. 1971-yilda S.Abdulla bir turkum g'azallarini ko'zdan kechirib, Komil Jo'raga oq yo'l tiladi. Unda ustozi shoir «istarasi issiq, yorug' chehra, muloyim so'z, pahlavon jussa bu yigit»ning kelajagiga ishonch bildirib, oxirida quyidagi to'rtlikni ilova qilgandi:

*Yozibsан har g'azal bir imtihondir,
G'azal muxlislari ko'nglini qondir.
Bosishni tark etma, oldinga intil,
Desunlar: she'riyat ganji ravondir!*

Shundan so'ng K.Jo'ra she'rlari respublika matbuoti va bayozlarida ham ko'rina boshladi. 1977-yilda «Yoshlik» almanaxining 2-sonida uning bir necha g'azallari chop etildi. Shoir g'azallariga bastalangan qo'shiqlar respublika radio va televideniyesida yangrab, har bir xonadonga kirib bordi.

Komil Jo'ra ko'p yillar maktabda, keyin tuman va viloyat gazetalarida ishladi. Mana, bir necha yildirki, Qo'qon shahridagi Muqimiy uy-muzeyida xizmat qilyapti. U yerda ustozи yoqqan chiroq shogirdi qo'lida porillab turibdi.

Komil Jo'ra nihoyatda sabr-bardoshli, o'z ustida ko'p ishlaydigan shoir. Uning ijod qilayotganiga 50 yildan oshgan bo'lsa-da, avvalo, yozganlarini darhol chiqarishni emas, balki ularga qayta-qayta sayqal berishni afzal ko'radi. U asosan mumtoz she'riyatning g'azal, muxammas, murabba', masnaviy kabi janrlarida ijod qiladi. Garchi vaqtli matbuotda she'rlari uzlusiz bosilib turgan bo'lsa-da, uning ijod namunalari mustaqillikdan keyingina o'quvchilar qo'liga kitob shaklida tegdi. Shoirning «Sarvinozim» deb nomlangan birinchi to'plami 1995-yilda «Farg'ona» nashriyotida chop etildi va u o'quvchilar tomonidan iliq kutib olindi. Bundan ilhomlangan shoir ko'p yillar ustozи Charxiy singari devon tuzishga kirishdi. Nihoyat, 2002-yilda bu orzusiga erishib, muxlislariga «Muhabbat gulshani» devonini tuhsa qildi. Ushbu majmuada adabiyotshunos R.Tojiboyev qayd qilganidek, mumtoz she'riyatimizda mavjud bo'lgan devon tuzish an'analariga birmuncha rioya qilingan. Bu an'anaga ko'ra, devonda, avvalo, g'azal, undan keyin muxammas, musaddas, musamman, mustahzod, so'ngra, ruboij, tuyuq, chiston, qit'a, fard kabi janrlar tartib bilan joylashtirilgan. G'azallarning alifbo asosida berilishi ham devon talablariga mosdir. Devondan mumtoz Sharq she'riyatining 12 janrida yozilgan kattakichik asarlar o'rinni olgani.

«Muhabbat gulshani» devoni o'ziga xos debocha bilan boshlanadi. Unda shoir qo'liga kichkina soz tutqazgan, nurli peshonasini silab, mehru-muhabbat bilan parvozga shaylagan ustozlariga ta'zim bajo keltiradi. She'rlarining elga manzur bo'lishini tilab, ulardan madad so'raydi.

2002-yilda Komil Jo'raning «Oq o'rik qo'shig'i» dostoni, Ganjiravoni taxallusi bilan 2013-yilda «Donoligingni aytay» deb nomlangan saylanmasi nashr etildi. Unda o'quvchiga ma'qul bo'ladigan

muhim yangilik Qo'qon adabiy muhitining yirik bilimdoni, tazkiranavis olim Po'lajton Qayumovning hozircha nashr qilinmagan «Tazkira va tarix daftari» kitobidan olingan Komil Jo'ra haqida aytilgan quyidagi fikrdir: «Bu shoir domullo Charxiy Ho'qandiyning talabalaridan biri bo'lib, umidlidur. Ijodidan ko'rinishicha, kelajakda shuhrat egasi bo'lishi ayon bo'lmoqdadur. Bu o'zbek shoiri Ho'qand shahridan 2 kilometrgina shimolda, Kichik Ganjiravon nomli qishloqchadandur. Dehqon oilasida 1937-yil sentabrida dunyoga kelmishdur. 1956-yilda 10-kilosni tugatmishlar. Nomi Komiljon bo'lub, Jo'raboy Shohmurodovning o'g'lidur. Tuman suv bo'limida xizmatdadur. Ota-onasi hayotdur. Shoir o'z nomi bo'l mish «Komil» so'zini ixtiyor etmishdur». Shundan so'ng shoirning bir muxammasi keltiriladi.

Biz yuqorida shoirning she'riyatga ixlos bilan qarashini, ijodni muqaddas deb bilishini ta'kidlagan edik. Uning ushbu «Saylanma»ga bosh so'z qilib olingan mana bu misralari fikrimizni to'la isbotlaydi:

Meni qaritding-u qarimagine sen...

Loqayd eshigiga darimagine sen.

Har qachon e'zoz top, aylab barhayot,

Do'st ko'ngil mehridan arimagine sen.



NON HIDI ANQIGAN SHE'RLAR

(1938-2014)

Shoir O'rmon Omonov «Onam yopgan non» (1980) deb atalgan ilk she'riy to'plami va keyinroq «Billur jilg'alar» deb atalgan bayozga (1985) kiritilgan 12 ta she'ri hamda «To'rtliklar»i bilan 80-yillar she'riyatiga o'ziga xos ovoz bilan kirib kelgan edi. Shu boisdan shoir To'lqin uning ilk to'plamiga yozgan so'zboshisida O'rmon Omonov «o'z dilnavolarining nonday e'zozli bo'lishini istaydi. Buning uchun u timmay izlanadi, intiladi. Yangi obrazlar, yangi o'xshatishlar topishga harakat qiladi», deb istak bildirgan edi.



Yarim asrdan ortiqroq qalam tebratgan O'rmon Omonov ijodning past-baland, qing'ir-qiyishi, tikoni va zahmatli yo'llarini bosib o'tdi. Shoir ijodda o'zining bundan chorak asr muqaddam aytgan quyidagi ahd-paymoniga sodiq qoldi:

*Sharqonadir shaklu shamoyil,
Gadosiman bor ezgulikning.
Qorishsam-da zamonga moyil.
Yo'qotmasman aslo o'zimni.*

Uchko'priq tumanidagi G'onchi qishlog'ida 1936-yilning kuzida dunyoga kelgan O'rmonjon Omonov o'rta maktabni bitirib, ko'p yillar jamoa xo'jaligida brigada hisobchisi bo'lib ishladi. 1960-1965-yillarda Qo'qon davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetida o'qidi. Uni tamomlagandan keyin Uchko'priq tumanidagi maktablarda o'qituvchi, ilmiy mudir, direktor, xalq ta'limi boshqarmasining yo'riq-chisi lavozimlarida ishladi. Jamoa xo'jaligida ishlab yurgan paytlarida yoq turli mavzularda yozilgan maqola, lavha, ocherk va she'rlari bilan tuman, Qo'qon shahar va viloyat gazetalarida qatnashib turardi. Bora-bora uning ijod namunalari respublika matbuoti sahifalarida ham bosila boshlandi. Shuning uchun O'rmon Omonovni 1971-yilda Uchko'priq tumanining «Yangi Farg'ona» gazetasiga ishga taklif qildilar. Sakkiz yil shu dargohda qalamini charxladi. Keyin O'rmonjon jurnalistlik faoliyatini viloyat gazetasida davom ettirdi (1979-1982). O'zbekiston

yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lgach (1983), O'rmon Omonovni viloyat bo'limining adabiyotni targ'ibot qilish byurosiga boshliq qilib tayinladilar. Keyin qishlog'iga qaytib, nafaqaga chiqqunga qadar yana maktabda yosh avlodga saboq berdi.

O'rmon Omon 1994-yilda hajviy she'rlardan tashkil topgan «Qo'qon qahqahalari» to'plamini nashr ettirdi. 2000-yilda esa «O'zbekkinam» majmuasini e'lon qildi. Bu to'plamda muallif «Ikki daryo aro tog'dek ustivor, odamiylik podshohi», boshqa millatlarga bag'ri keng, chin do'st-yor bo'lgan o'zbek xalqining fazilatlarini ulug'laydi. Vatanni oq sut bergen onadek e'zozlashni so'raydi. O'g'liga esa quyidagicha vasiyat qiladi:

Vatan oq sut berib boqqan onadir;

U ko'kdagi quyosh, oy yagonadir.

Kimki yuz o'girsa undan tonadir,

Yerdagi Olloking – Vatan topilmas.

2004-yilda «Men yuz qizga oshiqman» to'plami nashrdan chiqdi. O'zining aytishicha, «Kaklik» deb atalgan kitobini nashriyotga topshirdi. U hozirgacha 4 ta drama ham yozgan. Ulardan «Xotinlar bilan hazillashmang!» deb atalgan pyesasi Qo'qon shahar va Qashqadaryo viloyati teatrlarida sahnalashtirilgan. Qolgan 3 tasi navbat kutib turibdi.

Keyingi yillarda keksaligi tufayli O'.Omonovning badiiy ijodga qiziqishi biroz so'nganligi sezildi. Chunki u so'nggi o'n yillikda biron ta ham kitob chiqarmadi. Biroq biz shoirning bunday loqaydlikdan voz kechib, o'zi bir paytlar:

Qalamim, qo'nmasin loqaydlik gardi,

Qalbimning qat-qatin quduqdayin qaz.

Yurakni o'rtaydi dunyoning dardi,

Yuragim yonmoqda, yuragimni yoz!

degan ahdiga sodiq qolgan holda yangi she'rlar yaratishiga umid qilib qolamiz. Yana bir umid shundaki, o'g'li Ilhomjon ota qalamini qo'lga oldi. Ilhom O'rmon (Omonov)ning bolalarga bag'ishlangan «Qaldirg'och qo'shig'i» («Namangan» nashriyoti, 2012), she'rlar hamda rivoyat-dostondan iborat «Ming yil yashar edim» («Namangan» nashriyoti, 2013) nomli kitoblari O'rmon Omonovning ijodiy niyatlar amalga oshayotganini ko'rsatadi. Ammo bevaqt o'lim katta niyatlar bilan yashayotgan shoirni oramizdan olib ketdi. O'rmon Omonov 2014-yilning 20-noyabrida vafot etdi.

DARDNI YENGILLATGAN QALAM

(1939-1992)



Shokirxon Hakimov atigi 53 yil umr ko'rdi. U 1939-yilning 13-noyabrida Quva shahrining Laylakuya mahallasida Mulla Kalonxon to'ra oilasida dunyoga keldi. Bu oila sohiblari shariat qonun-qoidalarini mukammal bilgan bilimdon zotlar sifatida butun vodiya tanilgan edilar. Bobolari hoji Hakimxon to'ra jahongashta sayyoq bo'lib, yetti marta Ka'batulloni ziyyarat qilgan, Turkiya, Afg'oniston, Eron, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlar hamda Qozon, Orenburg shaharlariga sayohat qilgan tabarruk inson bo'lgan ekan. U kishi arab, fors, ingliz, rus, tatar tillarini ham yaxshi bilgan.

Ana shunday mo'tabar oilada voyaga yetgan Shokirxon o'rta maktabni tamomlagach, shifokor bo'lishni orzu qiladi. Tibbiyat bilim yurtini tamomlab, turman shifoxonasida 9 yil feldsher bo'lib ishlaydi. Yaxshi oilaning farzandi sifatida bemorlarga igna va dori bilan birga, shirin so'zi hamda xush muomalasi bilan ham shifo baxsh etdi.

Ammo o'zi 30 yoshida bedavo kasallikka uchrab, avval oyoqlari, bora-bora ikkala qo'li ham ishdan chiqди. Biroq bu kasallik Shokirxonni jisman yenggan bo'lsa-da, ruhan va ma'nан yenga olmadi. Miyasi fikrlashdan, o'ylashdan, qo'li esa ishdan chiqquncha qalam tebratishdan tinmadi. Shokirxon Hakimov ijodi ana shu dardga chalingandan keyin, aniqrog'i, o'tgan asrnинг 80-yillaridan boshlandi.

Uning dardini yengillatishga eng avvalo qalam ko'makka keldi. Bu haqda xasta ijodkorni har doim qo'llab-quvvatlab kelgan O'zbekiston xalq yozuvchisi Ibrohim Rahim shunday yozgan edi: «Shokirxonning ijodi – o'ziga xos jasorat mevasi. Xastalikka mutbalbo'lib, oyoqlari ishlamay bir joyda o'tirib qolgan Shokirxon tushkunlikka tushmadni, hayotdan o'ziga munosib o'rinn topishga, jamiyatning faol kishisi bo'lishga intildi. U tinmay mutolaa qildi. Sharq shoirlarining asarlarini o'rgandi. Uning g'azallari insoniylikni sharaflaydi, halol mehnat va mehru muhabbatni ulug'laydi, armon va orzularni kuylab, do'stlik va

samimiylilikka chorlaydi».

«Shokirxonning dastlabki yozgan mashqlari xiyla bo'sh edi, – deydi u bilan ko'p muloqotda bo'lган Y.Sulaymon. – Yozganlari o'ziga ham yoqmasdi shekilli, ba'zan ranjib qolardi. Shunda uning ko'nglini ko'tarardik, kitoblar oborib berardik. Aytganimizni qilib juda ko'p o'qidi, tinimsiz mashq qildi. Ayniqsa, Navoiy, Mashrab, Amiriy, Muqimiy, Nodira, Habibiy, Charxiy, Chustiy kabi shoirlarning asarlari uning jon-dili edi. Ulardan o'rganishi tufayli qisqa muddatda Shokirxonning she'rlariga shira kirib qoldi».

Shunday qilib, Shokirxon Hakimov o'tgan asrning 80-yillari o'rtalarida diltortar g'azalxon shoir sifatida tilga tushdi. Xushovoz xonandalar uning g'azallarini siyohi qurimasdanoq olib ketishar, havaskor qalamkashlar unga shogirdlikka kelishib saboq olishar, atrofdagi maktablarning o'quvchilari ham o'z hamqishloqlaridan teztez she'r eshitgani kelishardi. Uni Toshkentdan izlab keladiganlar ham ko'paydi. Ayniqsa, hamyurti I.Rahim Quvaga har kelganida shoir holidan xabar olar, uning she'rлarini nashr qilish yo'llarini izlab, ko'nglini ko'tarardi. Shokirxon Hakimovning nomi nafaqat tuman va viloyat, balki respublika matbuoti sahifalarida ham tez-tez ko'rindigan bo'lib qoldi.

Shoirning ilk she'rлari 1987-yilda «Oltin belanchak» deb atalgan almanaxda bosildi. Unga Shokirxon Hakimovning 11 ta g'azali kiritilgandi. Oradan ko'p o'tmay, 1990-yilda uning «Visol» deb nomlangan kitobi O'zbekiston xalq yozuvchisi Ibrohim Rahimning «Irodali inson, zahmatkash shoir» sarlavhali so'zboshisi bilan G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etildi. Bu to'plamdan shoirning 139 g'azali, 9 muxammasi o'rin olgan edi. Bir yildan keyin esa unga yana 25 ta yangi g'azali qo'shilib, «Hilol» nomi bilan qayta nashr qilindi. Ketma-ket dunyo yuzini ko'rgan bu to'plamlar shoirga yanada ko'proq ilhom va kuch bag'ishladi.

Buning ustiga, 1992-yilning yanvar oyida Respublika yozuvchilar uyushmasining raisi Odil Yoqubov va Ibrohim Rahimlar boshchiligidagi bir guruh adiblar kelishib, ko'chma yig'ilishda Shokirxon Hakimiyni uyushma a'zoligiga qabul qilingani bilan qutlashib, guvohnomani topshirib ketdilar. Shoirning yana bir ezgu tilagi amalga oshdi. Shuning uchun ham qisqa muddatda yana 60 ta g'azal, 9 ta muxammas, bitta

doston yozishga ulgurdi. Chunki shifokor sifatida ham, ulug' zotlar sulolasining vakili sifatida ham o'zining umr shami so'nib borayotganini yaxshi bilgan shoir ichki bir savqi tabiiy kuch bilan shoshildi.

Shoирning umr yo'ldoshi Rohilatxon ayaning aytishlaricha, vafotidan uch-to'rt oy avval qizlari Mavrudaxon bilan Xonazimxonlar dadasi aytgan baytlarni daftarga tushirishga ulgurishmasdi. U hamma narsadan she'r qidirar, ko'ziga ko'ringan har bir buyumni kemtik taqdiriga taqqoslaydigan bo'lib qolgandi.

«Bir kuni yotar paytimizda chiroq o'chirilgandan keyin xonaning yorug'ligini his qilibmi, «Poshshoxon, tashqari oydinmi, deyman», deb qoldilar, – deb eslaydi aya. – «Ha, oy rosa to'lgan, oppoq oydin kunlar», dedim. Shu payt u kishi to'xtamasdan:

To'lin oy chiqdi ko'klarga, mening ko'nglim yarim qoldi,

Vale ko'ngli to'lib ketgan yorug' dunyoda kim qoldi...

deya o'qiy boshladilar. Darrov qizlarni chaqirdim. Xonazimxon xizmatga shay edi. Birpasda besh baytlik g'azal dunyoga keldi».

1992-yilning 26-oktabrida Quva xalqi o'zining otashnafas shoiri, matonatli farzandini so'nggi yo'lga uzatdi. Quva faryod chekdi, Farg'ona yig 'ladi. Chunki:

Falak osmonidan bir yulduzi nuri jahon ketdi,

Ko'ngillar mulkin obod etguvchi durfishon ketdi.

O'g'il-qiz, do'stlarin tashlab, o'zi tuproq tomon ketdi.

Hakimiydan bo'lib meros qolar o'tli navo endi.

Navosiz shoiri davron – g'azalxon, alvido endi.

(Zuhra Aliyeva)

Shoir o'zining og'ir dard bilan olishib yurib, ko'pi bilan 13 yil ichida yozgan 18 ta muxammasi, 243 ta g'azali va «O'tmishdan sado» nomli dostonini o'z ichiga olgan «Umrim devoni» (1994) kitobini ko'rolmay ketdi. Bu devonga muharrirlik qilgan shoir Jonibek Subxon Shokirxon Hakimi shaxsi va ijodi to'g'risida muhabbatli so'zboshi yozdi. Unda shoir «ruhan hayot» bo'lib, o'z she'rlari bilan zamondoshlarini «ezgu ishlarga, xayrli amallarga da'vat» etayotganini ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, Shokirxon Hakimov Farg'ona shoirlari davrasida qo'r to'kib o'tiribdi va ularning ovoziga jo'r bo'lyapti:

Shokirni so'rsalar, shahrini Quva denglar.

Vatanim deb, heqiyos Farg'ona yashab keldim...

TABIAT MUSAVVIRI

(1939)

Qo‘qonlik lirik shoir Anvar Yunusov 1939-yilning 6-dekabrida Yangi Chorsu dahasida tug‘ilib, voyaga yetdi. 1955-yilda 8-maktabning 7-sinfini bitirib, Qo‘qon avtoyo‘l texnikumiga o‘qishga kirdi. Ota-onasi 11 farzand ko‘rishgan bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligi go‘dakligida, 3 nafar navqiron o‘g‘li esa Ikkinchiji jahon urushi janggohlarida o‘lim topdilar. O‘n birinchi farzand bo‘lib dunyoga kelgan Anvarjon oilaning yagona tayanchi, quvonchi va boquvchisi bo‘lib qolgandi. Buning ustiga otasi Yunusjon Aminov olamdan o‘tgan, onasi Tojibibi Ismoilxon qizi xiyla keksayib, kuchdan qolgandi.



Texnik-mexanik mutaxassisiligini egallagan A. Yunusov 1959-yilda yo‘llanma bilan Sirdaryo viloyatiga ishga yuborildi. U yerda yangi tashkil etilgan 72-avtosaroyda dastlab mexanik, keyin saroy mudiri, bosh muhandis lavozimlarida ishladi. Yosh bo‘lishiga qaramay, Anvarjon avtosaroyni yangi kadrlar bilan ta’minlashda alohida tashabbus ko‘rsatdi. Ataylab Qo‘qonga kelib, bu yerdagi qo‘lida hunari bor (payvandlovchi, elektrik) tanish-bilishlari, do‘sstarini Mirzacho‘lga olib ketdi. Uning tashabbusi bilan avtosaroyda haydovchilar, slesarlar, payvandchilar tayyorlaydigan kurslar ochildi. Ularga malakali bilimlar berish uchun Toshkent avtomobil yo‘llari institutidan o‘qituvchilarni darsga taklif etdi. Ish yurishib ketdi. Qisqa muddatda 72-avtosaroy viloyatdagidagi eng ilg‘or xo‘jaliklardan biriga aylandi.

1961-yildan Qo‘qonga qaytgan A. Yunusov Dang‘ara tumanining Sirdaryo qирғоғига joylashgan Oqjar qishlog‘idagi 18-maktabda ishlab chiqarish bo‘yicha direktor o‘rinbosari bo‘lib ishlay boshladи. She’riyatga ixlos Anvarjonning qalbiga ona suti bilan kirgandi. Sut bilan kirgan ishq jon bilan chiqadi, deydilar. Uning ijodi o‘quvchilik yillarda boshlandi. Keyin texnikumda o‘qib yurgan paytida shahar «Mehnat bayrog‘i» gazetasining muharriri, shoir N.A. Lukashov tashkil etgan «Nihol» adabiy to‘garagiga qatnashdi. She’rlari birin-ketin gazetalarda

bosila boshlandi. Toshkent avtomobil yo'llari institutida sirtdan o'qib yurgan 1968-1973-yillarda E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, J.Kamol, R.Parfi, M.Jalil singari o'ziga xos ovozga ega bo'lgan shoirlar bilan do'stlashgan va respublika matbuotida ham ko'p chiqa boshlagan edi.

Shu boisdan Anvarjon mansablardan ham, farovon hayotdan ham ijod iztiroblarini afzal ko'rdi. 1979-yilda viloyat «Kommuna» (hozirgi «Farg'ona haqiqati») gazetasiga ishga o'tdi. Bu paytda A.Yunusov ehtirosli lirk shoir sifatida xiyla tanilib qolgan, «Yoshlik» almanaxining shu yili chiqqan 6-kitobida bir necha she'rlari bosilgan edi. Mana, yarim asrdan oshibdiki, A.Yunusovning faoliyati bevosita ijodiy jarayon bilan bog'liq. Gazetaga ishga kelgach, oradan ko'p o'tmay uning birinchi she'rlar to'plami «Mening qora ko'zligim» (1982) bosilib chiqdi. Bu to'plam shoirning o'z ijodiy yo'lini belgilab olganligini ko'rsatdi. Adabiy tanqidchilik uning she'rlari to'g'risida ijobiy fikrlar bildirdi. Bu paytgacha ham Anvarjonning talay she'rlari «Guldasta» (1972), «Billur jilg'alar» (1975), «Yoshlik» (1979) bayozlarida nashr qilingan edi. 1985-yili esa hammualliflikda «Oq lola» kitobi bosildi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga a'zo qilib olingach (1983), A.Yunusov viloyat bo'limining badiiy adabiyotni targ'ibot qilish byurosiga ishga o'tdi. Keyin pensiyaga chiqqunga qadar yozuvchilar uyushmasining Qo'qon shahar filialini boshqardi.

Shoir Anvar Yunus she'riyatga tabiat musavviri sifatida kirib keldi. Ijodiy an'analarimizga nazar tashlasak, haqiqiy ijodkorning tabiat bilan suhbatlasha olish, uni tushunish, dov-daraxtlaru qushlar va qumursqalar arzi-holini, nola-afg'onlarini tinglay olish qobiliyatiga egaligining guvohi bo'lamic. A.Yunusov she'rlarini o'qib ham shunday xulosaga kelish mumkin. U tabiatni, tabiat esa uni tushunadi, ular bir-birini to'la his qila oladilar. Shoir har bir she'rida tabiat go'zalligini quyuq va turfa ranglarda chizadi. Bunga ishonch hosil qilish uchun shoirning «Farg'onada kuz», «Shohimardonda kuz», «Oqtoshda tog' sayri», «Qaydasan, navbahorim» kabi she'rlarini o'qish kifoya. Anvar Yunus o'ta nozik tabiatli shoir bo'lib, har bir narsaga kuchli ehtiros va nazokat bilan yondashishini, hatto bulbullar bilan ham til topisha olganini quyidagi she'ri ham isbotlab turibdi:

*Seni sevishimni bulbulga aytdim.
Bulbul bulbullarga yoyib yubordi.*

*Xayolkash chamanda kezarkansan jim,
Ular tongda senga yolvorib bordi.*

Keyingi yillarda lirik shoir Anvar Yunus o‘z iqtidorini turli janrlar va shakllarda ham sinab ko‘rmoqda. Uning ijodidan G‘arb adabiyotiga xos sonetlardan tortib, buyuk Sharq she’riyatining o‘lmas janrlari hisoblangan g‘azal, muxammas, masnaviy, ruboilyar, tarjimalar ham keng o‘rin olmoqda. Shoiring 1997-yili chop etilgan kattagina «Seni sog‘inaman» to‘plamidagi 80 dan ortiq she’rning 10 tasi to‘rtlik, 32 tasi g‘azallar, 4 tasi tarjima asarlardan iborat. Keyingi paytda esa u asosan g‘azal va muxammaslar yozmoqda. «Bir hovuch dur» (2008), «Uyg‘oq dunyo» (2010) kabi to‘plamlaridan o‘rin olgan asarlarning rang-barang janrlarga mansubligi fikrimizni isbotlaydi.

Anvar Yunus so‘nggi yillarda ko‘plab hajviy she’rlar ham yozyapti. Shoир ijodida namoyon bo‘lgan bu hodisa aslo tasodify emas. Aslida u mansub bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhitida azaldan lirik va hajviy yo‘nalish yonma-yon rivojlanib kelgan. Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy, Sobir Abdulla, Charxiy, Javdat Abdulla kabilarning ijodi buni tasdiqlaydi. Chunki hazil-mutoyibaga moyillik, askiyaga ishqibozlik, kamchiliklarga murosasizlik, illatlarga nafrat qo‘qonliklar tabiatida har doim yashovchan xususiyat bo‘lib kelgan. Bunday fazilatdan Anvarjon ham chetda qolgan emas. Uning «Uyg‘oq dunyo» kitobidan o‘rin olgan «Hajv daftaridan» bo‘limidagi she’rlar bunga misol bo‘la oladi.

Biz bilgan ehtirosli lirik shoir Anvar Yunusovning his-tuyg‘ulari ayni chog‘da ham daryodek jo‘shib, fikrlari meva tugishga mushtoq daraxt singari gullab turibdi. Zero, yozmoq «mening qalbimdagи uyg‘oq g‘alayon»dir. «Vijdon azobidir mening she’rlarim» degan yuksak e’tiqod kamarini beliga mahkam bog‘lab ijod qilayotgan shoirimizdan hali ko‘p asarlar kutishga haqlimiz. Chunki uning o‘zi niyat qilganidek, bundan buyon ham «Anvaring bog‘larda guldin she’r kitobin (ko‘p) yozadir».

TONG VA QALAM SHAYDOSI

(1940)



Malika Mirzayeva 1940-yil 7-iyulda Farg'ona shahri yaqinidagi Oqariq qishlog'ida tug'ildi. 1958-yilda shu qishloqdagi 35-maktabni tamomlab, Mirzo Ulugbek nomidagi Farg'ona davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetiga o'qishga kirdi. Uni bitirgach, 1963-yildan boshlab viloyat «Kommuna» (hozirgi «Farg'ona haqiqati») gazetasida adabiy xodim bo'lib ishlay boshladи. Avvalo, muallima onasi Fozilabonu Shokirjon qizining ta'siri, keyin maktab va oliy o'quv yurtidagi ustozlarining ko'magi bilan Malikaxon she'ru qalamga oshno tutindi.

Aslida ilk she'rlari o'quvchilik paytidayoq tuman va viloyat gazetalarida chiqa boshlagan Malikaxon talabalik yillarida qulochini keng yoyib, respublika matbuotida ko'rina boshladи. Uning she'rlari Turob To'la, Zulfiya singari ustozlar nazariga tushdi. 1960-yilda respublika yosh ijodkorlar seminarida qatnashib, Zulfiya opaning oq fotihasini olishga sazovor bo'ldi. 1964-yilda nashr qilingan «To'yona» almanaxida Malikaxonning ikkita she'ri e'lon qilindi.

Tez orada Malika Mirzayevaning namanganlik shoira Sanobar Hasanova bilan hammualliflikda «Vodiy qo'shiqlari» nomli birinchi she'rlar to'plami bosilib chiqdi (1967). Unda shoiramizning 18 ta she'ri va «Do'stlik qo'shiqlari» deb atalgan turkumi o'rinni olgandi. Ana shu ilk to'plamdayoq M.Mirzayeva o'zining ijodiy yo'lini aniq belgilab oldi: shoira she'rlariga ajratilgan bo'limga «Onalar uyg'oq» deb sarlavha qo'yilgan edi. Bu mavzu Malika ijodini hanuzgacha tark etgani yo'q. Shoira har doim onalarning oila va jamiyat tinchligi, farovonligi oldidagi burchini, mas'uliyatini hormay-tolmay kuylab kelayotir. Uning ijodidagi ona obrazi hanuzgacha «Farzandlar oromin buza olur kim, Mendek uyg'oq ekan onalar hali!» deya baralla hayqirib turibdi.

Shundan keyingi yillarda shoiraning birin-ketin «Dilxiroy» (1975), «Saodatim» (1980), «Tong va qalam» (1982) deb atalgan she'riy majmualari, «So'nggi fojia» (1975), «Oqbuloq parizodi» (1980) kabi

dramalari yaratildi va el og‘ziga tushdi. 1978-yilda Malika Mirzayeva O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zoligiga qabul qilindi va viloyat bo‘limiga mas’ul kotib etib tayinlandi. Endi uning faoliyati bevosita badiiy ijod bilan bog‘landi. Faqat o‘zining emas, balki o‘nlab ijod ahlining ertangi kuni, taqdirlari zimmasiga tushdi.

Malika Mirzayeva o‘zbek she’riyati bog‘iga o‘zi tug‘ilib o‘sgan, voyaga yetgan ona yurti qo‘shiqlarini kuylab kirib keldi. Shu bilan shoira ijodida yurt madhi ilk ijodiy qadamlaridan boshlab asosiy mavzuga aylandi. Bora-bora dil tubiga qadalgan sevgi urug‘i unib, o‘sib, voyaga yetib, totli mevalar berguvchi Vatan muhabbatni nomli ulkan daraxtga aylandi. Shoiraning ilk she’rlaridan biri «Vatan madhi»dan olingan mana bu misralar hozir ham o‘z kuchini yo‘qotgan emas:

Har ne istagim muhayyo etgan

Sen, ona yerim, sen – mehri quyosh.

Amringga shayman ko ‘z yunganda ham

Seni madh etib ko ‘tarurman bosh!

Shoira to‘plamlariga kirgan barcha she’rlarida vatanparvarlik tuyg‘ularining yangi qirralari ko‘zga yaqqol tashlanadi. Zero, ijodkor uchun «Shu Vatandan farovoni yo‘q», shunday ekan, uni ko‘z qorachig‘idek asrash va bir umr uning muhabbatini baland pardalarda kuylash ijodkor mas’uliyatini yanada kuchaytiradi. Bu muhabbatning izhori shoira she’rlarida turli usullar va obrazlar orqali bayon qilinmoqda. Malikaxon, avvalo, tongni qalam bilan bedor kutib olishni odat qilgan shoiralalar xilidan. Uning 1985-yilda e’lon qilingan to‘plami bejiz «Tong va qalam» deb atalmagan. Agar tong shoira she’rlarida tiniqlik, poklik va bokiralik ramzi sifatida namoyon bo‘lsa, qalam hayotiy manzaralar, sukunat va ranglarni tilga kirituvchi shifobaxsh tig‘dir. Shuning uchun ham shoira qalam bilan tunu kun hamroh tutingan, undan bir zum ham ajralishni istamaydi. Chunki ijodkor uchun hayot «qo‘shiq va qalamdan iborat»dir. Tong va qalam shaydosi bo‘lgan shoiramizning ehtirosli tuyg‘ularidan nurga yo‘g‘rilgan yangi qo‘shiqlar paydo bo‘ladi. Bu qo‘shiqlarning ipaklari quyosh nurlaridan to‘qilgan, satrlariga esa oyning suratlari naqshlangandir.

1991-yildayoq nafaqaga chiqib, shirindan shakar nevaralar qurshovida barakali ijod qilayotgan Malika Mirzo qizi hanuz qizg‘in

adabiy davralarning, she'riyat kechalarining peshqadami, havaskor qalamkashlarning maslahatgo'yи bo'lib yuribdi. Ana shunday faolligi va badiiy ijodda erishgan yutuqlari uchun 2000-yilda hukumatimizning «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi. Ayni chog'da shoiraning ijodi yetuklik fasliga kirdi. Malika Mirzayeva 2005-yildan buyon ham g'oyat samarali ijod qilmoqda. Bu davrda uning hikoyalar, hajviyalar, intermediyalar va dramadan iborat «Asaldan chiqqan asar» («Farg'ona», 2008), «Umrim yog'dulari» (T., «Akademnashr», 2011) deb nomlangan tanlangan she'rlari hamda yangi ijodi namunalaridan tarkib topgan «Ko'shkimdagi oy», «Umid manzaralari» (ikkovi ham T., «Muharrir», 2013) kabi kitoblari bosilib chiqdi. Bu asarlar tinib-tinchimas ijodkor Malika Mirzo qizining o'quvchilari va xalqi oldidagi ma'naviy qarzini uzish ishtiyoyqida barakali ijod qilayotganidan darak beradi.



SAN'ATXONNING SAN'ATI



Men San'atxon va uning umr yo'ldoshi Bekmirza Mahmudovlar bilan viloyat gazetasini tahririyatida bundan qariyb yarim asr oldin tanishganman. Odadta, gazetaga ishga yangi kelganlarni bosh muharrir Abdulla aka dastlab Sherali Toshmatov, Narimon Erkinov qo'liga topshirib «sinab» ko'rardi. Chunki ularning ikkisi ham maqola tayyorlash, uni tahrir qilishda o'ta «injiq» bo'lim mudirlari hisoblanib, chidagan xodim qisqa muddatda qalami o'tkir jurnalist bo'lib chiqardi. San'atxon Sherali aka mudir bo'lgan qishloq xo'jaligi bo'limiga ishga qabul qilindi.

San'atxonning eslashicha, Sh.Toshmatov uning birinchi maqolasini «quyuq qoshlarini chimirib, diqqat bilan o'qiy boshladи. Yo'l-yo'lakay jumlalar, so'zlar qo'shar, yuzi goh yorishib, goh tundlashar edi». Keyin ma'qul bo'ldi shekilli, imzo qo'ydi-da, unga qarab: «Endi hech qalamni qo'ldan qo'y mang, qizim! Qo'rqish, tortinish kerakmas. Ko'nglingizdagini qog'ozga tushiravering. Faqat dangasalik qilmang. Jurnalist chaqqon, ziyrak bo'lishi kerak», – dedi. Bu jurnalistikaga hayotini bag'ishlagan yosh mutaxassisning oliy o'quv yurtidagi ustozlaridan so'ng ish faoliyatida olgan ilk sabog'i bo'ldi. Chindan ham uning maslahatiga amal qilgan San'atxon tinmay ishladi. Tez orada o'zining pishiq-puxta va dolzarb mavzulardagi maqolalari, lavha hamda ocherklari bilan San'at Mahmudova respublikaga tanilib qoldi. «Saodat» jurnalining bosh muharriri atoqli shoira Zulfiya atay sim qoqib, ishga taklif qildi. Zulfiya opaning taklifi unga qanot bag'ishladi va umr yo'ldoshi bilan maslahatlashib, Toshkentga jo'nashga qaror qildilar. Toshkentga ko'chib kelib, 1967-yilning 2-avgustida suyukli «Saodat» jurnalida ish boshladи.

Darvoqe, San'atxonning tarjimai holi bitilgan daftarida 2-avgust muhim sahifalarni tashkil etuvchi qutlug' sana hisoblanadi. Birinchisi, u 1940-yilning 2-avgust kuni Toshkentning Qibray tumanida tug'ildi. Ikkinchidan, o'ninchini bitirib, 1958-yil 2-avgustda (1-avgust

yakshanba edi) Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetiga inshodan bo'lgan dastlabki kirish imtihonini «a'llo»ga topshirdi va birinchilar qatorida talabalikka qabul qilindi. Uchinchisi, 1963-yilning 2-avgustidan Farg'ona viloyatining «Kommuna» gazetasi tahririyatida mehnat faoliyatini boshladi. To'rtinchidan, 1967-yilning 2-avgusti uning ko'pdan orzu qilgan «Saodat» jurnalida ish boshlagan qutlug' kuni bo'ldi. Beshinchisi, 2002-yil avgust oyida 60 yoshga to'lishi hamda mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning sadoqatli va mehnatkash xalqini ulug'lashdagi samarali va faol xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan adiba San'at Mahmudova «Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlandi. Va oltinchisi, 2012-yil 2-avgust kuni Makkai Mukarramada «muqaddas Ka'ba devorini bag'riga bosib», ziyorat qilish baxtiga tuyassar bo'ldi.

1971-yilda «Farg'ona dilbari» nomli birinchi kitobi bosilib chiqdi. Endi San'atxon o'z kuchini badiiy adabiyotning hikoya va qissa janrlarida ham sinab ko'ra boshladi. 70-yillarda «Huri chevar» sarlavhali hikoyasi «Sovet O'zbekistoni» (hozirgi «O'zbekiston ovozi») gazetasi e'lon qilgan ko'rik-tanlovda g'olib deb topildi. Shundan so'ng u hikoyachilikda yanada samaraliroq ijod qila boshladi. 1974-yilda «Mehr kimga atalgan?» nomli hikoyalari to'plami nashr etildi. 1983-yilda «Baxtli qizlar», 1985-yilda B.Mahmudov bilan hamkorlikda «Chillaki tog'a» nomli hikoyalari to'plamlari bosmadan chiqdi. Shundan so'ng bu faol adibani 1985-yilda taniqli yozuvchilar Mirmuhsin, I.Rahim, X.Ahrorovalar tavsiyasi bilan O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi ham o'z safiga qo'shib oldi (135-guvohnoma).

San'at Mahmudova o'zining bor qobiliyatini, butun ijodiy kuchini ayol zotini ulug'lashga, ko'proq uning jamiyat va oiladagi o'rnnini, dardi va kechinmalarini qalamga olishga sarflamdi. Dastlab «Guliston» jurnalining bosh muharriri yozuvchi Asqad Muxtorning taklifi bilan O'zbekiston kitob savdosi birlashmasi boshlig'i, akademik shoir G.G'ulomning singlisi Bahri G'ulomovaga bag'ishlangan ocherkini, keyin esa «Bahri opamiz» deb atalgan risolasini yaratdi (1975). Shundan so'ng birinchi o'zbek geolog ayoli Mahfuza Saydaliyeva hayoti va faoliyatini o'rganishga kirishdi. Olima bilan ko'p suhbatlashdi, u tavsiya qilgan kitoblarni o'qidi. Farg'ona vodiysi tog'larida, qir-adirlarida, daryo bo'yalarida bir necha yillar izlanishlar olib borib, 7-8 ming metr

chuqurlikda neft va gaz zahiralari borligini ilmiy va amaliy tomonidan isbotlab bera olgan bu zahmatkash olim haqida dastlab «Qalbingni tinglayman, Ona yer» nomli ocherkini («Saodat» jurnali, 1971-yil aprel soni), 1979-yilda «Xazina topgan ayol» nomli kitobini e'lon qildi.

Hozirgacha San'atxon Mahmudovaning 20 ga yaqin kitoblari nashr etildi. Ularning aksariyati ocherk, shuningdek, hikoya, novella, mansura, qissa janrlarida yaratilgan. Bu asarlari orasida ayniqsa, aniq hujjatlar va faktlarga tayangan holda yozilgan avtobiografik xarakterdagи «Men ko'rgan odamlar» («Farg'ona» nashriyoti, 2005) hamda «E'tiqod, sen haqqiqatsan» (T., «Turon-zamin ziyo» nashriyoti, 2013) nomli kitoblari xarakterlidir. Chunki ularda adibaning butun ijodiga xos fazilat-faqat ezgulik, o'zi ko'rgan, bilgan yaxshi odamlar hayoti, qalbini bezovta qilayotgan muammolar haqida hikoya qilinadi. Ularni mutolaa qilgan o'quvchi hayotda shunaqa yaxshi odamlar borligidan quvonadi, o'zi ham o'shalardek bo'lishga intiladi. Ulug' san'atkorlar Sora Eshonto'rayeva, Tamaraxonim, qo'qonlik tadbirkor Nurulloxon Abdullayev, ko'plab hamqishloqlarini qo'llab-quvvatlagan, o'nlab qurilishlarga, bayramlaru ko'rik-tanlovlarga beminnat homiylik qilgan quvalik zahmatkash savdo xodimi Ibrohimjon Karimov, el salomatligi yo'lida mehr-muhabbat bilan beg'araz xizmat qilgan shifokor Mirzaali Ahrorovlarga bag'ishlangan ko'plab badia-ocherkleri o'quvchilarga manzur bo'ldi. Uning hujjatli qissalari orasida ayniqsa, o'ttiz yildan ziyod yonma-yon ishlab, hamnafas bo'lgan ustoz O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonimga bag'ishlangan «Vijdon tarozusi» qissasi («O'zbekiston» nashriyoti, 1990) o'zining samimiy, mehr-muhabbat tuyg'ulariga boyligi bilan ajralib turadi.



ULUG'LARNI E'ZOZLAB



Saydali Odilov 1941-yil 28-dekabrda Uchko'prik tumanidagi Pirtak qishlog'ida tug'ildi. Sayyidlar avlodiga mansub bo'lgan bu oilaning sohibi Odilxon aka xalq orasida «Eshon» deb e'zozlanardi. Keksa jurnalist Ma'ruf Nazarovning ma'lumot berishicha, Eshon aka, boobro' din peshvosi bo'lish bilan birga, g'oyat zukko askiyachi sifatida ham mashhur bo'lganlar. Ana shunday oilada voyaga yetgan Saydali juda yoshligidan kitobga oshno bo'lib o'sdi. O'rta mакtabni tamomlab, Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutiga o'qishga kirdi.

Institutni imtiyozli diplom bilan tamomlagan Saydali Odilov 1963-1967-yillarda Uchko'prik tumanidagi «Yangi Farg'on'a» gazetasi muharriyatida adabiy xodim bo'lib ish boshladi. Bu yerda tajribali jurnalist Mahkam Nazarov, ehtirosli shoir va tarjimon Qodir Dehqonovlardan ko'p narsa o'rgandi, qalami charxlandi. U qisqa muddatda o'zining dolzarb mavzudagi lavha hamda ocherklari bilan viloyat va respublika matbuotida faol qatnasha boshladi.

Qalami o'tkir va hozirjavob jurnalist sifatida tanilib qolgan Saydali Odilovni 1967-yilda viloyat gazetasi tahririyatiga taklif etishdi. Bu erda uning ijodi yanada kamolga etdi. U gazeta topshirig'i bilan qayerga borsa, o'sha yerdagi xalq xo'jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan zamondoshlarining faoliyati bilan yaqindan tanishdi va ularni el ko'ziga ko'rsatishni niyat qildi. Bu ijodiy istak va harakatning samarasi o'laroq 1975-yilda Saydali Odilovning «Nigohlar» deb nomlangan birinchi kitobi bosilib chiqdi.

Saydali gazeta muharriyatida 16 yil xizmat qildi, o'zining ishchanligi, kamtarligi, intizomliligi bilan obro' topdi. Gazetaning oddiy adabiy xodimligidan bo'lim mudirligigacha, musahhihlilikdan mas'ul kotiblikkacha bo'lgan murakkab jarayonni bosib o'tdi. Bu orada bilimini yanada oshirish maqsadida Toshkent xalq xo'jaligi institutini sirdan o'qib tamomladi. 1986-yilda S.Odilov viloyat madaniyat ishlari boshqarmasining boshlig'i lavozimiga o'tkazildi va 13 yil ana shu

vazifani ado etdi. So'ng bir necha yil Y.Shakarjonov nomidagi viloyat teatrida direktor bo'lib ishladi. Hozir esa ana shu san'at dargohida ababiy maslahatchi.

Haqiqiy ijodkor qayerda, qanday lavoziunda ishlamasin, hech qachon qalamini tashlab qo'ymaydi. Saydali ham ana shu fazilatdan mosuvo emas. Uning 1977-yilda «Xayol va hayot», 1979-yilda «Dala malikasi» singari kitoblari chop etildi. 1983- yilda Farg'onada o'tkazilgan O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining sayyor yig'ilishida Saydali Odilov uyushma a'zoligiga qabul qilindi. Bu e'tirof unga g'ayrat va ilhom bag'ishladi. 1987-yilda «Yolqin», 1991-yilda «Murosasizlar» deb nomlangan qissa va hikoyalar to'plamlari e'lon qilindi.

Shuningdek, ko'pchilik mualliflarning ijod namunalaridan tashkil topgan «To'yona», «Yettinchi dovon», «Farg'ona ohanglari» nomli bayozlarda ham S.Odilovning bir necha ocherk, hikoya va she'rlari o'rinni oлган. Keyingi yillarda Saydali Odilov o'z qalamini dramaturgiya janrida ham sinab ko'ryapti. Ayniqsa, viloyat teatri jamoasi bilan hamkorlikda ishlashi adabiyotning bu murakkab turida ko'plab sahna asarlari yozishiga imkoniyat yaratdi. «Turmush chorrahalarida» (2000), «Bir nikoh fojiasi» (I.Tursunov bilan hamkorlikda, 2002-yil), «Yurakdag'i faryod» (2007), «Tuban choh» (2008) singari fojeiy dramalari, «Bahromning og'riqlari», «Marg'ilon yo'llarida» singari komediyalari respublika hamda viloyat teatrlerida muvaffaqiyatli namoyish etildi. Ularning har birida shu kunning dolzarb muammolari, bozor iqtisodiyoti qiyinchiliklariga bardosh berolmay to'g'ri yo'ldan adashayotgan shaxslar, pul, boylik to'playman deb baxtsizlik girdobiga botayotganlar, narkomanlik balosiga uchrab, umrini boy berayotgan yoshlar fojiasi ifodalangan. Shu boisdan ular tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi.

Saydali Odilovning O'zbekiston xalq shoiri Oxunjon Hakimov bilan hammualliflikda Farg'ona neftni qayta ishlash jamoasining fidokorona mehnatini yoritishga bag'ishlangan «Qirdagi pahlavon» nomli ocherklar kitobi 2009-yilda bosilib chiqdi (T., «Yangi asr avlodи»).

Yozuvchining «Ustozlarga ehtirom» deb atalgan navbatdagi kitobi («Farg'ona» nashriyoti, 2015) ham hanuzgacha ulug'larni ulug'lab kelayotganiga yana bir dalildir. Saydali dastlabki ijodi qadamlaridan boshlab, ezgu amallari bilan tariximizda yaxshi nom qoldirgan, har

qanday sharoitda ham elu yurtga yaxshilik qila olgan odamlar haqida hikoya qilishni o'zining ijodiy-estetik taimoyiliga aylantirgan edi. Ushbu asari ham yozuvchining hayot yo'lida ko'p uchragan, umri kitobida yaxshi sahifalar ochgan aziz insonlar to'g'risidagi shirin xotiralari hamda «Boshqacha odamlar» nomli kinossenariyni o'z ichiga olgan. Unda muallif O'zbekiston xalq shoiri Charxiy, akademik G'afur G'ulom, o'zini yaxshi odamlarning quli deb bilgan xokisor shoir Yo'ldosh Sulaymon, jurnalist Mahkam Nazarovlarning har birini ustoz sifatida mehr bilan tilga oladi.

Saydali Odilov ulug'larni e'zozlab, ijodning murakkab yo'lidan dadil ilgarı borayotgan taniqli qalamkashlardan biridir.



YASHILLIK SALTANATINING SHAYDOSI



Mansurxo'ja Xo'jayev 1942-yilning 15-fevralida Qo'qon shahridagi To'laboy mahallasida o'ziga to'q bilimdon oilada tug'ildi. O'rta maktabni tamomlab, Toshkent moliya institutiga o'qishga kirdi va uni 1964-yilda muvaffaqiyatli tamomlagach, o'sha paytdagi Pop (tuman Farg'ona viloyati tarkibida edi) – hozirgi Dang'ara tumanidagi davlat xo'jaligida muhandis bo'lib ishlay boshladi. Tez orada g'ayratli, tashabbuskor kadr sifatida tanildi va 1966-yildan ikki yilgina tuman yoshlari qo'mitasida kotib bo'lib ishladi-yu, keyin Farg'ona viloyat yoshlari qo'mitasiga ishga o'tdi.

1987-yildan boshlab u Qo'qon davlat o'rmon xo'jaligini qabul qilib oldi va chorak asrdan buyon bu sohani rivojlantirish, iqtisodiy qudratini yanada oshirish, yangi yerlar hisobiga kengaytirish ustida tashabbus ko'rsatib ishlab kelayotir. Hozir uning rahbarligidagi o'rmon xo'jaligi mamlakat miqyosida yetishtirilayotgan yog'och mahsulotining 25 foizini yetishtirib bermoqda. O'rmonchilik sohasidan davlat xazinasiga tushayotgan umumiy daromadning 16 foizi ana shu xo'jalik hisobiga to'g'ri keladi. Toshloq yerlarda pista yetishtirishni birinchi bo'lib amalga oshirgani, yog'och mahsulotlarini mo'l-ko'l yetkazib berayotgani, umuman, o'rmonchilik sohasini jiddiy rivojlantirib, rentabelli sohaga aylantirgani uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maxsus xat yo'llab, xo'jalik jamoasiga minnatdorchilik izhor etdi. Xo'jalik rahbari M.Xo'jayev esa dastlab «Shuhrat» medali, keyinroq «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlandi.

Mansurxo'ja Xo'jayev yashillik olamini faqat amaliy jihatdan ko'paytirib qolish bilan cheklanmay, uning foydali tomonlarini ilmiy asosda isbotlash, yashillik sultanatining go'zalligini badiiy bo'yoqlarda aks ettirish borasida ham talay xayrli ishlarni ado etmoqda. Ustoz O.Sharafiddinov ta'riflaganlaridek, «Mansurxo'ja nafaqat o'rmonchilik borasida yaxshi ishlari qilyapti. U ayni paytda shu ishlarni kitob qilib, xalqqa ziyo ham ulashmoqda. Mansurxo'ja durustgina shoir, essenavisi,

hikoyanavis»dir. Biz 2007-yilda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilingan (guvohnoma №874) Mansurxo'ja Xo'jayev faoliyatining ana shu qirrasini yoritishga qaror qildik. Yozuvchining «Yashilik sultanati», «Yashil olam tilsimlari», «O'rmonnoma», «Yer osti tilsimoti» singari asarlari o'quvchiga bevosita tabiatni asrash, uni yanada rivojlantirish, unumli foydalanish borasida ham ko'plab ilmiy ma'lumotlar beradi, ham badiiy zavq bag'ishlaydi. Tabiatga muhabbat uyg'otish niyatida yozuvchi rivoyatlar, afsonalar, hikoyatlardan ham unumli foydalanadi. Shuningdek, badiiy adabiyotning allegorik xususiyatidan samarali foydalangan holda hayvonlar va daraxtlarga so'zlash imkoniyatini yaratadi. Masalan, yo'lbars Turonbekning o'zi va oilasi taqdiri haqidagi ayanchli hikoyasi o'quvchiga qattiq ta'sir qiladi.

Shu bilan birga, u jahongashta inson sifatida ko'plab Sharq va G'arb mamlakatlariga sayohat qildi. Turkiya, Xitoy, Yaponiya, Vietnam, Amerika, Isroil yurtlariga qilgan safar taassurotlari «Turkiya bo'ylab», «Buyuk Xitoy devori yonida», «Biz bilgan va bilmagan Yaponiya», «Vietnam: kecha va bugun» singari kitob hamda maqolalarida qiziqarli ifodalangan. Shunisi muhimki, muallif ularda o'sha mamlakat go'zalligi, aholining turmush darajasini o'zimizning mustaqil yurtimiz darajasi bilan taqqoslaydi va qisqa muddatda ayrim sohalarda ulardan o'zib ketganimizni aniq faktlar bilan isbotlab quvonadi.

Bunday quvonch va iftixor tuyg'usi Mansurxo'ja Xo'jayevni o'tgan asrning 20-yillarida Turkiston milliy ozodligi uchun kurashgan vatanparvar va millatparvar ajdodlarimiz obrazini yaratishga undadi. Bu jihatdan adibning tarixda uzoq yillar «Ko'rshermat» nomi bilan kansitilgan Shermuhammad qo'rbosehiga bag'ishlangan tarixiy romani xarakterlidir. Mustaqilligimiz sharofati bilan bunday kishilarga munosabatning o'zgarishidan ilhomlangan M.Xo'jayev avvalo, xalqimizning milliy-ozodlik yillardagi tarixini chuqur o'rgandi. Shermuhammadbekning avlodlarini topib, ulardan tegishli ma'lumotlar oldi va mavzuni tarixiy nuqtai nazardan haqqoniy yoritishga erishdi. Shuning uchun ham Turkistondagi milliy-ozodlik harakati bo'yicha yetuk mutaxassis, professor R.Shamsutdinov yozuvchi asarda Shermuhammadbek qo'rboishi hayoti va faoliyatiga daxldor «voqealarning asl mohiyati keng va atroficha yoritilgan»ligini ta'kidlaydi. Adibning «Qadrnomma», «Adolatga bag'ishlangan umr»

singari axloqiy mavzudagi risolalari ham o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldirdi. Mansurxo'janing qiziqish doirasi xiyla keng ekanligi uning «Aytmay deyman-u bo'lgan voqealar-da...» («Sharq» NMAK, 2013) nomli navbatdagi kitobida ayon bo'ldi. Kitobga «Kulgi sog'inchi» sarlavhali so'zboshi yozgan O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon «goh mo'jizakor tabiat, goh tarixiy mavzularda asarlar yozib yurgan, shaxsi va ijodi haqida Ozod Sharafiddinov, O'tkir Hoshimovlardek zotlar maqolalar bitib, iliq so'zlar aytgan bu qalamkash» kishilar orasida ro'y bergen kulgili voqealarni to'plash, saralash va yoza olish qobiliyatiga ham ega ekanligini xursandchilik bilan ta'kidlaydi. Adibning «Tilsimotli Dang'ara» deb atalgan navbatdagi kitobi ham o'quvchilar tomonidan iliq kutib olindi.

Mansurxo'ja Xo'jayev yashash, mehnat qilish, o'zidan yaxshi nom va kalom qoldirish, odamlarning ko'nglini olish hayotining mazmuni ekanligini quyidagi misralarida aniq ifodalagan:

*Umid bilan kelajakka boq,
Sen o'tmishdan ibrat ol doim.
So'zing bo'lzin quyoshdek porloq,
Ko'ksingga nur solsin Xudoyim.*

*Yoqib qo'ygin o'tar yo'lingga
Buyuklarning chiroqlarini.
Zar yig'magin, to'pla ko'nglingga
Donolarning saboqlarini.*

Mansurxo'ja umr bo'yi o'zining shu ahdiga loyiq bo'lib yashab kelayotir.



YANGILIK YARATISH YO'LIDA

(1944-2007)



Habibullo Saidg'aniyev 1944-yil 10-dekabrda Qo'qon shahrining Shayxulislom guzarida tavallud topdi. Otasi Saidg'ani qori Buxoro madrasasida ta'lif olgan, Qur'oni Karimni to'la yod bilgan, Jomiy, Bedil singari faylasuf shoirlarni o'qib, tahlil qila oladigan zot edi. Habibullo shahardagi mashhur 3-maktabni tamomlab, 1962-yilda Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi.

Habib 5-6-sinfdan boshlab badiiy adabiyotga juda qiziqsa boshlagan edi. U ijod sirlarini o'rganish niyatida maktab va shahar kutubxonasidagi barcha o'zbekcha kitoblarni o'qib bo'lgach, kutubxonachining taklifi bilan ruscha asarlarni o'qishga kirishdi. Yuqori sinflarda o'qib yurgan paytlaridayoq Pushkin, Lermontov, Gorkiy, Pasternak, Mayakovskiyalar ijodi bilan tanishdi.

1967-yilda institutni tamomlagan Habibullo 10 yilga yaqin shahardagi 18-19-maktablarda o'qituvchilik qildi. 1976-yildan Qo'qon shahar sanoat-savdo boshqarmasiga muhandis bo'lib ishga kirdi. Bu sohaning sir-asrorini chuqurroq o'rganish niyatida 1979-yilda Toshkent xalq xo'jaligi institutining savdo iqtisodiyoti fakultetiga sirdan o'qishga kirdi. 1985-yildan boshlab, shahar uy-joy xo'jaligi boshqarmasida yetakchi iqtisodchi-mutaxassis bo'lib ishlay boshladи. 1990-1996-yillarda esa Qo'qon shahar maxsus xizmat ko'rsatish boshqarmasining boshlig'i, 2001-yilgacha shahar savdo-xarid korxonasi boshlig'i, dehqon bozori raisining o'rinnbosari vazifalarida xizmat qildi. 2001-yildan Qo'qon yog'moy hissadorlik jamiyatida iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchi va rais o'rinnbosari bo'lib ishladi.

Habibullo o'tgan asrning 70-yillaridayoq o'ziga xos ovozga ega shoir sifatida tanilib qolgandi. U she'riyatda iloji boricha boshqacha yo'ldan borishga intildi. O'ta jo'n hodisalarni soddagina usulda ifodalash orqali

katta falsafiy mushohadalarni bayon qilishga urindi. Masalan, uning o'sha paytda e'lon qilingan «Suhbatdan» she'rini olib ko'raylik:

- *Ota-onang tirikmi, Xidirvoy?*
- *Yurishibdi tuproqdan tashqari.*
- *Bola-chaqang?*
- *Sog'-salomat.*
- *Vafodormi xotining?*
- *Shubham yo'q.*
- *Omonmi yurting?*
- *Ming qatla shukur.*
- *Bo 'Imasa ...*

Nega ichasan,

Xumpar?

Nihoyatda jo'n (shoirning o'zi buni «primitiv» deb atadi), oddiy muloqot asosiga qurilgan bu she'r obrazlilik, ramziylik, badiiylikdan mutlaqo xoli. Ammo yurakni larzaga soladigan mazmunga, xulosaga ega. Savollarning salmog'i tobora ortib boradi. Javoblar ham shunga yarasha. Lekin oxirgi savolga Xidirvoy javob berolmaydi. Zero, buning keragi ham yo'q. Javobni o'quvchining yuragidan izlash lozim. Shoirning 12 misradan iborat «It haqida doston» she'ri ham ana shunday taassurot qoldiradi.

Habib Said G'anining birinchi she'rlar to'plami respublika yozuvchilar uyushmasidagi muhokamadan o'tmay, yetti yil qolib ketdi. Nihoyat, 1980-yili «Mening oppoq dalam» kitobchasi dunyo yuzini ko'rdi. Bungacha esa uning «Yoshlik» almanaxlarida, «Guliston», «Yoshlik», «Sharq yulduzi» jurnallarida juda ko'p she'rlari bosilib chiqdi, nomi adabiy tanqidchilik tiliga tushdi. 1983-yilda shoir O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi. Xuddi shu yili Habib Said G'anining «Ovozning shakli», 1986-yilda «Qo'qon ushshog'i» kitoblari nashr qilindi.

Shundan buyon Habib Said G'anini turli yig'inlar, gazeta va jurnallar, mushoiralarda ko'p uchratamiz, taniqli shoir sifatida tan olamiz. Biroq salkam yigirma yillardiki, bironta kitobi chiqqani yo'q. Vaholanki, o'zi allaqachonlar:

*Faqat shoir bilmas neligin orom,
Yuragiga cho'kar ko'r gan-kechgani.
Oppoq qog'ozlarga quyilar xayol...*

deb yozgan bo'lsa-da, yurak va xayol mahsulini kitob shaklida ko'madik.

Bu yillarda u asosan Alisher Navoiyning fors tilida yaratilgan lirik asarlarini tarjima qilish bilan shug'ullandi. Dastlabki namunaları «Sharq yulduzi», «Yoshlik» jurnallari, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi sahifalarida e'lon qilindi. Navoiyshunos olimlar, tajribali tarjimonlar bu g'azallar asliyatdagi mohiyatiga yaqinligini, ulardagı vazn, ritm, radif singari badiiy tasvir vositalari to'g'ri saqlab qolninganligini qayd etdilar. Nihoyat, 2006-yilda o'zbek tilidagi «Devoni Foni» o'quvchilar qo'liga tegdi («Yangi asr avlodı» nashriyoti).

Habib Said G'anining ijodiy niyatları ko'p edi. Ammo shafqatsiz o'lim ularning amalga oshishiga yo'l qo'ymadı. Shoir 2007-yil 28-aprelda 63 yoshida olamdan o'tdi.



NURLI YO'L QIDIRIB...

(1946-2011)



Filologiya fanlari nomzodi (1994), O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining a'zosi (1995), taniqli xonanda, ko'p yillar Farg'ona viloyati matbuot boshqarmasining boshlig'i bo'lib ishlagan, keyin bir necha yil «Farg'ona» nashriyotini olib, ko'plab yaxshi kitoblarni xalqqa tuhfa qilgan Tilavoldi Saidovich Jo'rayev 1946-yilning 10-mayida Yozyovon tumaniga qarashli Bo'tqachi qishlog'ida oddiy dehqon oilasida tug'ildi. 1963-yilda qishlog'idagi 8-o'rta maktabni tamomlab, Farg'ona pedagogika institutining chet tillar fakultetiga hujjat topshirdi.

O'sha yili institutda yangi ochilgan bu fakultetga Tilavoldiga o'xshash iqtidorli yoshlar ko'plab kerak edi. U ingлиз tili mutaxassisligini tanladi va institutni imtiyozli diplom bilan bitirdi. Talabalik yillardayoq ingliz tilidan bevosita tarjima qilishga kirishdi, ko'p mutolaa qildi, o'rgandi. Shuning uchun bu tirishqoq yigitni ingliz tili kafedrasida ishga olib goldilar.

Tilavoldi Jo'rayev 27 yil (1968-1995) mobaynida ana shu kafedrada ishlab, talabalarga ingliz tili va adabiyotidan dars berdi, ilmiy izlanishlar olib bordi. Akademik S.Mamajonov rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi (1994). Talabalik yillardidan boshlab mustaqil ravishda tor chalishni o'rganib qo'shiqlar aytdi va bu sohada ham shuhrat qozondi. Yozuvchi sifatida Tilavoldining ijodi xiyla kech boshlandi. O'zining aytishicha, u 1988-yilning mart oyida bir kuni uyda ertalab ishga ketishga tayyorlanayotib, to'satdan «O'chmaydigan traktor» deb atalgan hikoya yozish istagi tug'iladi va tik turgan holda qalam bilan stol ustidagi qog'ozga yoza boshlaydi. Kechqurun ishdan qaytgach, uni yana bir o'qidi, tahrir qildi. Keyin bir chetga tashlab qo'ydi. Hikoyani bir necha oygacha qo'liga olmadi. Qo'liga olsa, xuddi «yuz ifodasi ko'p o'zgarmaydigan, gapida umuman zavq yo'q, hayotdan allaqachon bezganga o'xshaydi»gan o'sha yigitning dardi qalbiga iztirob bergandek tuyulaverdi. Chunki unda tasvirlangan voqeа

Tilavoldiga tanish va g'oyat ta'sirli edi. Gap shundaki, institutdan paxta terimiga chiqqanlarida aynan traktorchi Ahmadjonning shunday ayanchli taqdiriga duch kelgan, «yoshini aniqlash qiyin» bo'lgan bu yigitning «g'am-g'ussasi» yozuvchiga tinchlik bermay qo'ygandi. Oxiri bo'lmasdi. Uch-to'rt oydan keyin hikoyani yana bir ko'zdan kechirdi, tahrir qildi. So'ng mashinkalangan nusxasini zukko adabiyotshunos olim Azimjon Rahimovga olib borib berdi.

Hikoya viloyat gazetasining 1988-yil 16-iyuldaggi 138-sonida A.Rahimovning «Oq yo'l» bilan bosilib chiqdi. Keyin 1989-yil boshlarida «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida e'lon qilindi. Bu hikoyaning muvaffaqiyatidan ruhlangan Tilavoldi Jo'rayev astoydil ijodiy ishga kirishdi. Qisqa muddatda 17 ta hikoyani o'z ichiga olgan «Qishloqliklar» nomli birinchi to'plami nashr qilindi (1993). Kitobga «Zulmat ichida nur» sarlavhali so'nggi so'z yozgan akademik S.Mamajonov yosh adib «insonning murakkab qalbini o'rganishga, ruhiy dunyosi, kechinmalari suratini va tashqi qiyofasini ishonarli, hayotiy va jozibali qilib tasvirlashga intilishi menda uning qalamiga umid va ishonch bilan qarash tuyg'usini uyg'otdi» deydi.

Shunday qilib, adabiy jamoatchilikka T.Jo'rayev yozuvchi sifatida tanildi. 2000-yilda uning «Yaxshi hammaga kerak» degan qissasi nashr qilindi. 2004-yilda esa «Sharq» nashriyoti adibning «Arvoohlар тunda izg'iydi» nomli romanini bosib chiqardi. Yozuvchi asarlarida o'zi yaxshi bilgan va mukammal o'rgangan G'arb adabiyotining ijobiy ta'siri kuchli seziladi. Ammo yozuvchi voqelik va qahramonlar tasvirida milliylik qobig'idan chiqmaslikka intiladi. Bu xususiyat, ayniqsa, adib romanlarida yaqqol seziladi.

Tilavoldi Jo'rayev 1999-yilda jahonga mashhur Chimyon sanatoriysi tarixi va suvining shifobaxsh fazilatlari to'g'risida hikoya qiluvchi «O'zbekiston Matsestasi» deb nomlangan ommabop risolasini, 2002-yilda esa «Nurli yo'l» deb atalgan publitsistik asarini e'lon qildi. U tarjimon sifatida ham samarali ishladi. Bevosita ingliz tilidan o'girgan G.Uellsning «Doktor Moro oroli», K.Grexemning «Hammamiz ham darbadar» qissasi, shuningdek, E.Xeminguey, J.Joys, U.Saroyan, E.Mpaxele, Borxes, Fuentes singari jahon tan olgan adiblarning asarlari T.Jo'rayev tarjimasi orqali o'zbek kitobxonlarining sevimli kitobiga aylanib qoldi.

Tilavoldi Jo'rayev adabiyotshunos sifatida ham yaxshi tanilgan. Olimning «Jeyms Joys» (1993) risolasi, «Ong oqimi va tasviriylik» (1994), «Modern. Ong oqimi» («Farg'ona», 2010) nomli monografiyalari fanning muhim muammolarini tahlil etishga bag'ishlanganligi bilan e'tiborlidir. U 12 novelladan iborat «Asr tuqqan odamlar», «Bozor dunyo» deb atalgan ikkinchi romanini nashr ettirdi. Bu asar o'quvchilarga ma'qul bo'lganligidan «Sharq» NMAK bir necha marta qayta bosib chiqardi. Chunki unda bozor iqtisodiyoti davrida insonning o'ziga yo'l topishi, or-nomus, halollik hamisha uni nurli manzilga eltishi real obrazlar orqali ishonarli ko'rsatilgan edi.

Adibning ijodiy rejalari juda katta edi. Og'ir xastaligiga qaramay, hayoti va ijodining mazmuniga aylanishini kutayotgan «Rahmon» romani uchun material to'plab yozishga kirishgan edi. Bu asar ham, tugallanay deb qolgan «Darbadarning qaytishi» deb nomlangan navbatdagi romani ham qo'lyozma holida yozuv stolida qoldi. Shafqatsiz o'lim 2011-yilning 10-noyabrida sadoqatli do'st va sermahsul adib Tilavoldi Jo'rayevni oramizdan olib ketdi.



BIR JOYDA KO'KARGAN DARAXT



O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi (1995), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (2009), mohir rejissyor va taniqli san'atkor Azimjon Azizov 1946-yil 18-iyunda Qo'qon shahrida tavallud topdi. Hovlisi shahardagi musiqali drama teatriga yaqin bo'lganligidan har kuni uning atrofida girdikapalak bo'lib, ichkariga kirkisi kelar, tashqarida yurgan artistlarga havas va umid bilan qarardi. Ular bilan ishlashni, birga bo'lishni orzu qilardi. Oxiri yo'li topildi. 13 yoshida teatrga bosh rassom yordamchisi bo'lib ishga kirdi. O'zi ta'lim olayotgan 8-maktabda darslar tugashi bilanoq teatrga chopar, sahnalashtirilayotgan asar mazmunini aniq aks ettiradigan manzaralar va ranglar tanlash ustida soatlab bosh qotirardi. Yosh bo'lishiga qaramay, pyesani o'qib, uning mohiyatiga mos sahna ko'rinishlari tayyorlashga kirishdi va asta-sekin jamoa orasida obro' qozondi. Kasbiga shu qadar mehr qo'ygan ediki, 7-sinfni bitirib, o'qishini kechki 2-ishchi-yoshlar maktabida davom ettirdi.

1966-yilda o'ninchisinfni bitirgach, O'zbekiston xalq artisti Zanjirali Mirzatov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'atkor Hojiquarbon Nazarovlarning taklifi bilan Azimjon Azizov Toshkent teatr va rassomchilik institutining drama va kino aktyori fakultetiga hujjat topshirdi. Yigitlik umrining yetti yilini teatr sahnasida o'tkazganligi unga qo'l keldi. U fakultetga birinchilar qatorida qabul qilindi. Respublikaning nufuzli san'at dargohi hisoblangan bu o'quv yurtida Azimjon O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Mahkam Muhamedov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi A.Ismoilov singari aloqli san'atkorlardan saboq oldi. Bu yerda o'rganganlarini tezroq o'z teatrida qo'llash istagida Azimjon 1972-yili institutni tamomlab, ona shahri Qo'qonga qaytdi. Uning jonajon teatr jamoasi bilan sahnaga qo'ygan «Nodira» nomli ilk dramasi katta shuhrat qozondi. Pyesani Qo'qon tamoshabinlari xayrixohlik bilan kutib oldilar. Chunki Amir Umarxon, Nodirabegim hamda uning avlodи shahar xalqiga yaxshi tanish va qadrdon edi.

55 yil mobaynida Azimjon Azizov Hamza nomidagi musiqali drama teatrida bosh rassom, rejissor, bosh rejissor lavozimlarida ishladi. Bu muddat ichida u yuzga yaqin dramalarni sahnaga qo'ydi, tamoshabinlarga ma'qul qildi. O'zi ham ko'plab rollarni mahorat bilan ijro etdi. Eng muhimmi, turli mavzu va janrlardagi asarlarni sahnalaشتirgan Azimjon o'z ish faoliyatini davomida sahna sirlari bilan chuqur tanishdi. Davr va tamoshabinning ehtiyojini o'rgandi va dramalar yozishga kirishdi.

Azimjon Azizovning «Neyron operatsiyasi» deb atalgan ilk romantik dramasi mavzu va muammoning dolzarbligi bilan 1977-yildan buyon qimmatini yo'qotmay, teatr sahnalari va respublika televideniyesi repertuaridan muqim o'trin olib kelayotir. 1983-yilda yaratilgan «Qilko'priy» nomli dramasi o'sha yili o'tkazilgan ko'rik-tanlovda «Yilning eng yaxshi dramatik asari» deb topildi va rus tiliga tarjima qilinib, boshqa respublikalarda ham namoyish qilindi. Chunki asar ramziy-allegorik timsollar asosiga qurilgan chuqur psixologik drama bo'lib, unda Qonun, Vijdon, O'lim singari obrazlar orqali insonning o'zini o'zi sud qilish jarayoni tasvirlangan edi. Bu muvaffaqiyatlardan ruhlangan dramaturg birin-ketin «Aks sado», «Sehrli ohang», «Qardoshlik gul», «Dilshod botirning jasorati» (bolalarga bag'ishlangan) singari asarlarini yaratdi va o'zi sahnaga qo'ydi. Shu bilan birga yosh tamoshabinlarning ehtiyojini qondirish maqsadida O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor hikoyalari asosida sahnalaشتirilgan «Uch yaproq», allegorik xarakterdagi «O'rmondagi tanlov» nomli kinoyaviy drama, zamonaviy ertak janrida yozilgan «Injiq shahzoda», «Qorqizni qutqaring» nomli zamonaviy sarguzasht pyesalar ham uning qalamiga mansub. So'nggi paytda «Vasiyat» nomli fojiasini yozib tamomladi.

San'atkori sifatida Azimjon faqat sahna asarlari yaratish bilangina cheklanib qolgani yo'q. U talay ehtirosli she'rlar, ko'tarinki publisistik maqolalar muallifi hamdir. Uning she'rlari ham ko'proq san'atkorilik kasbini qadrlash, unga fidoyilik xususiyati ustuvorlik qiladi. U o'z hamkasblarini:

*Aktyorlik o'yindan iborat emas,
Fidoyi bo'lmoqlik kelsin qo'lingdan.
Yo'q ersa, shuhratdan yurmagil sarmast,
Sahnani tark et-u, qolma yo'lingdan
deb ogoblantiradi.*

SHE'RIYATDAN IZLANGAN LAZZAT



*Sensiz daqiqalar zaqqum bir olam,
Sensiz yorug' kunlar qaro bir darddir.
Vatanim, bag'ringda umr ko'rmoq ham,
Qachondir o'lmoq ham men uchun baxtdir.*

Marg'ilonlik taniqli shoir Ismoil Mahmud (Ismoiljon Mirzamahmudov) qalamiga mansub ushbu satrlar bundan chorak asrlar muqaddam yozilgan bo'lsa ham hali-hanuz haroratini yo'qotgan emas. Chunki bu iltijo shoirning qasamyodidek jaranglaydi, shunday yashash va intilish uning hayot tarziga aylangan.

Ismoil Mahmud 1947-yil 20-oktabrda Xitoy bobolari o'tgan asrning 30-yillarida osoyishta hayot izlab, Marg'ilondan viloyatiga o'tib shu yerda qo'nim topgan edilar. Ammo bu yerda hamma narsasi yetarli, uy-joyli bo'lishsa-da, chorak asr mobaynida Vatanni qo'msab yashadilar. Nihoyat, 1955-yilda Marg'ilon shahriga kelib yashay boshladilar. U 1957-yilda Muqimiyl nomidagi 19-maktabning 1-sinfiga kirib, 1967-yilda 10-sinfni 20 yoshida tamomladi. Bir yil shu maktabda yoshlari yetakchisi bo'lib ishladi. 1968-yilda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirdi. 1973-yilda bitirib, Farg'ona viloyatining «Kommuna» (hozirgi «Farg'ona haqiqati») gazetasida adabiy xodim sifatida ish boshlagan.

Ismoiljon o'quvchilik paytlaridayoq she'rlar mashq qila boshlagan edi. Ayniqsa, yuqori sinfda o'qigan paytlarida ona tili va adabiyot o'qituvchisi, shoir Mamadali Umarov unga ustozlik qildi, yosh ijodkorni qo'llab-quvvatlab, ruhlantirib, bilmaganini o'rgatib, she'rlarini tahrir etib, «Marg'ilon haqiqati» gazetasida chiqarishga ko'maklashdi. Toshkent muhiti esa uning ijodga bo'lgan mehri va ixlosini yanada oshirgan edi. Shuning uchun hayot lazzatini she'riyatdan izlagan Ismoil Mahmud 1974-yili yana Toshkentga qaytib ketdi. 12 yil G.G.ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir bo'lib ishladi. Shu davrning ulkan va iste'dodli shoirlari Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali, Jamol Kamol, Rauf Parfi, Omon Matjon kabilalar bilan tanishib, ijod sirlarini o'rgandi.

1979-yilda shoirning ilk kitobi – «Shu’la» bosilib chiqdi. 1983-yilda «Kelajakka ishonib» deb atalgan kitobi nashr qilindi. 1984-yilda Ismoil Mahmud O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga qabul qilindi.

1986-yildan boshlab Ismoil Mahmud respublika yozuvchilar uyushmasining yoshlari ijodi bo‘yicha mas’ul kotibi lavozimida ishlay boshladi. Bu yerda uning ijtimoiy faoliyatini kengayibgina qolmadni, balki ijodiy usqi ham kengaydi. Shoir jahon adabiyotining nodir namunalarini tarjima qilishga kirishdi. Bu bilan ham o‘zbek adabiyotini, ham o‘zining ijodiy laboratoriyasini boyitdi. Bu izlanishlarning natijasi o‘laroq bengal xalqining isyonkor shoiri Nazrul Islomning «Inson», venger adibi Eduard Vovrushkaning «Izquvar Blok» asarlari o‘zbek o‘quvchilari qo‘liga tegdi.

Shoir I.Mahmud 1989-yilda «E’tirof» deb atalgan yangi she’rlar to‘plamini kitobxonlar hukmiga havola etdi. Undagi she’rlarining juda ko‘pchiligi insonning o‘zligini anglashi, botinida uyg‘onayotgan inqilobiy erk ruhining talqini, hamma narsaga erishsa-da, o‘z ko‘z yoshini artishga hanuz qo‘li yetmayotgan shaxs armonlarini ifodalashga bag‘ishlangan. Shoirning tasvirlashicha, hatto Baroq ismli mushuk ham erkinlikni istab «Sakkizinch qavatdan o‘zini otdi yerga!» Umuman, ushbu kitob ijodkorning «uyg‘onish tongi» ekanligi, sahar chog‘idagi toza havo uning ruhiga yangi to‘lqin olib kirganligini isbotladi. Undagi she’rlar o‘z qalbini tinglayotgan, taniyotgan va anglayotgan lirik qahramonning rang-barang his-tuyg‘ularini obrazli ifodalashi bilan oldingi yillardagi she’rlaridan tamomila farq qiladi. Bu, shubhasiz, davrning isyonkor shoirlari Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjonlarning ijodiy ta’siri samarasini edi.

O‘tgan asrning 90-yillarida yana Marg‘ilonga qaytib kelgan I.Mahmud dastlab yangi tashkil etilgan «Farg‘ona» nashriyotida bosh muharrir, viloyat hokimligining maskura bo‘limida bosh mutaxassis, ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limining mas’ul kotibi, 1996-1998-yillarda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Farg‘ona viloyati bo‘limining mas’ul kotibi, xalqaro «Oltin meros» xayriya jamg‘armasi Marg‘ilon shahar bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida ishlagdi. Mana shu jamg‘armada ishlab yurgan yillari I.Mahmud xayrli bir ishga qo‘l urdi: o‘zbek adabiyotining atoqli isyonkor shoirasini Jahon otin Uvaysiy uy-muzeyini tashkil etib, uning qoshida adabiy to‘garak ochdi. Dastlab 7-8 nafar havaskor qalamkash bilan faoliyat boshlagan ushbu to‘garak tez orada Toshloq, Qo‘shtepa, Yozyovon, Oltiariq tumanlaridan kelgan yoshlari hisobiga kengayib ketdi.

Istiqlol tuyg'usi I.Mahmud ijodiga yangi qanot bag'ishladi. U so'nggi yillarda asosan, g'azal janrida ijod qilyapti. Butun hayoti davomida she'riyatdan lazzat izlab, uni misqollab olib, o'zgalar qalbiga singdirish ishtiyogi bilan yashayotgan shoir Ismoil Mahmud 2012-yilda «Saodat manzari» deb atalgan devonini o'quvchilariga hadya etdi («Adib» nashriyoti). Devonga kiritilgan g'azallaridagi qofiya va radiflarning alifbo shaklida tartib berilganligi, shuningdek, taxmis, musaddas, qasida va ruboiylar muallifning devon talablariga birmuncha rioya qilganligidan dalolat beradi. She'riyat muxlislari I.Mahmudning aruzda bitilgan mashqlari bilan avvalroq nashr qilingan «Ishq saodati», «Gulzor qilur» singari to'plamlari orqali tanishgan edilar. «Saodat manzari» devonining ulardan farqi shundaki, unga mumtoz lirikaning besh janrida bitilgan she'rlar kiritilgan. Ularda o'zlikni, milliy qadriyatlarimizni anglash va baland ovozda tarannnum etish, mumtoz ijodkorlar an'anasini davom yettirish va yangilashga intilish istagi ustuvordir. Bu oljanob maqsadni yoshlarga o'rgatish ham I.Mahmudning kundalik vazifasiga aylangan.



ORZULAR QANOTIDA



ishladi.

Bu paytda Matluba Ahmedova ijodkor sifatida xiyla tanilib qolgan, uning she'r va hikoyalari nafaqat gazeta va jurnallarda, balki talay bayozlarda ham bosilib chiqa boshlagan edi. 1983-yili uyushma a'zoligiga qabul qilindi. Shuning uchun u 1984-yilda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limiga adabiy maslahatchi qilib olindi. Bu vazifada Matlubaxon to 1998-yilgacha ishladi. Shu yili bu borada ko'p tajriba ortirganligi inobatga olinib, u uyushmaning mas'ul kotibi lavozimiga o'tkazildi. 2001-yil avgustidan nafaqaga chiqqan M.Ahmedova hozir uy bekasi, ko'plab nabiralar buvisi.

Matlubaning «O'qituvchimga» deb atalgan birinchi she'ri 1963-yilda sobiq «Lenin uchquni» (hozir «Tong yulduzi») gazetasida bosingan edi. O'quvchilik paytidayoq she'rlarini ko'tarib, viloyat gazetasi muharririyatiga tez-tez kelib turardi. Bu erda uni shoir Yo'ldosh Sulaymon har doim iliq kutib olar, unga astoydil yordam berar, ruhlantirardi. Matluba bu bag'ri keng, mehribon, xushchaqchaq, har bir narsadan, har bir kishidan yaxshilik qidiruvchi insонning etagini mahkam tutdi. Yo'ldosh aka unga umrining oxirigacha ustozlik qildi, har bir ijodiy qadamini kuzatib bordi, har qachon, har qayerda qo'llab-quvvatladi.

Hozir Matluba Dehqon qizi ham shoir, ham nosir sifatida ancha tanilib qoldi. Uning 70-yillarda respublika gazeta va jurnallarida bosingan she'r va hikoyalardan tashqari, 1973-yili yosh ijodkorlarning «Guldasta» nomli jamoa to'plamida bir necha she'rlari, «Yoshlik» almanaxining 1977-yili nashr qilingan 3-kitobida «Kelin» nomli

hikoyasi chop etilgandi. Hikoyada uch oylik kelin Halimaning yangi uydagi kechinmalari, qars ikki qo'ldan chiqishi zarurligini anglab yetishi, insoniy izzat-hurmat masalalari ancha ishonarli tasvirlangan.

1992-yilda Matluba Dehqon qizining «Qorachiq» nomli ilk she'rlar to'plami bosilib chiqdi. Adibaning qissa, hikoyalar va qatrалardan iborat «Ko'ngil uyi» (T., «Yozuvchi» nashriyoti, 1999), «Sog'inch» («Farg'ona» nashriyoti, 2001) kabi kitoblari o'quvchilar tomonidan iliq kutib olindi.

2004-yilda uning Farg'ona to'qimachilari hayotiga bag'ishlangan «Muhabbat fasli» romani dunyoga keldi (T., «Zar Qalam» nashriyoti, 2004). Kitobxon bir qarashda asarning nomini o'qib, «ha, to'qimachilik kombinatida ishlaydigan yoshlarning ishq-muhabbat haqida ekan-da», deb o'yashi mumkin. To'g'ri, unda sevgi liniyasi ham yo'q emas. Biroq muallif asosiy e'tiborini Farg'ona to'qimachilik kombinati ishchilarining mustaqillik arafasidagi og'ir mehnatiga qaratadi va «astoydil mehnat qilish – bu muhabbat! Muhabbat bor joyda yuksalish, rivojlanish bo'ladi» degan g'oyani ishonch bilan ilgari suradi.

Matluba Dehqon qizining 2005-yilda nashr qilingan ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi «Sadkak pirim» risolasi uch marta nashr etildi. 2011-yilda marhum umr yo'ldoshi – iste'dodli jurnalist, mohir suxandon, nozikta'b shoir Abduvali Ortiqovning she'rlarini ham to'plab, hammualliflikda «Ko'ngil malhami» nomli kitobini nashr ettirdi. Bu kitob har ikki shoirning tinimsiz ijodiy mehnati samarası sifatida o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldirdi.

Adiba o'zi tan olib aytganidek, tajribasi oshgan sari ijodning anglab bo'lmas sirli-sehrli nuqtalarini kashf etayotir. Shunday ekan, undan yanada mukammalroq, yanada ta'sirli, yanada ishonarli asarlar kutib qolishga haqlimiz.



BEZOVT A SAVOLLAR

(1949)

O'tgan asming 70-yillarida Dilbar Hamza-xo'jayevaning shuhrati butun respublikaga tarqaldi. «O'qituvchimga» deb nomlangan birinchi she'ri Qo'qon shahar gazetasi «Mehnat bayrog'i»da bosilib chiqqanida u 7-sinfda o'qirdi. Keyingi yillarda gazeta qoshidagi «Nihol» to'garagi mashg'ulotlarida olgan saboqlari (bu to'garakka dastlab N.A.Lukashov, keyin K.Olimova, A.Yunusovlar rahbarlik qilishgan) uning ijodini yanada pishitdi. Qo'qon davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetida o'qigan talabalik davrida (1967-1971) esa respublika gazeta va jurnallari uning she'rlarini basma-basiga bosa boshladilar. Tez orada Dilbar Zulfiya opaning ham nazariga tushdi. «Saodat» jurnalida uning talay she'rlari bosilib chiqdi. Keyin «Sharq yulduzi», «Guliston», «Yoshlik» jurnallari, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi shoirani elga tanitdi. O'sha paytda har yili nashr qilinadigan «Yoshlik», «Molodost» bayozlarining ilk nashrlarida (70-yillar oxiri) Dilbar Hamzaxo'jayevaning ham talay she'rlari e'lon qilindi.

Institutni bitirgach, o'zbek adabiyoti kafedrasida ishga olib qolindi. Ammo bu yerda ikki yilgina ishladi xolos. Chunki uning ko'nglini ilmiy ish qilish istagi emas, balki she'riyatga ixlos egallagan edi. Shuning uchun 1973-yildan shahardagi kechki ishchi-yoshlar maktabiga o'tib ishlay boshladи. Ko'plar «endi Dilbar ijod bilan astoydil shug'ullansa kerak» deb o'yldi. Chunki kunduzi bo'sh kechqurun bir necha soat dars beradi xolos. Yo'q, bu osuda maskanda ham ko'p ishlamadi. Biroz vaqt o'tgach shahardagi 4-o'rta ta'lif maktabiga o'tdi. Nafaqaga chiqqunga qadar shu maktabning rus sinflariga o'zbek tilidan dars berdi.

Ochig'ini aytganda, Dilbar ishlagan maskanlarda ijod qilish uchun vaqt ham, imkoniyat ham yetarli edi. Biroq shoira ulardan unumli foydalana olmadi. Shu paytgacha bironta ham kitob chiqarmaganligi bu fikrimizni isbotlaydi. Vaholanki, tilga tushgan 70-80-yillarda kitob nashr ettirish uchun muallif hozirgidek pul to'lamas, aksincha, kattagina qalam haqi olardi. Hatto ba'zi nashriyotlar o'zi xaridor bo'lib, Dilbardan «she'rlar to'plamingizni tayyorlab bering» deb so'raganlarida ham



beparvolik qildi, nashr etishga urinmadi. Keyin uzoq yillar jim bo'lib ketdi.

Va nihoyat, respublikamizda yangi tashkil etilgan «Vatan» gazetasi muharririyati bu ehtirosli shoirani topib olganini suyunchilab, o'zining 1995-yildagi 2-sonida D.Hamzaxo'jayevaning «Ertaga bir go'zal sahar bo'ladi» deb nomlangan turkum she'rлarini e'lon qildi va o'quvchilarga «go'zal bir shoirani qaytarib berayotgan» ligidan mammunligini izhor qilib, «endi bu galgi uchrashuv samarali bo'lajak, zinhor-bazinhor o'rtaqa ayriliq tushmaydi» deya umid bildirdi. Yo'q, ular adashgan ekan. Dilbar yana jim bo'lib ketdi.

Vaholanki, 2002-yil sentabr oyida Farg'ona davlat universiteti katta majlislar zalida bo'lib o'tgan O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining ko'chma yig'ilishida uyushma a'zoligiga qabil qilingan Dilbarning she'riyati to'g'risida uyushma raisi Abdulla Oriporov, O'zbekiston xalq shoirlari H.Xudoyberdiyeva, U.Asim, A.Suyun, adabiyotshunoslar I.G'afurov, R.Qo'chqorlar iliq fikrlar aytishgan, uni faollikka undashgan edi. Biroq o'n uch yillardiki, ustozlar ishonchi oqlanmadni. Dilbarning yangi she'rлarini o'qish, kitobini qo'lga olish o'quvchilarga nasib etmadi.

Qayerdasiz, nega jimsiz, Dilbar?! Bu bezovta savollar hanuzgacha shoir muxlislarining qalbiga tinchlik bermay kelayotir.



QALAMPIR ISHQIBOZI



Mamasoli Sarimsoqov 1950-yilning 20-yanvarida Bag'dod tumanidagi Mirzaobod qishlog'ida tug'ildi. 1966-yili tuman markazidagi rus-o'zbek aralashgan 1-maktabni bitirdi. Yetuklik attestatini qo'lga olgach, dastlab Farg'ona politexnika institutining qurilish fakultetiga hujjatlarini topshirdi. Lekin ikki yilgacha kirish imtihonlaridan o'tolmay qaytdi. Oxiri, 1968-yilda Fargona davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga topshirib, talabalar safidan joy oldi. 1972-yilda fakultetni bitirib,

| Bag'dod tumanidagi 2-maktabda ish boshladi. Bu davr orasida Mamasolining talay hajviy hikoyalari

viloyat va respublika matbuotida e'lon qilindi. 1980-yilda Toshkentga kelib, «Gulxan» jurnalida adabiy xodim bo'lib ishlay boshladi. Jurnal xodimi sifatida u O'zbekiston jurnalistlar uyushmasiga a'zo qilib olindi, hikoya va tarjimalari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Turkiston», «Tong yulduzi», «Guliston», «Mushtum» jurnallarida bosila boshlandi. Uning ijodiga Sa'dulla Siyoyev, Tohir Malik, Murodjon Mansurov, Anvar Obidjon kabi yozuvchilar yaxshi baho berishdi. Masalan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik Mamasoli «Tez gapiradurlar, biroq g'oyat shoshilmasdan sekin yozadurlar, satrlar oralig'idan Qo'qon qalampiri hidi ufurib turadur» deb yozadi. Ayniqsa, achchiq qalampir hidi ufurib turgan hajviy asarlari o'quvchilar tomonidan sevib o'qildi.

Ammo iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli ikki yildan so'ng (1982) poytaxtdan qaytishga majbur bo'ldi va tuman xalq ta'limi bo'limida ish yurituvchi, 4-maktabda o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri lavozimlarida ishladi. O'tgan asrning 80-yillarda xalq maorifi sohasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar nihoyatda ko'paygan edi. Mamasoli jurnalistlar uyushmasining a'zosi bo'lganligi uchun ta'lim-tarbiya sohasidagi kamchiliklar to'g'risida ko'plab tanqidiy maqolalar yozdi. Uning yozganlaridan xursand bo'lgan «Ma'rifat» gazetasi o'ziga Farg'ona vodiysi bo'yicha muxbir qilib ishga oldi (1990-1993). Mamasoli Sarimsoqovning ko'plab gazeta hamda jurnallarda nashr qilingan hikoyalardan tashqari, «Yoshlik» (1980), «Boychechak» (1984), «Yo'l boshida» (1984), «Chashma» (1984), «Men sizga aytsam» (1989), «Qora ko'zoynak» (1989) singari jamoa to'plamlarida ham

talay hajviy asarlari, tarjimalari bosilgan edi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining a'zosi (1992-yil 14-may) Mamasoli Sarimsoqov ayni chog'da Muhammad Sodiq taxallusi bilan 2013-yilda «Yubilyarning xotini» degan kitobini nashr ettirdi. Kitob allaqachon o'z o'quvchilarini topib, ularni kuldirib, qusurlarni kuydirib, ko'pchilikka ma'qul bo'ldi. So'zboshi muallifi – O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik lutf qilganlaridek, «hajviy asar yozib o'quvchini kuldirish, hayotimizdagi tuzatilishi lozim bo'lgan biron-bir nuqsonga e'tiborlarini tortish qiyin». Lekin hajviyalarni mutolaa qilgan o'quvchi Muhammad Sodiq bu qiyin ishning uddasidan chiqa olganiga ishonch hosil qiladi. Kitobdan 9 ta hikoya, 24 ta hajviya, 20 dona mitti hajviyalar, 4 ta tarjima, 43 ta qatralar o'rinni olgan. Ular nomlanishi yoki hajmi bilan emas, balki masalaning qo'yilishi, yechimining o'ziga xosligi, kulgining zalvori, xarakter mohiyati jihatidan ham atamalar talabiga to'la javob bera oladi. Ayniqsa, yozuvchi ko'p yillar maorif sohasida ishlagani uchun ta'limgartarbiya mavzusidagi hajviyalarida voqelikni juda ishonarli ifodalaydi.

Xullas, ularning har biri haqida gapirib, sizning vaqtningizni olmaylikda, yaxshisi, o'zingiz «Yubilyarning xotini» bilan tanishib qo'ya qoling. Maza qilmasangiz, men kafil.



EZGU SO'Z IZLAB

(1951-2014)

Butun ijodi mobaynida ezgu so'z izlab, uning harorati va tarovatidan muxlislarini bahramand qilishga intilayotgan shoiralarimizdan biri Maqsuda Ergashevadir. U 1951-yilning 17-fevralida Oltiariq tumanidagi Oqbo'yra qishlog'ida tavallud topdi.

1958-yilda qishlog'idagi 19-maktabning 1-sinfida o'qishni boshlagan Maqsudaxon 8-sinfni bitirgach, Marg'ilon pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirdi. 1970-yilda bilim yurtini tamomlab, o'zi ta'lim olgan mакtabda muallimlik faoliyatini boshladi. 1978-yilda Farg'ona davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga sirtdan o'qishga kirdi. Besh yil mobaynida ham o'qish, ham ish, ham oila tashvishlarini mardona yengib, maqsadiga erishdi. Bu yo'lda Maqsudaga bolaligidan doimiy yo'ldosh bo'lib kelgan she'riyat madad berdi. O'quvchilik yillarda kurtak ota boshlagan Maqsudanining she'riy talanti bilim yurti o'quv xonalarida barg yozdi, institutda sarxil mevalar tuhfa etdi. Bilim yurtida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, she'riyat shaydosi Abdukarim Sattorov rahbarligidagi to'garak unga qanot bag'ishladi. Shoiraning ilk she'rlari viloyat, tuman va Marg'ilon shahar gazetalarida tez-tez chop etila boshlandi. Uning she'rlari ayniqsa, institutda o'qib yurgan yillarda kamolga yetdi. Respublika miqyosida ehtirosli shoira sifatida tanildi.

1983-yili O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilingan Maqsuda Ergasheva ijod mas'uliyatini yanada chuqurroq va jiddiyroq his eta boshladi. 1985-yilda shoiraning «Bahorni axtarib» nomli birinchi she'rlar to'plami bosilib chiqdi. Ikkinchi kitobi «Ezgu so'z» (1988) chop etildi.

Mustaqillik yillarda shoiraning «Diyorimga ko'zing tegmasin» (2002), «Ko'ngil kishilar» (2006) deb nomlangan kitoblari nashr etildi. Bu kitoblardan o'rin olgan she'rlar shaklan ham, mazmunan ham, janr jihatidan ham Maqsuda Ergasheva ijodining yangilanganligi va mukammallik pog'onasiga ko'tarilganligini isbotlaydi. Ularning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, endi shoira o'z qalbida tug'yon urayotgan his-tuyg'ularni mumtoz adabiyotimizning ko'hna, ammo



hamisha navqiron janrlari hisoblangan g'azallar va muxammaslarda ifodalashga jur'at qila boshladi.

Maqsuda Ergasheva qalbini iztirobga solayotgan mavzular ham g'oyat rang-barang. Shulardan biri insoniyatni razolat, notinchlik va qashshoqlik domiga tortuvchi urush-janjal, o'zaro kelishmovchiliklarga qarshi nafratdir. Shoiraning ana shu mavzuga bag'ishlangan «Dushman askarining bevasi aytgan alla», «Askar maktublari», «Qo'ltiqtayoqlar», «Non haqida she'r» kabi manzumalari o'quvchi qalbini larzaga soladi.

Yaxlit olganda, Maqsuda Ergasheva she'rlari ulkan muhabbatnomadek taassurot qoldiradi. O'zining aytishicha, uning «yuragida xushro'y ishq bor». Bu ishq shunchaki mo'rt, bachkana, ishonchhsiz, ikkilanuvchan havasmandlik yoki kimgadir, nimagadir yetishish istagini anglatuvchi tuyg'u emas, balki barcha odamlarga, mahalla-ko'y, oila va farzandlarga, ota-onalaru aka-ukalar, umuman, insoniyatga izhor etilgan tom ma'nodagi so'nmas, barhayot muhabbatdir.

Maqsudaning qalbida jo'sh urayotgan o'sha «xushro'y ishq»ning mehvari – o'q tomiri sifatida Ona obrazi yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyatning axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy, hatto siyosiy muammolarini hal etishga o'zini burchli deb bilgan, bu vazifani chin dildan ado etishga bel bog'lagan ona bora-bora shoiraning ijtimoiy mulohazalarini tashuvchi yuksak badiiy vositaga aylanadi. Shoir yaratgan ona oilasida mustaqil Vatan himoyachisini tarbiyalash uchun farzandini har doim uyg'oq yurishga, ogoh bo'lishga da'vat qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan. Ana shundagina uning niyati ro'yobga chiqadi, o'g'illar uyg'oq ekan, u yashayotgan yurt osoyishta bo'ladi. Mabodo, yurtning bo'lg'usi himoyachisi g'aflat uyqusida uqlab yotaversa, Vatan tinchligini, osoyishtaligini kim qo'riqlaydi? Negaki:

Farzandlari g'ofil elning

Iymoni ham uqlayadir.

Yomg'ir, qorlar yog'may o'tar.

Osmoni ham uqlayadir.

Bog'lar pishmay, o'tlar unmay.

Imkonni ham uqlayadir.

Sen uxlama, jon bolam,

Sen uxlama, jonim bolam.

Uyg'on bolam, uyg'on bolam.

Uyg'on bolam, jon bolam!

O'tgan asrning 80-yillarda «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida Maqsuda Ergashevaning «Toshkent bilan muloqot»

sarlavhali she'ri bosildi. She'r ijodkorlar o'ttasida juda katta aks-sado uyg'otdi, ijobiy ma'noda ularni hushyorlikka da'vat etdi. Chunki shoira bu she'rida o'sha paytdagi ijod ahlining «ichi to'la dardlar»ini ochiq ifodalab bergandi. Shoira bu she'rida ayrim «dardsiz qalblar»ning loqaydligi tufayli paxtakorning ayanchli qismati «siyqa so'z bilan» ulug'lanayotgani, gazeta-jurnallar sahifalarida paxtakor mehnatining chinakam manzarasi emas, soxta uyilgan xirmonlar haqida ayyuhannos urilayotganidan ochiq-oydin faryod chekkandi. Qishloq mehnatkashlarining haqiqiy ahvolini, jismoniy va ruhiy holatini aniq bilmay turib, «Oq oltinni oltin qo'llar yaratmoqda» deb asarlar yaratayotgan san'at ahliga shoira quyidagicha tanbeh bergen edi:

Shoir, menga g'amgin bo'lsa ham

Dil o'ynatar qo'shiqlardan yoz.

Rassom, mening yuzimni chizma,

Ketmon tutgan bilagimni chiz.

Bo'yoqlaring to'q bo'lmasa ham

Og'rib turgan yuragimni chiz.

«Olisdagi kichik bir qishloq Oqbo'yradan» yuborilgan va «ichi to'la dardlar» bilan yo'g'rilgan bu xat o'z davrida poytaxtni larzaga solgandi. Shuningdek, adabiyotda muhabbat mavzusi nihoyatda bachkanalashib ketgan bir paytda M.Ergasheva o'z jinsdoshlariga:

Qizlar, she'r yozsangiz, uyalib yozing.

Qizil gul rangiga bo'yalib yozing.

Qizlar sevgisini baqirib aytmas.

Oshiqni yoniga chaqirib aytmas.

Meni undoq va yo bundoq seving, deb –

Jumlai jahonga hayqirib aytmas,

deya murojaat qildiki, bu ko'pchilikning ko'zini ochdi. Chunki pokiza qalbli murabbiy-shoiraning bu nidosi o'zbek ayolining chinakam milliy mentalitetini ulug'lab, behayolik libosini ko'z-ko'z qilayotganlarga chiqarilgan adolatli hukmnoma bo'lib yangradi.

Maqsuda Ergashevaning ijodiy niyatlar katta edi. U «Ko'ngil hikoyatlari» nomli xotira-romanini, qariyb qirq yillik ijodi namunalarini saralab, «Saylanma» tarzidagi kitobini muxlislariga tuhfa qilish orzusida edi. Ammo shafqatsiz o'lim shoiraning bu maqsadlarini ro'yobga chiqarishga imkon bermadi. Uzoq davom etgan og'ir kasallikdan so'ng Maqsudaxon 2014-yilning 9-yanvarida bu foni dunyoni tark etdi.

2015-yili uning xotira-romani «Taqdir hikoyatlari» nomi bilan «Farg'ona» nashriyotida chop etildi.

ZUHRO BO'LISH ORZUSIDA

Zuhra Aliyeva 1952-yilning 10-avgustida Quva tumanidagi Taxtako'prik mahallasida hunarmand-dehqon oilasida tug'ilgan. Alifboni o'rghanishni mahallasidagi 17-sakkiz yillik maktabda boshlab, 10-sinfni Quva shahri markazidagi 1-maktabda tamomladi. U paytlarda sho'ro hukumati 16 yashar o'spirinlarni voyaga yetmagan hisoblab, fuqarolik guvohnomasi bermasdi. Shuning uchun u o'sha yili oliv o'quv yurtiga hujjat topshira olmadidi va o'zi tamomlagan maktabda kotibalik qildi. Keyin institutni tamomlab, imtiyozli diplom bilan o'zi dastlab saboq olgan 17-maktabga keldi va 20 yil mobaynida oddiy muallimlikdan direktorlikkacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi. Bu yillar ichida Zuhra to'liqsiz o'rta maktabni qayta qurish, sinflar va yangi laboratoriya xonalarini ko'paytirish, o'quvchilarini jalb etish hisobiga o'rta umumta'lim maktabiga aylantirdi.



Zuhra Aliyevaning tashabbuskorligi va fan sohasidagi bilimdonligini ko'rgan tuman xalq ta'limi boshqarmasi uni 1992-yilda ona tili va adabiyoti fanlarini o'qitish bo'yicha uslubiyotchi lavozimiga taklif qildi. Sakkiz yil davomida u tumanning barcha maktablarida allaqachon davlat tili maqomini olgan o'zbek tili hamda ma'naviyatimiz asosi hisoblangan adabiyot fanlarini o'qitishni tubdan yaxshilash, o'qituvchilar obro'sini yanada oshirish, yangi pedtexnologiya usullarini joriy etish borasida talay ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, amalga oshirayotgan ishlari va tajribalari bo'yicha tuman radioeshittirish qo'mitasida suhbatlardan tashkil etdi, o'quvchilar va o'qituvchilarining chiqishlarini uyushtirdi, tuman gazetasiga ko'plab maqolalar yoza boshladidi. Uning bu faoliyatida institutda o'qib yurgan yillarida ustoz Hasanali Rustamov tomonidan jamoatchilik asosida tashkil etilgan «Jurnalist mahorati» kursida olgan saboqlari qo'l keldi. Zuhra Aliyevaning ishchanligi, maqolalarining dolzarbligi, uslubining yengilligi, o'qishliligi tuman hokimining e'tiborini tortdi va uni 2002-yilda «Quva hayoti» gazetasi bosh muharriri etib tayinlandi. U hozirgacha shu lavozimda ishlab kelayotir.

Zuhraning «Do'stlik haqida»gi ilk she'ri matbuotda bosilganidan (1965-yil, «Lenin uchquni»da) keyin, oradan qirq yil o'tib, birinchi

she'rlar to'plami «Onam yurgan ko'chalar» (2004) dunyo yuzini ko'rdi. Bu uzoq muddatda ijodkor o'z ustida qunt bilan ishladi, she'riyat sirlarini o'rgandi, o'ziga ishonch hosil qilgandan keyingina kitobini o'quvchilarga tuhfa qildi. To'g'ri, bu orada Zuhra o'zining ko'plab publitsistik maqolalari, esdaliklari, ocherklari, she'rlari bilan «Armonli dunyo» (1989), «El sevgan insonlar» (1994), «Go'zal bir dunyo» (1994), «Quvamsan – dilda borimsan» (1997), «Marvarid Marg'ilonim», «Uvaysiy izdoshlari», «Farg'ona ohanglari» singari bayozlarda, respublikamizning ko'plab gazeta va jurnallarida faol qatnashib, o'quvchilar hamda adabiy jamoatchilik nazariga tushdi. Shundan so'ng u San'atxon Mahmudova, Qutlibeka Rahimboyeva, Matluba Dehqon qizi singari taniqli ijodkorlarning tavsiyasi bilan 2007-yilda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi (10-guvohnoma).

Muxlislari tomonidan iliq kutib olingen Zuhraning «Onam yurgan ko'chalar» deb atalgan ilk she'rlar to'plami haqida taniqli shoira Tursunoy Sodiqova quvonch bilan «Zuhra she'rni «harir ko'yakli so'z» deb ataydi. Haqiqatan ham, uning yozganlari harir ko'yakli jonon she'riyat bo'libdi! Harir ko'yakda nafis va mas'um ko'rinishotgan bu mavjudlikning otash qalbi va kuydiruvchi fe'llari bordir. Ovoz chiqarsa, olovlar chatnab sizga o'ta boshlar, ohanglari dilingizni cherta boshlar!» deb yozadi.

Haqiqiy ijodkorming niyati o'quvchisi ko'nglidan joy olish, uning qorong'i dilini she'r shamchirog'i bilan munavvar qilish, dardu hasratlarini yengillatishdan iboratdir. Zuhraning mana bu niyati uning ijodiy maqsadini aniq anglatib turibdi:

*Men so'z desam, qarsak chalar yaproqlar,
Qushlar chiqib kelar berkingan joydan.
Gullab ketar chetda qolgan butoqlar,
Joy olaman ko'ngil degan saroydan.*

Qalbida ijodkor ajodolarining qoni gupirib urib turgan Zuhra Aliyeva bu maqsadiga erishish yo'lida bobosi Nadimiyan meros qolgan qalamanni e'zozlab, timmay ijod qilayotir. Tursunali Qalandar hoji o'g'li Nadimi o'tgan asrning 20-30-yillarda Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Zavqiy, Avaz O'tar o'g'li singari otashnafas shoirlar bilan bir safda barakali ijod qilgan, ammo uning xalqparvar ovozi sho'ro hukumatiga yoqmagani uchun 1937-yilda otib tashlangan edi. Ana shu millatparvar va vatanparvar bobosi Nadimi hamda Nozik taxallusisi bilan ijod qilgan tog'asi Abduqodir maxdum kabi ajodolarining barhayot ruhi

uni yangi-yangi ijodiy marralarga erishishga undamoqda. Bu fikrimizni shoiraning «Shamollar qanotidagi gul» deb nomlangan ikkinchi to‘plami («Adib» nashriyoti, 2012) to‘la isbotlaydi.

Kitobdan shoiraning 82 ta she’ri (shundan 11 tasi muxammaslar) o‘rin olgan. Ularni mutolaa qilgan o‘quvchi Zuhra Aliyeva she’rlariga faqat bobosi Nadimiyning jo‘shqin ovozigina emas, balki hazrat Navoiyning o‘ychan falsafasi, Vatan ishqida kuyib-yongan Boburning hasrati va o‘tli muhabbatи, devona Mashrabning ishqiy faryodi, oshiq Fuzuliyning ehtirosli dil izhori, miskin Huvaydo nolalari-yu fidoyi Nasimiyning orombaxsh ohanglari kirib kelganiga va ular bir-biri bilan qorishib, shoira tafakkuriga «Aqlu idrok, til, quloq, ko‘z» ato etayotganiga ishonch hosil qiladi.



NAZARKARDA ADIB

Alisher Ibodinov 1953-yilning 12-dekabrida Oltiariq tumanidagi Eskiarab qishlog'ida ziyoli oilasida tug'ildi. Otasi Umarali Ibodinov (1906-1963) huquqshunos, jurnalist bo'lib, ko'p yillar viloyat gazetasini va hukumat idoralarida rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Onasi Xolniso Oxunova uy bekasi, biroq ertak aytish, she'r o'qishga chechan ayol edi. Ana shunday oilada tarbiyalangan Alisher mакtabda astoydil o'qidi va 1969-yili qishlog'idagi 7-o'rta maktabni a'lo baholarga bitirdi.



Keyin to'rt yil harbiy xizmatda bo'ldi. Ko'ngilning tub-tubida in qurban, tez-tez g'imirlab, bezovta qilib turadigan yozuvchi bo'lismi istagi ana shu yillarda ro'yobga chiqqdi.

Shu yerda yozgan mashqlaridan birini tavakkal qilib «Guliston» jurnaliga yubordi. Ko'p o'tmay, jurnalning bosh muharriri Asqad Muxtordan xat oldi:

«Hurmatli Alisher uka!

Hikoyangizni oldik. Bizga yoqdi. Jurnalning keyingi sonlaridan birida chop etamiz. Endi G'alabaning 30 yilligi arafasida dengizchilar hayotidan bir ocherk yozib yuborsangiz.

Xizmatda va ijodda muvaffaqiyatlar tilab: Asqad Muxtor».

Bu xat yosh ijodkorga qanot bag'ishladi. Asqad Muxtor esa o'tgan asmining 70-yillarida Alisher Ibodinov degan o'ziga xos yozuvchini adabiyotga olib kirdi. Harbiy xizmatdan bo'shangach, uyga ham bormay to'g'ri Toshkentga keldi. O'zining hayot yo'lini o'zgartirgan xat egasi bilan uchrashdi. Asqad akaning maslahati, adabiyotshunos Mahmud Sa'diy va boshqa olijanob insonlar daldasi, ko'magi bilan Toshkent davlat universitetining jurnalistik fakultetiga o'qishga kirdi (1975). Xizmatda yurgan paytida uning ikkita hikoyasi birin-ketin «Guliston» jurnalida bosilgan edi. 1978-yilda esa 3-kurs talabasi Alisher Ibodinovning «Gulisafsar hidi» nomli birinchi hikoyalar to'plami nashr qilindi. 1980-yilda «Oq, oppoq bulutlar» qissasi, 1984-yili «Quyosh ham olov» nomli hikoyalar to'plami chop etildi.

Shunday qilib, Alisher Ibodinov nomi adabiy jamoatchilik tiliga tushdi. Ustoz Asqad aka o'zi kashf qilgan iste'dodli adibning har

bir qadamini kuzatib borar, unga maslahatlar berar, yutug‘idan behad quvonar, shogirdini yanada astoydilroq ijod qilishga undardi. Alisherning ilk hikoyalari xassos adib Odil Yoqubovning ham nazariga tushdi. Yozuvchi bundan chorak asr muqaddam yozgan maqolasida «Adabiyotimizning kelajagi»ni Erkin A’zamov, Murod Muhammad Do’st, Zohir A’lam hamda bizning Alisher Ibodinovlar siyemosida ko’tgan va bunda mutlaqo adashmagan edi. O.Yoqubovning o’sha maqolasida ta’kidlanishicha, Alisher qalamga olgan voqealar g‘oyat tabiiyligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Ustoz yozuvchi Alisher asarlariga xos «tiniq, ravon til» hamda ularning «ajoyib detallarga boy»ligini alohida qayd qilgan edi.

Zukko adabiyotshunos I.G’afurov ham «Alisher Ibodinovning badiiy nutq uslubida milliy adabiyot an’analariga tayanayotgani, natijada uning tili klassik uslubiy an’analar sari baquvvat ildiz otayotganligi», «uning barcha hikoyalarida tilning strukturasi badiiy voqelikning strukturasiga tugal monandligi bilan ajralib» turishini yosh yozuvchining «Onaning saman toyi», «Ko’l bo’yida», «Quyosh ham olov» singari «o’tkir syujet yo’nalishiga ega» bo’lgan hikoyalari misolida tahlil qilib bergandi. Chindan ham o’tgan asrning 80-yillarida A.Ibodinov tarixiy mavzudagi «Quyosh ham olov» hikoyasi bilan U.Normatov, P.Shermuhammedov, H.Boltaboyev singari taniqli olimlarning ham e’tiborini tortdi. Chunki hikoyada o’z yurtini jonidan-da ortiq sevgan, sevgisi tufayli ahididan qaytmas bahodirga aylangan, g‘oyatda kuchli irodaga ega bo’lgan vatanparvar ajdodlarimiz obrazini ishonarli yaratib bergen edi. Hikoya qahramoni Alp Tegin timsolida bosqinchilarga qarshi o’ziga olov yoqib kurashgan ota-bobolarimizning xarakteri ibrat qilib ko’rsatiladi. Bu o’sha kommunistik maskura qilichini yalang’ochlab, tariximizga qiron keltirayotgan paytda katta jasorat edi. Bu hikoya tez orada ingliz tiliga tarjima qilinib, 1982-yilda AQSHda bosilib chiqdi. «Gulisafsar hidi» to’plami ham ukrain, qozoq, tojik tillariga tarjima qilindi.

Alisher Ibodinov universitetni bitirib, 1980-yili qishlog’iga qaytib keldi. Dastlab viloyat «Kommuna» (hozirgi «Farg’ona haqiqati») gazetasida adabiy xodim, 1986-yildan boshlab «O’zbekiston ovozi» gazetasining Farg’ona viloyati bo'yicha doimiy muxbiri bo’lib ishladi. 1992-1994-yillarda Oltiariq tumanining «Davr ovozi» gazetasida bosh muharrir, 1996-yildan Farg’ona viloyati prokururaturasi muassisligida tashkil etilgan «Adolat yo’li» gazetasida bosh muharrir lavozimida faoliyat yuritdi. 2006 yili esa Farg’ona viloyati hokimligining «Farg’ona haqiqati» gazetasiga bosh muharrir lavozimiga o’tkazildi.

Ijod esa toxtab qolgani yoq. Ustozlarining nazari uni doim ishlashga, izlanishga undaydi. Buning uchun u ijod sirlarini mukammal egallashga kirishdi. Ko‘p o‘qidi, tarjimalar qildi. 1992-yilda «Qo‘rboshi Madaminbek» haqidagi hujjatli qissasi, 2000-yilda uchta qissadan iborat «Latofat do‘konidagi qatl» kitobi bosilib chiqdi. Detektiv asarlarni sog‘inib qolgan o‘zbek kitobxonasi uni juda yaxshi kutib oldi. Nashriyotga, yozuvchiga bu kitobni ko‘p nusxada qayta nashr qilishni so‘rab o‘quvchilardan talay xatlar keldi. Muallif uni qayta to‘ldirib, «Bu qaro tun – dunyo» deb atalgan to‘rtinchali qissani ham qo‘shib, 2002-yilda yana chop ettirdi. 2001-yilda O.Hakimov bilan hamkorlikda «Sarhadlarda sinalganlar» nomli ocherklar kitobini e’lon qildi.

2015-yilda ikkita romanni («Shafqatsiz tog‘lar», «Xudoyorxonning so‘nggi kunlari») va bitta qissasini o‘z ichiga olgan «Shafqatsiz tog‘lar» nomli kitobi bosilib chiqdi. Bu asar O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 24 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan «Eng ulug‘, eng aziz» ko‘rik-tanloving viloyat va respublika bosqichida g‘olib deb topildi.

Hozir A.Ibodinov katta rejalar tuzib ilhom bilan ijod qilmoqda.



UFQQA KO'Z TIKKAN SHOIRA

«Ishonch, iroda, sadoqat, g'urur, e'tiqod kabi yuksak insoniy fazilatlarni ulug'lash» (A.Oripov)ni o'z ijodining bosh maqsadi qilib olgan Enaxon Abdurashid qizi Siddiqova 1954-yil 28-avgustda Oltiariq qishlog'ining Ko'mirchi mahallasida tug'ildi. U 2-maktabni oltin medal bilan tamomladi. 1972-yilda Farg'ona davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga qabul qilindi va 1976-yili bu oliy o'quv yurtini imtiyorli diplom bilan bitirib chiqdi.



Institutni bitirgach, Enaxon ish faoliyatini o'zi bitirgan mактабда o'qituvchilikdan boshladi. Keyin Farg'ona tumanidagi 12-, 4-maktablarda ona tili va adabiyot fanlaridan dars berdi. 1985-1991-yillarda tuman miqyosidagi turli lavozimlarda ishlagan Enaxon Siddiqova yana 4-maktabga direktor qilib o'tkazildi. U maktab dovrug'ini butun viloyatga yoydi. 1996-yilda Enaxon Farg'onaga ko'chib keldi va 1996-1998-yillarda viloyatning «Farg'ona haqiqati» gazetasida, 1998-2001-yillarda esa viloyat hokimligida xotin-qizlar ishlari bo'yicha bo'lim boshlig'i lavozimlarda ishladi. 2001-yil sentabrdan buyon E.Siddiqova O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Farg'ona viloyati bo'limining mas'ul kotibi bo'lib ishlamoqda.

Enaxon badiiy adabiyotga juda erta ko'ngil qo'ydi. Uning «Olma», «Ovozim» deb atalgan ilk she'rlari «Gulxan» jurnalida bosilib chiqqanida Enaxon 6-sinf o'quvchisi edi. Maktabda ona tili va adabiyoti fanlaridan dars beradigan o'qituvchisi Jamiyat Sohibova ham unga ustozlik qilganlardan biridir. Uning tavsiyasi bilan bir guruham o'quvchilar tuman gazetasini huzurida shoir Anvar Obidjon tashkil etgan to'garakka mashg'ulotlariga muntazam qatnay boshladilar. Bu to'garak a'zolarining she'rlari nafaqat tuman, balki viloyat va respublika gazetalarini sahifalarida tez-tez e'lon qilib turilardi. Talabalik yillarda esa Enaxon xiyla tanilib qolgan shoira edi. 1973-yildayoq 2-kurs talabasi Enaxon Erkaboyevanining she'rlari dastlab «Saodat» jurnalida shoira Oydin Hojiyevanining oq yo'lli bilan bosilib chiqdi. U Toshkentga bir necha marta borib, mushoiralarda ishtirok etdi va taniqli shoirlar nazariga tushdi. Hozirgi «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 1977-yil 6-mart sonida E.Vohidov ikkinchi bo'lib o'z hamqishlog'iga iliq so'zlar bilan oq yo'l tiladi. Taniqli

shoirlarning e'tibori Enaxonga qanot bag'ishladi va astoydilroq ijodiy izlanishga undadi. Vaqtli matbuot sahifalarida bosilgan qator she'rлaridan tashqari «She'riyat 86», «Yoshlar ovozi», «Go'zal bir dunyo», «Navro'z ohanglari» singari adabiy almanaxlarda uning talay she'rлari e'lon qilindi. 1993-yilda esa «Cho'lpon» nashriyoti shoiraning «Qorako'z turnalar» nomli birinchi to'plamini bosib chiqardi. Bu to'plamga kirgan she'rлari bilan Enaxon to'g'ri ma'noda ham, ramziy ma'noda ham o'zining go'zal shoira ekanligini, hatto dardlarini ham teran nafosat bilan ifodalay olish qobiliyatiga ega ijodkor bo'lib yetishayotganligini namoyon qildi. Oradan to'rt yil o'tib «Sumanbar nasim» (1997). 2004-yilda «Ko'nglim ufqlari», 2009-yilda esa «Ishq ifori» deb atalgan «Saylanma» («Sharq» NMAK) kitoblarini nashr ettirdi.

«Ko'nglim ufqlari» shoiraning ijodiy ufqlari tobora kengayib, ranglari tiniqlashib borayotganligini ko'rsatdi. Kitobga so'z boshi yozgan O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri A.Orlov ta'kidlaganidek, «Enaxon kuyunchak shoira. She'rлari samimi. U o'z she'rлarida ayol qalbining tug'yonlarini, inson hayotining turli lahzalarini qalamga oladi. Vatanga muhabbat. mustaqillikka sadoqat mavzulari, ozod va obod yurt manzaralarini bir qalamkash sifatida g'urur bilan kuylaydi».

Darhaqiqat, E.Siddiqovani hozirgi o'zbek ayolining qismati ko'proq qiziqtiradi. Bu jihatdan mavzu va mazmuniga ko'ra to'rt bo'limdan iborat kitobning «Ahli ayolingni asragil» deb atalgan qismi xarakterlidar. Unda «Men senga bosh egdim, azizam ayol», «Qishloq ayoli», «Bola emizayotgan ayol», «Ahli ayolingni asragil» kabi she'rлari muallifning dardli iztiroblari hosilasi tarzida jaranglaydi. Shunisi muhimki, bu iztirobler tushkun kayfiyatda berilmaydi. Lirik qahramon – shoira o'z tengdoshini kurashga, o'zligini anglashga, jamiyat uning yashashi, mehnat qilishi uchun yaratib berayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga da vat etadi, qismatini gullatmoq, shonga burkamoq o'z qo'lida ekanligini uqtiradi.

Enaxon Siddiqova «Ko'ngil tugunlarini yechmoqlik mushkul» bo'lgan ishga jazm etgan shoiralardan. Uning niyati «Bedorlikning tug'ini» baland ko'tarib, «So'zlarni gulxanlar yanglig' olovlanadirish» dan iboratdir. A.Orlov shoira «satrlaridagi nazokat, qochirimlaru vodiyliklarga xos lutf»ni alohida qayd etar ekan, «Enaxonning ko'ngil ufqlari keng»ligiga ham urg'u beradi. Chindan ham, E.Siddiqovaning keyingi paytda yozgan she'rлarida falsafiy ruh, ijtimoiy mazmun yanada kuchayganligini, shoiraning ko'ngil ufqlari tag'in ham kengayganligini, insoniyat qismati, Vatan taqdiri haqida qayg'urgan qontalash dil

tug'yonlari rang-baranglashganini sezish mumkin. Bu jihatdan uning «Kim aytar, bu charxi dun ho'kiz ustida turar» misrasi bilan boshlanuvchi she'ri xarakterlidir.

E.Siddiqova doston va hikoya janrlarida ham muvaffaqiyatli qalam tebratmoqda. Shoiraning «Sumanbar nasim» to'plamidan o'rinni olgan «Vodil chinori» dostonidan tashqari, «Oydin» gazetasida e'lon qilingan «Oltin beshik», yozib tugallangan «Shohimardon» dostonlari, «Saodat» jurnali hamda gazetalarda bosilib chiqqan o'nga yaqin hikoyalari va «Sirli tun faryodi» (2004) nomli to'plami uning nasrda ham yaxshi iqtidori borligidan darak beradi.

E.Siddiqova ijodiy va ijtimoiy hayotdagi faoliyati uchun 2004-yilda hukumatimiz tomonidan «Do'stlik», 2009-yili «El-yurt hurmati» ordenlari bilan taqdirlandi. 2013-yilda respublika Oliy Majlisining Senati a'zosi qilib saylandi.



MAS'ULIYAT HISSI



Taniqli shoira Maqsuda Egamberdiyevaning «Gulbarg» (1978), «Maktub» (1980) nomli dastlabki to‘plamlari hamda she’rlari bosilgan bayozlarda «Maqsuda Egamberdiyeva Qo‘qonda tug‘ilgan» deb ma’lumot beriladi. O‘zining yozishicha, u aslida 1955-yilning 4-mart kuni Dang‘ara tumanidagi Baxshi qishlog‘ida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. 1958-yilda ularning oilasi xizmat taqozosiga ko‘ra shaharga ko‘chib keladi va Maqsudaxon shahardagi 15-maktabga kirib o‘qiy boshlaydi. 1972-yilda 10-sinfni bitirib, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)ning o‘zbek tili va adabiyoti fakultetiga o‘qishga kiradi. Uni 1977-yilda bitirib, qishlog‘iga qaytib keladi va to‘rt yil mакtabda o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi.

U talabalik yillaridayoq o‘zining ehtirosli she’rlari bilan ustozlari nazariga tushgan, she’rlari allaqachon «O‘zbekiston madaniyati» (hozirgi «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati»), «Yosh leninchii» (hozirgi «Turkiston») gazetalari, «Sharq yulduzi», «Saodat» jurnallari va bayozlarda paydar-pay chiga boshlagan, birinchi she’rlar to‘plamini tayyorlab nashriyotga topshirgan edi. Shuning uchun u badiiy ijod bilan shug‘ullanishga qulay adabiy muhit qidirdi. Ijodkorga dalda, qo‘llab-quvvatlash, adabiy maslahatgo‘y kerak edi. Buning ustiga ish boshlaganiga bir yil bo‘lib-bo‘lmay, ilk she’rlar to‘plami nashrdan chiqqan, allaqachon o‘quvchilarning sevimli hamrohiga aylangandi. Ketma-ket «Maktub» to‘plami bosilgach, Maqsuda Egamberdiyeva taniqli shoira sifatida tan olindi va Qo‘qondagi Muqimiy uy-muzeysiiga, keyin esa G‘afur G‘ulom nomidagi viloyat adabiyot muzeyiga ishga qabul qilindi. Endi u adabiyot atalmish ulug‘ dargohning ham vakili, ham xizmatchisi, ham targ‘ibotchisi edi. Bu yerda bir necha yil ishlagan Maqsudaxon ko‘proq badiiy ijodi bilan tanildi. Shuning uchun uni viloyat «Kommuna» (hozirgi «Farg‘ona haqiqati») gazetasiga ishga taklif qilishdi. Bu dargohda uning ijodi yanada kamolga yetdi. M.Egamberdiyeva bir necha yil viloyat hokimligida ham xizmat qildi. Hozir u Qo‘qon shahridagi politexnika kasb-hunar kollejida yosh avlodga ona tili va adabiyot fanlaridan saboq berib kelyapti.

«Sakkiz yoshimdan she’r yoza boshlaganman, -- deb yozadi u bizga

taqdim etgan ma'lumotnomada. – Ilk she'rlarim 1965-yildan matbuotda bosila boshlagan. O'quvchilik yillarimdayoq «Gulxan» jurnalida va «Tong yulduzi» gazetasida bosilgan she'rlarim uchun muharririyat mukofotlariga sazovor bo'lganman. 1969-yilda (7-sinfda o'qirdim) respublikada o'tkazilgan ijodkor o'quvchilar seminarida faxrli o'rinni egalladim». Uning she'rlarini ilk bora ko'rib berib, rag'batlantirgan va har doim qo'llab-quvvatlagan birinchi ustozи – garchi o'zi texnika sohasi bo'yicha mutaxassis bo'lsa-da, adabiyotning katta bilimdoni va ixlosmandi hisoblangan tog'asi Mahmudxon Muxtorov edi.

M.Egamberdiyevaning ilk to'plami «Gulbarg»dan o'rinni olgan «So'qmoq» sarlavhali she'ri uning ijodiy intilishi va kamolotini belgilash uchun xarakterlidir. She'rda baxmalday yumshoq maysa bilan qoplangan so'qmoqdan ovozini baralla qo'yib, kuylab borayotgan xayolparast lirik qahramonning katta yo'lga chiqish orzusi go'zal va ta'sirchan ifodalangan. Nihoyat:

*Katta yo'lga chiqib oldim,
Qoqila boshladim katta yo'lda yotgan
Qadamlarning izlariga.
Tovushlar, shodliklarning, alamlarning,
G'ururlarning, kulgularning, orzularning.
Afsuslarning izlariga...*

Demak, ijodning katta yo'lida yengib o'tish zarur bo'lgan qiyinchiliklar shoiraning zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Bu satrlar endigina she'riyat so'qmogiga kirayotgan havasmand qalamkashning o'zidan oldin o'tgan ulug' ustozlardan qolgan tabarruk izlardagi ohu-nolalarini, shodligu-quvonchlarni qalbiga jo etib yangicha ohang va bo'yoqlarda kuylashi lozimligini anglab yetganligini isbotlaydi. 1980-yilda nashr etilgan «Maktub», 1985-yili bosilgan «Nasiba» to'plamlarida ana shu yuksak mas'uliyat hissining yaxshi samaralari ko'zga yaqqol tashlanadi. Ijodining bu bosqichida M.Egamberdiyeva nafis va so'lim she'rlari bilan insonning latif tuyg'ularini tarannum etdi. Uning she'rlari mazmunining tig'izligi, shaklining ixchamligi, ohangining mayinligi, ranglarining quyuqligi bilan e'tiborni tortadi.

O'zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojiyeva ta'kidlaganidek, «Maqsuda so'zlarga yangi urg'u, yangi ma'no berishga, she'riy manzaralar yaratishga intiladi, tabiatni nozik tasvirlab bera oladi». Chunki Maqsudanining o'zi tan olganidek:

Tabiatning o'zi shoirdir bugun.

*Yolg'iz unga qulq solgim keladi.
Tabiatning o'zi shoirdir bugun
She'rilarin ko'chirib olgim keladi.*

Ijoddagi ana shu faolligi uchun Maqsuda Egamberdiyeva 1982-yilda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga a'zo qilib olindi. Endi ijod mas'uliyati yanada kuchaydi. Shoira o'zining shaxsiy kechinmalarini ijtimoiy hodisalar silsilasiga singdirishga urindi. Uning Vatan, xalq, insoniylik ulug'langan tiniq va ehtirosli misralarida maysalar nafasini, gullar hidini, shamollar tovushini, yomg'ir shivirini tinglash, his etish mumkin.

M.Egamberdiyeva keyingi yillarda ko'proq bolalar uchun she'rilar, dostonlar, ertaklar yaratmoqda. Bunday ijod yo'nalishini uning o'qituvchilik kasbi ham taqozo etyapti. Natijada 2002-yilda shoira «Ona bo'rining hiylasi» nomli yangi ertaklar to'plami. 2004-yilda «Aqlsiz sichqoncha», «Shimol ayig'i va Oq quyon» (2005) deb atalgan ertaklar va she'rilar to'plamlarini nashr ettirdi. 2013-yilda esa shoiraning «Qaldirg'ochchning qo'shnisi», «Mushuk sichqonni nega quvadi?», «Osmon sohilida» deb atalgan uchta kitobi bosmadan chiqди. Ijod mas'uliyatini chuqr his etib kelajakka intilayotgan shoiramiz Maqsudaning maqsadi ro'yobga chiqaversin!



HUVAYDONING UYG'OOQ RUHI



G'ulomjon Ibrohimjon o'g'li Fatxiddinov 1955-yilning 25-dekabrida Rishton tumanidagi Vohim qishlog'ida ham eskicha, ham yangicha ilmdan boxabar bo'lgan oilada dunyoga keldi. Uning bobolari Fatxiddin eshon, Shahobiddin eshonlar boobro' ruhoniylar bo'lib, shajalarini hazrat Huvaydoga borib bog'lanadi. G'ulomjon Huvaydo hazratlarining qizi tomonidan tarqalgan 7-aylodi hisoblanar ekan.

Qishlog' idagi 36-maktabni 1972-yilda bitirib, G'ulomjon Toshkentga o'qishga jo'nadi. O'quvchilik paytidayoq tuman gazetasida juda ko'p maqolalari bilan «tanilib» qolgan yigitcha

«katta yozuvchi» bo'lish orzusida ToshDU (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakultetiga hujjat topshirdi. Kunduzgi bo'limga kirolmadı. Keyin kechki bo'limga imtihon topshirdi va qabul qilindi. Kunduzi Toshkent poligrafiya kombinatining 3-bosmaxonasida harf teruvchi bo'lib ishlay boshladi. 1974-yilda O'zbekiston hujjatli va ilmiy-ommabop filmlar kinostudiyasiga ishga taklif qilishdi. Ammo oradan bir yil ham o'tmay, 1975-yil oxirida harbiy xizmatga chaqirildi. 1977-yili xizmatdan qaytib, yana o'qishini davom ettirish uchun poytaxtda qoldi. Toshkent metropolitenida quruvchi, 1979-1981-yillarda O'zbekiston Respublikasi kino san'ati muzeyida ilmiy xodim bo'lib xizmat qildi. Shu yili o'qishni ham tamomladi.

U qishloqqa qaytib, tuman gazetasida ish boshladi. Ammo G'ulomjon Toshkentda umidli shoir sifatida tanilib qolgandi. Uning «Haykaltarosh» deb atalgan birinchi she'ri respublika matbuotida 1975-yili bosilib chiqqandan keyin juda ko'p gazetalar, jurnallar, bayozlarda talay she'rlari nashr qilingan edi. Ayniqsa, 1977-yildan boshlab uzluksiz chiga boshlagan «Yoshlik» almanaxining 1, 9, 12-kitoblarida uning talay she'rlari chop etilgan edi. Shoir ana shu ijodiy muvaffaqiyatlarini izchil davom ettirish niyatida 1983-yili yana Toshkentga yo'l oldi. Uni respublika radiosining chet el eshittirishlari bo'limiga muharrir lavozimiga ishga oldilar. Endi u Toshkentda yashab, ijod bilan astoydil shug'ullanishga ahd qildi. Ammo ota-onasi va oilasi Toshkentga ko'chib kelishga unamadi. Shoir tanho o'zi ikki yilgacha ijarada, do'st-birodarlarini uyida yashab yurdi. Oxiri bo'lmadi. Tag'in

qishloqqa qaytishga majbur bo'ldi. 1985-yildan u maorif sohasida ishlay boshladi. Chorak asrga yaqin muddatda yosh avlodga ona tili va adabiyot, odobnama, ma'naviyat fanlaridan saboq berdi. Ko'p yillar mактабда direktorlik qildi. Shu bilan birga, ijod qilishni ham davom ettirdi, havasmand qalamkashlarga ijod sirlarini o'rgatdi. Hozir «Rishton haqiqati» gazetasida faoliyat ko'rsatyapti.

G'ulom Fatxiddinning «Xirgoyi» nomli birinchi she'riy to'plami 1990-yilda o'quvchilar qo'liga tegdi. Unga kirgan she'rлarinинг ko'philigi shoир tarjimai holining ko'zgusi tarzida dunyoga kelgan. 1992-yilda esa «Istaklar chechagi» kitobini e'lon qildi. Shoир «She'riyat»ga murojaat qilib:

*Mehmoning emasman yoki havasmand,
Bag'ringda kurashib yashamoqchiman,
Yagona hakaming – dilga bo'ysunib*

der ekan, bu ahd-paymonini amalda isbotlash uchun har bir she'rining «bir intiqomiy miltiq» bo'lishini istaydi va bu quroli bilan «qora niyatli inson»larni nishonga olganligini yashirmaydi.

G'Fatxiddinning she'rлari yuragidan sitilib chiqadi. Shoирning bu fazilatini chuqur his etgan ulkan adabiyotshunos I.G'affurov maktub yo'llab, «she'rлaringizdan toza havo-hayotning asl nafasi kelganday bo'ldi. Sizga she'r – go'zal so'z baxti doimo yor bo'lg'ay» deb yozgandi. O'zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi esa G'ulomjon she'rлarinинг «har bir satr tarang, o'tkir. Ular shoир ma'naviy dunyosining keskin harakatida, fikr va hissiyotining shiddatli birligida namoyon bo'ladi. So'zni his qilish iqtidori kuchli» ekanligini alohida ta'kidlaydi.

2012-yilda G'ulom Fatxiddin qariyb 40 yillik ijodining eng yaxshi namunalarini saralab, «Lojuvard soya» nomli kitobini e'lon qildi (T., «Sharq» NMAK). To'qqiz fasldan tashkil topgan ushbu kitobdagi she'rлами mutolaa qilgan o'quvchi ko'z oldida G'ulom Fatxiddin haq oshig'i, jannatmisol Vatan oshig'i, odam va olam, tabiat oshig'i qiyofasida namoyon bo'ladi. Shoирning ko'nglidan «buyuk bir shonli muhabbat» o'rн olgan va uncha-muncha «Ifodaga sig'mas bunday Muhabbat»dan qutilishning sira iloji yo'q. Ana shu muhabbati tufayli shoир «Bir lojuvard jannat soyasi» bo'lgan Vatanini, or-nomusni, milliy-madaniy merosimizga sadoqatni yanada teranroq, chuqurroq, ta'sirliroq yoritishga urinadi. She'rларидан uning ko'p o'qiganligi, tafakkuri chuqurligini, chin insonni sevishi, qadrlashi, yurtining fidoyi farzandi bo'lish istagini hamma narsadan ustun qo'yanligini anglash mumkin.

MEHRGA TASHNALIK

Yo'Idosh Solijonov: – Siddiqjon! Siz bilan bitta qishloqda tug'ilib, voyaga yetdik. Buloqboshi deb atalgan qishlog'imiz Katta Farg'ona kanalining ikki yoniga joylashgan bo'lib, bag'ridan yetishib chiqqan shoirlari, olimlari, arboblari bilan Rishton tumani va viloyatgagina emas, balki butun respublikamizga tanilgan desam, mubolag'a qilmagan bo'laman. Axir, atigi ikki ming to'rt yuz aholisi bo'lgan kichkina bir qishlog'imizdan o'nga yaqin olimlar yetishib chiqqani, shulardan ikkitasi fan doktori, professor, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining a'zosi ekanligi hazilakam gapmi? Biz qishlog'imiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Siz ham olim, ham shoirsiz. Shuning uchun, keling, yaxshisi tarjimai holingiz haqida o'zingiz gapirib bera qoling.

Siddiqjon Mo'minov: – Mayli, faqat o'quvchilar maqtanchoqlikka yo'yishmasa bas... Onamning aytishlaricha, men aslida 1956-yilning aprel oyida tug'ilgan ekanman. Ismimni esa Abdulla Qahhor qo'ygan ekan.

Yo'Idosh Solijonov: – Qanaqasiga?! Axir, A.Qahhor u paytda Toshkentda yashar, yozuvchilar uyushmasining rahbarlaridan biri edi-ku! Sizning tug'ilganingizni qayoqdan biladi-yu, oilangizga qanday daxli bor?

Siddiqjon Mo'minov: – Albatta, bu katta yozuvchining bizga dahli ham, tug'ilganimdan xabari ham yo'q. Lekin Fotima xolabuvim (buvimning opasi) o'qimishli ayollardan bo'lib, yozuvchining o'sha paytda juda mashhur bo'lgan «Qo'shchinor» romanini o'qiyotgan ekan. Undagi halol, mehnatkash yigit Siddiqjon yoqib qolib, singlisiga «o'g'lingning otini Siddiqjon qo'yamiz» debdi. Dadamga ham ma'qul bo'lganmi, ishqilib, shu ism bilan hujjat olingen.

Yo'Idosh Solijonov: – Chindan ham, «Ismi jismiga mos» degan gap bejiz aytilmagan-da. Siz har bir ishga sidqidildan, astoydil urinasiz. Buning samaralari bugungi faoliyattingizda ko'rinib turibdi. Mana, hozir yirik tilshunos olim, filologiya fanlari doktori (2000), professor (2010), O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining a'zosi (2008), taniqli shoир, publisist, so'zamol notiqsiz. Ochig'i, Farg'ona adabiyotining



shu kungi jonli harakatini Sizning nomingizsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Viloyatda biron ta gazeta yo'qki, kulib turgan suratingiz bilan she'ringiz bosilmagan bo'lsin. Kun xoli emaski, goh viloyat yozuvchilar uyushmasi, goh «Nuroniy» jamg'armasi yoki Ma'naviyat targ'ibot markazi tomonidan tashkil etilgan tadbirdarda ishtirok etmasangiz. Asosiy ish joyingiz esa Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasini bo'lib, talabalarga ma'ruzalar o'qish, ilmiy-tadqiqot olib borayotgan o'nlab shogirdlaringizga yo'l-yo'riq ko'rsatish bilan bandsiz. Buning ustiga, hozir umumta lim maktabi o'quvchilari uchun darslik ustida ham ishlayapsiz. Sizning bu tinimsiz faoliyatizingizni ko'rib, «Bu odam hammasiga qandoq ulgurar ekan-a?» degan savol tug'iladi.

Siddiqjon Mo'minov: –10-sinfni bitirib, Farg'ona davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga hujjat topshirdim. Afsuski, o'sha yili o'qishga kirolmadim. Ammo Farg'onadan ketgim kelmas, ketsam – qaytib kelishim qiyindek tuyulardi. Shuning uchun shahardagi mexanika zavodiga oddiy ishchi bo'lib ishga kirdim. Zavod yotoqxonasida yashab, ishdan so'ng kirish imtihonlariga astoydil tayyorgarlik ko'rdim. Kelasi yili omadim chopib, talaba bo'ldim.

Talaba bo'lganimdan xursandchiligimning cheki yo'q edi. O'sha paytda institutda «Pedagog» nomi bilan gazeta chiqardi. Shu gazetaning faol muxbiri, keyin mas'ul kotibi bo'ldim. Institutni bitirgach, shu lavozimda ishlab qoldim. Orada harbiy xizmatga chaqirildim. Armiyadan qaytib, yana o'sha gazetada faoliyatimni davom ettirdim. Ayni chog'da ilmiy ish ustida ham astoydil ishlay boshladim. Sizning rahbarligingizda yozilgan «Badiiy asarda ism va uning badiiy-estetik vazifasi» deb atalgan diplom ishim mavzusini davom ettirdim. Siz bilan hammulliflikda «Badiiy asarda ismning ayrim funksiyalari» sarlavhali maqolamiz «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalining 1984-yil 2-sonida e'lon qilindi. Shundan so'ng ishga yanada astoydilroq kirishdim. Ammo peshonamga adabiyotshunos emas, tilshunos bo'lish yozilgan ekan, shu soha bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishdim.

Yo'Idosh Solijonov: – Siz adabiyotning faqat shaydosigina emas, ayni paytda bilimdon mutaxassis, charchamas targ'ibotchisi hamdirsiz. O.Hakimov, T.Jo'rayevlar haqidagi risola va maqolalarining fikrimga dalil bo'la oladi. Eng muhimi, Siz taniqli shoir sifatida nom chiqardingiz. Hozirgacha 15 ga yaqin kitoblarining nashr qilingan bo'lsa, shundan beshtasi she'riy to'plamlar hisoblanadi. Bular «Bahor kelganga o'xshaydi» (2006), «Mendan mehr kutayotganlar» (2007), «Yurtim yilnomasi» (2011), «Oilada ulg'ayar Vatan» (2012), «E'zoz»

(2015) kabilardir. Yana qanchadan-qancha she'rlaringiz kitob holida chiqishni kutib turibdi.

Odatda, har qanday ijodkor shaxsiyatidagi fazilatlar (hatto illatlar ham) u yoki bu darajada asarlarida aks etadi. Sizning shaxsingizga xos behalovalt tuyg'u, Vatan, xalq, ona, oila, farzandlar, aka-ukalaru opasingillar, umuman, barcha odamlarga bo'lgan beqiyos mehringiz har bir she'ringizning vujudiga singib ketganiga ishonch hosil qilish mumkin. Buni o'zingiz ham yaxshi bilasiz va shunday deysiz:

She 'rim mening o 'zimdir;

Yonib turgan ko 'zimdir;

Meni elga tanitgan

Yaxshi-yomon so 'zimdir.

Odamlarga yaxshilik qilish, mehr-muhabbat izhor etish Sizning «Bahor kelganga o'xshaydi», «Yurtim yilnomasi», «Oilada ulg'ayar Vatan» singari to'plamlaringizga ham xosdir. Bu bir kam dunyoda kim bo'lishidan qat'iy nazar har bir «inson bir chimdim mehrga zor» bo'lib yashaydi. Shunday ekan, odamlarga mehrdan yasalgan she'riy guldstalariningizni tuhfa qilishdan hech qachon charchamang, degan qutlug' istak bilan suhbatimizga hozircha ko'pnuqta qo'yib, o'quvchilar bilan xayrashamiz.



BAHODIRNING BAHOSI

Bahodir Iso – ehtirosli shoir, mehribon do'st, muhabbatli inson, g'amxo'r oila boshlig'i, qo'li gul rassom. Xullas, qo'lidan ko'p ishlar keladi. Lekin o'z she'rlari taqdiringa, o'zining ijodiy a'moliga anchagina beparvo. Yozganlarini matbuotda chop ettirishga, ularni kitob shaklida nashr qilishga hafsalasi yo'q. Go'yo buning uchun boshqalar harakat qilishi kerakdek. Yaxshiki, Bahodirning ishqibozlari, muxlislari ko'p: biri she'rlarini gazetaga tavsiya qiladi, boshqasi qo'shiq qilib kuylaydi va shoirning nomini mashhur qilib yuboradi. Uni qo'llab-quvvatlaydigan do'stleri ham sanoqsiz. Ammo... shoir-da, ularga bog'lanib qolishni istamaydi. Ijodkor sifatida ham, inson sifatida ham erkin bo'lishni xohlaydi. Bu shoirlilik qismatidir.



Bahodir 1956-yil 24-oktabrda Rishton tumanidagi Dutir qishlog'ida o'qituvchi oilasida tug'ildi. Otasi Sirojiddin Isomov ko'p yillar mas'ul lavozimlarda ishlagan. Qishlog'idagi 30-o'rta mактабда direktorlik qilgan. Bahodir ana shu maktabni 1973-yilda bitirib, Farg'onadavlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kirdi. Institutni tamomlagach, shu maktabda o'qituvchilik faoliyatini boshladi. Keyin armiya xizmatiga chaqirildi. Askarlik davri (1978-1980) andijonlik shoir Muhammad Yusuf bilan birga o'tdi. Ular go'yo kim o'zarga she'rlar yozishardi. Harbiy xizmatda Bahodirning rassomlik salohiyati ham namoyon bo'ldi. U turli shiorlar yozish bilan vaqtini o'tkazar, ijod qilishga sharoit yetarli edi. Xizmatdan qaytgach, rassomlik qilishga berilib ketdi. Rishton badiiy kulolchilik buyumlari zavodida rassom vazifasida ishlay boshladi. Lagan va ko'zalarga turli shakllar va portretlar chizib ancha ko'zga ko'rinish qoldi. U o'zbek laganiga chizgan ulug' zotlarning portretlari Fransiyagacha yetib bordi.

1992-yili zavoddan bo'shab, yetti yilgacha ijod qilish, rassomlik va haykaltaroshlik bilan shug'ullandi. Bu ishlari uchun unga hech kim haq to'lagani yo'q. Oilasi kengayib, bolalari o'sib, ehtiyoji kuchaydi. Alovida hovli-joy qurishga kirishdi. Juda qiyaldidi, lekin shikoyat qilmadi. Dardini she'rlariga to'kdi. Ranglarga singdirdi. Hamqishloqlari bu kamtar, kamsuqum, fidoyi, halol insonni 1999-yilda mahalla fuqarolar yig'ini raisligiga sayladilar. Bu vazifada 2004-yil aprel oyigacha halol

ishlab, qishloq ahlining duosini oldi. Keyin Rishton tumani ma'naviyat targ'ibot bo'limini boshqardi. Biroq bu ish ham uning tabiatiga mos tushmadi. U tinch, osoyishta yashab ijod qilishni (rassomlikmi, shoirlikmi, haykal yasashmi) istardi. Shuning uchun tezda bu ishdan ham bo'shadi.

Bahodirning birinchi she'ri Rishton tumanining «Paxta uchun» deb atalgan gazetasida 1970-yili bosilgan. O'shanda 7-sinfda o'qirdi. Talabalik yillarida uning ijodi kamolga yetdi. «Yoshlik» almanaxining 1977-yildagi ikkinchi kitobida uning bir turkum she'rlari nash qilindi. Ularda shoirning dadilligi, kelajakdan umidvorligi ramziy timsollar orqali ta'sirchan va ishonarli tasvirlangandi. Bu xususiyat, ayniqsa, «Qiz tushmagur-ey!», «Jilg'a», «Polapon», «Men urushni ko'rmaganman» kabi she'rlarida aniq ko'rindi:

Toshga tegib, sinib-sinib

Jilg'a oqar.

Qancha to'siq, qancha azob

Yo'llarida.

Yo'l-yo'lakay tosh to'shiga

Maysa tagar.

Huv, oddagi daryo yashar

O'ylarida...

Bu jilg'a, aslida, Bahodir Isoning o'zidir. U ulkan ijod daryosiga yetish yo'llarini qunt bilan uzoq izladi. Bu yo'lda shoir «men she'r yozsam har satrim yuragimdan ko'chiray» deb qasam ichdi. «Nontopdi ijod uchun kerakmas do'st tiragi» deya o'zini tiklashga, mustaqil yashash va fikrlashga urindi. Siz meni hozir maqtamang, «har qancha maqtovni eshitsin, mayli, o'lganimdan keyin she'rlarim» deb niyat qildi va «shoir bo'lsang – Bahodir aytgan so'z – she'rda yasha» deya ijodga mas'uliyat bilan yondashdi. Ichidagi dushmanlarini yengishga intildi, har qachon, har qayerdan «Bahodir Isoni anglaydi kim deb, Odamlar ichidan odam izladi».

Nihoyat, 1988-yilda shoirning ilk to'plami «Xayrli tun» bosilib chiqdi. Bahodirni anglaydigan, uning injá she'rlarini sog'inib qolgan muxlislari uchun bu kitobcha katta tuhfa bo'ldi. Shundan so'ng shoir yana ko'p yillar Jim bo'lib ketdi. Uni izlaydigan, qo'llab-quvvatlaydiganlar esa Jim turishmadı. Masalan, shoir va olim do'sti S.Mo'minov matbuotda «Qayerdasan, Bahodir?» deya bong urdi. Shunga qaramay, Bahodirga ilhom, mas'uliyat bag'ishlash va ruhini ko'tarish maqsadida

O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi 2002-yilning sentabr oyida Bahodir Isoni a'zolikka qabul qildi. Biroq bu mas'uliyatli imtiyoz ham unga turki bermadi. Viloyat yozuvchilar uyushmasining mas'ul kotibi E.Siddiqova Bahodirga she'rlarini to'plab, keltirib berishni aytaverib charchadi. «Farg'ona» nashriyotining direktori T.Jo'rayev ham bajonu dil yordamga tayyorligini bildirdi. Nihoyat, 2005-yilda uning «Odamlar ichidan odam izladim» nomli she'rlar to'plami chop etildi. Oradan yana yetti yil o'tgach, «Yaxshilar bor, yaxshiyam» deb atalgan kitobi dunyo yuzini ko'rdi. Hozir Bahodir Iso ana shu kitobi keltirgan shuhrat og'ushida zavqlanib yashamoqda.

2014-yilda muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligini tantanali nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi. Bahodir ma'lum bir fursat M.Yusuf bilan harbiy xizmatda birga bo'lgan va umrining oxirigacha yaqin aloqada bo'lgan edi. Shu munosabat bilan do'stiga bag'ishlab «Muhammad Yusuf» degan doston yaratdi. Eshitishimcha, ayni chog'da yangi to'plami ustida ishlayotganmish. Ajabmas, o'zining 60 yillik yubileyi arafasida yirikroq kitobini e'lon qilsa...



YANGI TO'LQINLAR SILSILASI

XX asrning 80-yillarida Farg'ona adabiyotiga bir guruh iste'dodli yoshlar gurillab kirib keldi. Bu paytda respublikada yosh ijodkorlarga e'tibor birmuncha kuchaygan, deyarli har yili viloyatlarda yashab ijod qilayotgan qalamkashlarning turli janrdagi asarlarini o'z ichiga olgan har xil almanaxlar, bayozlar nashr qilinardi. Bunday imkoniyat shubhasiz, farg'onalik ijodkorlarning ilhomini jo'shdirdi. Esimda, 70-yillardan to 90-yillargacha uzluksiz chiqarib turilgan «Yoshlik» (12 kitob), «Yoshlar ovozi» (3 ta kitob), «Chashma» (2 ta kitob), «Sen uchun yonib» (3 ta to'plam), «Oltin belanchak» (5 xil seriyada), «Billur jilg'alar» singari to'plamlarning har birida farg'onalik qalamkashlarning salmog'i alohida ko'zga tashlanib turardi. Masalan, bиргина «Billur jilg'alar» majmuasida (1985) she'r va hikoyalari chop qilingan 38 ijodkorning 14 nafari Farg'ona adabiyotining vakillari ekanligi quvonchlidir.

So'nggi dolg'ali o'n yillikda badiiy ummonga qo'shilgan to'rtinchı to'lqin o'zining shiddati va zarblari bilan alohida ajralib turdi. Ushbu to'lqinning oldingi saflarida Ergash Abdullayev (Beshariq), Mutal Qodir, Muhabbat Ibrohim qizi, Nurxon Raimova, Ma'mura Abdurahimova, Abdulla Sodiq (Farg'ona shahridan), Mavluda Avazova, Mo'tabar G'ulomova, A'zam Ismoil (Farg'ona tumani), Zuhra Aliyeva (Quva), Karima Ashurova (Bag'dod) kabilar bordilar. Ularning aksariyati kamida bitta kitob chiqarib, o'quvchilarga ancha tanilib qolgan ijodkorlardir.

Shunisi muhimki, bu to'lqining mansub ijodkorlarning har biri o'ziga xos ovozi, ohangi va uslubi bilan e'tiborni tortadi. Masalan, ijodning muqaddas dargohiga:

Yonmayman deyman-da, yonaman yana.

Yozmayman deyman-da, yozaman yana.

Quvonchu g'amimi goh qona-qona.

Ifoda etaman munis bir baytda...

degan qat'iy bir niyat bilan kirib kelgan va butun ijodi uchun «ezgulikni ko'ngilning eng noyob mulki» sifatida e'zozlagan mindonlik M.Avazova to'g'ri ma'noda ham, ramziy ma'noda ham o'zining «Tug'ilish» deb nomlangan (1992) to'plami bilan muxlislar ko'nglini rom etdi. Bu shoira o'z she'rлarida «jannatga monand» yurti Farg'onani, «ter to'kib nonini tishlayotgan» hamqishloqlarini mehr bilan tarannum etsa, M.G'ulomova dugonasidan farqli o'laroq Farg'ona she'riyatiga shakllangan dard, munis bir ohang, vazmin bir ruhiyat va o'ziga xos milliy teranlik olib kirdi. Shoiraning «Suyganim senmasmiding?»

(1993), «Panoh» (2010) deb atalgan to'plamlaridan o'rinni olgan she'rlari, «Baland tog'lar orasida» (2002), «Yog'du» (2014) nomli kitoblaridagi qissa va hikoyalari falsafiy mushohadaning chuqurligi hamda obrazli ifodalanishi bilan ajralib turadi.

1986-yildayoq «Imkoniyat» deb atalgan she'riy to'plami bilan e'tiborni tortgan Ergashali Abdullayev ijodida mayin lirizm, zamondosh qalbini va atrof muhitni teran his etish hamda ichki tuyg'ularni go'zal va ta'sirchan misralarda ifodalay olish fazilati yaqqol seziladi. Shoir ko'proq «Imonning butligi, mardlikka aylangan vijdon haqida» yozishni istaydi. Shuningdek. M.Ibrohimovaning «Gul arzi» (1993), «Bu yolg'on dunyoning yolg'on fig'oni»ni rost so'zlari bilan davolashni niyat qilib kuyunchaklik bilan dardli she'rlar bitayotgan A'zam Ismoil (Bo'tayev) ning «Oyga aytdim sirimni» (1993), «Ko'rgoni keldim sog'inib» (2012), «Sog'inchning ko'zlari» (2013) to'plamlari ham o'quvchilarga ma'qul bo'ldi.

XXI asr torn ma'noda yoshlar asri bo'lib qolayotganligi Farg'ona ijodkorlari misolida ham aniq ko'rinxoqda. So'nggi o'n yil ichida kirib kelgan navqiron ijodkorlarning beshinchi to'lqini o'ziga xos jarangdor ovozi bilan vodiy adabiyotining mamlakat miqyosidagi obro'sini yanada yuqori ko'tardi. Omonjon Hoshimovning «Siz – Tavakkalsiz», «Omonlik bayozi», «Ey, diydori shirinlarim», Shoh Sanamning (San'at Komilova) «Siz bitta jahonsiz», Zokirjon Fozilning «Mehmon bo'ldi tushimda onam», «Ko'zlariningda yashasam edi», Abdulla Sodiqning «Pok sirlar bulog'i», «Daryolarim», Rashidxon Shukurovning «Onam qo'li bilan tikkan to'n», «Mehr sog'inch», «Dunyoning umidi», «Zamonlar sabog'i», «Ibratlar», «Yot yurtdan izlama tole yulduzin», Gulbahor Said G'anining «Baribir baxtliman», «Qo'shig'imni kutmoqda dunyo», Farida Husainovaning «Porlayotgan shu'la», Sharif Qul Muhammadning «Dilimdagi dunyolar», «Biz ko'ngilning odamlarimiz», «Sharshara», «Bolalikka qaytib bo'lsaydi», «Quvonchingga sherikman, xalqim», «Boqiylikning timsoli dunyo», Maqsud Oqjariyning «Sharshara», «Hikmatli dunyo», A'zam Naziriyning «Dunyoga nigoh», «Fidomisan, yor?», «Sog'inch», «Dil rozi» va boshqa o'nlab ijodkorlarning kitoblari nashr qilindi.

Keyingi yillarda nashr etilgan «Marg'ilon gulshani», «Tengdoshim – istiqlol, og'am – istiqlol», «Hayrat buloqlari» kabi bayozlarda 12 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 130 dan ziyod iste'dodli yoshlarning asarlari chop etildi. Bundan tashqari, o'z kuchi va homiylar yordami bilan to'plamlarini nashr ettirayotgan qanchadan qancha yoshlarimiz

bor. Ayni chog'da barcha tuman va shaharlarda ijod bilan astoydil shug'ullanayotgan yoshlarning had-hisobi yo'q. Ular Farg'ona adabiyotining yangi va umidli qatlamini vujudga keltirmoqdalar. Ularning har biri o'ziga xos ovozi, ifoda usuli, obrazlar tizimi, o'zi suyib qalamga olayotgan mavzu va muammosi bilan adabiy jamoatchilikning e'tiborini tortmoqda. Shunisi quvonchlikni, Farg'ona ijodkorlarining bu peshqadam avlodi allaqachon respublika miqyosida tanilib qoldilar va yirik adabiyotshunos olimlardan U.Normatov, I.G'afurov, B.Nazarov, Sh.Rizayev kabilarning nazariga tushdilar.

Adabiyotimizning ertangi kuni haqida gap ketganda hali 17 yoshga yetmay turib, O'zbekiston xalq shoirlari Erkin Vohidov, Anvar Obidjon, Iqbol Mirzo kabi ustozlar nazariga tushgan va fotihasini olgan Qobiljon Shermatov, Mohinur Muhammadjon qizi, Odinaxon Mutallibovalarning ijodiy yutug'i haqida to'xtalmay o'tib bo'lmaydi. Bu yosh ijodkorlar hayotga, tabiatga, odamlarga, hayvonot olamiga, atrof-muhitga bolalarcha nigoh bilan qarashi va mushohada yuritishi bilan ajralib turibdilar. Shu paytgacha Qobiljonning ikkita kitobi bosilib chiqdi. «Balki Mosh ham tush ko'rар» deb nomlangan ilk to'plami (T., «Yangi asr avlodi», 2008) nashr etilganida Qobiljon hali 5-sinfni ham bitirmagan edi. Tez orada u yangi she'rlari bilan adabiy jamoatchilik nazariga tushdi. Ayniqsa, 2011-yilda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi tashhabbusi bilan «Do'rmon» ijod uyida o'tkazilgan «Bolalar adabiyoti kunlari»da Qobiljon yosh qalamkashlar orasida eng yuqori baho olganlardan biri bo'ldi va she'riy to'plami davlat mablag'i hisobidan kitob qilib chiqarishga tavsiya qilindi. Uning 20 ming nusxada chop etilgan «Qishloqjonim» nomli to'plamiga so'zboshi yozgan A.Obidjon Qobiljon Shermatov timsolida o'zbek bolalar adabiyotining kelajagini ko'radi va «14 yoshli bu yigitcha yaqin kelajakda bolalarimizning suyukli shoirlaridan biriga aylanishiga shubha yo'q» deb yuksak ishond bildiradi. Mohinur esa bevosita ingliz tilidan qilgan tarjimalarini jamlab, 2013-yilda «G'aroyib jazo» deb atalgan kitobini tuhfa qildi. Kitobbehaga ixchamgina so'zboshi yozgan adabiyotshunos Sh.Rizayev «Mohinurning oldida katta yo'l, mushkul vazifalar» turganligini, «Adabiyot dunyosiga kirgan har bir ijodkor jiddiy sinovlarni bo'yninga» olishi lozimligini ta'kidlar ekan, yosh ijodkorga «xayriyohlik bilan yo'llari ravon, kelajagi porloq bo'lishini tilab» qoladi.

Men adabiyotimizning ertangi rivojini juda ko'plab yoshlар qiyofasida ko'rib turibman. Ularning safi nihoyatda keng va umidbaxsh. Boz ustiga bu yosh avlodni o'z ortidan ergashtirayotgan o'rta yoshlар

talay qalamkashlarni ham hisobga olsak, Farg'ona adabiyotining kelajagi yanada nurli ekanligiga amin bo'lamiz. So'nggi yillarda Gulchehra Asronova «Ota uyim oqshomlari», «Osmonini topgan qush», Karimabegim «Tungi sharpalar» kabi qisqa va ta'sirli hikoyalari bilan o'quvchilar diqqatini tortdilar. Bahodir Shokirov esa «Daraxt va Arra», «Atirgul va Shamol», «Masallar», «Yangi masallar» kitoblari bilan tanildi.

Keyingi yillarda Farg'ona adabiyotida proza ham she'riyat bilan bemalol bellasha oladigan bosqichga ko'tarildi. Bu sohada durust mashq qilayotganlar qatorida Nurxon Raimova, Mutal Qodir, Ma'mura Abdurahimova, Gulchehra Asronova, Karimabegim, Nosir Zohid, Bahodir Shokirovlarni alohida tilga olish o'rinnlidir. N.Raimova bilan M.Qodir o'tgan asrning 80-yillaridayoq «Yoshlik» va «Chashma» almanaxlarida o'z hikoya va qissalari bilan faol qatnasha boshlagan edilar. Ayniqsa, bu adiblar orasida N.Zohid keyingi yillarda yanada faollashib, «Qasos», «Yigit yig'lamasin dunyoda», «Arosat», «Shahar ko'rgan qiz» kabi qissalar, «Nadomat» deb atalgani roman yaratdi. M.Abdurahimova bilan G.Asrонovaning ayol qalbini chuqur tadqiq qilishga bag'ishlangan lirik yo'naliшhdagi hikoyalari o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldirmoqda. Xususan, adiba G.Asrонovaning «Ota uyim oqshomlari», «Osmonini topgan qush» kitobidan o'rin olgan hikoyalari lirik ta'sirchanligi va obrazlarning qabariqligi bilan e'tiborni tortdi.

Farg'ona adabiyoti hozir ayni kuchga to'lgan, hosilga kirgan davrini boshidan kechirmoqda. Bu adabiy muhitda ijodiy ishni iymonu e'tiqod belgisi deb bilgan ijodkorlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning sa'y-harakati bilan Farg'ona adabiyoti yanada boyiydi va yuksaklikka ko'tariladi.



Mundarija

Debocha	3
Tabarruk maskan	5
Haqiqat izlagan adib	12
Vodiy bahorining kuychisi	16
Muqimiyning izdoshi, G‘afur G‘ulom sirdoshi	18
Haqiqat timsoli	21
Farg‘ona afandisi	25
Jangchi qalamkash	29
Mehnatda ulg‘aygan ijod	31
Tarjimon adib	34
Mehnatning shirin mevasi	37
Ustozlari suygan shogird	40
Yaxshilar izidan	43
Iroda va mehnat samarasি	46
Ona yurt oshig‘i	49
O‘ylagani, kuylagani yaxshilik edi.....	52
Yetuk olim va shoир	57
Chirog‘i o‘chmaydigan xona	60
Non hidi anqigan she’rlar	63
Dardni yengillatgan qalam	65
Tabiat musavviri	68
Tong va qalam shaydosi	71
San’atxonning san’ati	74
Ulug‘larni e’zozlab	77
Yashillik sultanatining shaydosi	80
Yangilik yaratish yo‘lida	83
Nurli yo‘l qidirib...	86
Bir joyda ko‘kargan daraxt	89
She’riyatdan izlangan lazzat	91
Orzular qanotida	94
Bezovta savollar	96
Qalampir ishqibozi	98
Ezgu so‘z izlab	100
Zuhro bo‘lish orzusida	103

Nazarkarda adib	106
Ufqqa ko'z tikkan shoira	109
Mas'uliyat hissi	112
Huvaydoning uyg'oq ruhi	115
Mehrga tashnalik	117
Bahodirning bahosi	120
Yangi to'lqinlar silsilasi	123

Publitsistik nashr

Yo'ldosh SOLIJONOV

FARG'ONA ADIBLARI

To 'ldirilgan qayta nashr

Muharrir:

Hayotjon Boyboboyev

Tex. muharrir:

Nazirjon Hoshimov

Dizayner:

Sotvoldi Hasanov

Musahhih:

Qahhorjon Yo'lichiyev

Nashriyot litsenziyasi: A.I.№ 162. 2009-yil 14-avgust.

Terishga berildi: 02.09.2015-y. Bosishga ruxsat etildi: 18.11.2015-y.

Nashriyot bosma tabog'i: 8,0. Shartli bosma tabog'i: 8,25. Times garniturasi.

Ofset usulida bosildi. Bichimi: 60x84_{1/16}. Adadi: 1000 nusxa.

Buyurtma № 293. Bahosi kelishilgan narxda.

«Farg'ona» nashriyoti.

150114. Farg'ona shahri, Sohibqiron Temur ko'chasi, 28-uy.

«Print Line Group» x/k bosmaxonasi.

100097. Toshkent shahri, Bunyodkor shohko'chasi, 44-uy.

Yo'ldosh SOLIJONOV



O'zbekiston xalq maorifi a'lchisi (1991), O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi (2002), taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori Yo'ldoshxo'ja Solijonovning «Mohir san'atkor» (1984), «She'riyatning sirli jilvalari» (1986), «Tong yulduzlari» (1995), «Milliy istiqlol g'oyasini o'rghanishning ba'zi dolzarb masalalari» (2001), «Nutq va uslub» (2002), «Olimning olami» (2004), «Farg'ona adiblari» (2005), «Zulmatdan nur qidirganlar» (2007),

«Men sizdan saboq oldim» (2007), «So'z sehrgari» (2007), «Haqiqatning sinchkov ko'zлari» (2009), «Farg'ona adabiyoti» (2012), «Mo'jizalar sehri» (2013), «Ko'zgudagi hayot» (2013), «Vatan ozod, turmush obod, ko'ngillar shod» (2013), «Zamonamizning zabardast shoiri» (2015) kabi monografiya, o'quv qo'llanma, adabiy-tanqidiy maqolalardan iborat o'n beshdan ziyod kitoblari bosilib chiqqan. Shuningdek, respublika gazeta va jurnallarida 400 dan ortiq ilmiy, ommabop hamda publisistik maqolalari e'lon qilingan.

Y.Solijonov badiiy ijod sohasida ham samarali ishlamoqda. Uning talay she'rlari «Go'zal bir dunyo» (1994), «Navro'z ohanglari» (2000), «Farg'ona ohanglari» (2011) singari bayozlarda, respublika gazeta va jurnallarida bosilgan. U asosan she'riy va nasriy parodiyalari, hajviy hikoya hamda hazillari bilan tanilgan. 2004-yilda uning «Suv keltirgan aziz» deb nomlangan hujjatli qissasi (N.Rahimov bilan hammalliflikda), «O'g'lim, senga aytaman» (2006), «Sen shirmon yuzligim» (2007) singari she'riy to'plamlari ham chop etilgan.

